

# TARBIYA 9

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
9-sinf o'quvchilari uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan tavsiya etilgan*



Toshkent  
«O'zbekiston»  
2020

UO'K 17(075.3)  
KBK 87.7ya72  
T 23

Sh. Sattorov, D. Ro'ziyeva, Z. Islomov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova,  
Z. Zamonov, O. Maxmudov, D. Rahimjonov, N. Xolmuxamedova,  
S. Madaliyeva, L. Mo'minova, S. Zokirova

#### Mas'ul muharrirlar:

Z. Islomov – filologiya fanlari doktori, professor  
D. Kenjayev – tarix fanlari nomzodi

#### Taqrizchilar:

**U. Uvatov** – tarix fanlar doktori, professor  
**F. Vahabova** – Toshkent shahridagi «Lider» xususiy maktabi direktori  
**R. Jabborov** – Adliya vazirligi Huquqiy targ'ibot boshqarmasi katta maslahatchisi  
**I. Kamolov** – Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi  
**H. Jabborov** – Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita,  
Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining  
tegishli xulosalari asosida nashrnga tayyorlangan

### SHARTLI BELGILAR



Amaliy faoliyat



Bilasizmi?



Faollashtiruvchi savollar



Ma'nnaviyat xazinasidan



Jamoaviy mashg'ulot



Mulohaza uchun



Mustaqil faoliyat



Savol va topshiriqlar



Vazifa

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-6577-4-8

© Sh. Sattorov, Z. Islomov va boshq., 2020

© «O'zbekiston» NMIU, 2020

## MUNDARIJA

### I BOB YASHASHDAN MAQSAD - MUNOSIB HAYOT

|  |    |
|--|----|
| 1-mavzu: Ulug'imsan, Vatanim! .....                                | 6  |
| 2-mavzu: Yashamoq - o'zidan yaxshi nom qoldirmoq.....              | 10 |
| 3-4-mavzu: Yuksalish - o'zingni anglashdan<br>boshlanadi.....      | 13 |
| 5-mavzu: Faol o'quvchidan faol fuqarolikkacha .....                | 19 |
| 6-7-mavzu: Kelajakka sarmoya - vaqt ni mazmunli<br>o'tkazish ..... | 23 |
| 8-mavzu: Baxt - oilada .....                                       | 29 |
| 9-mavzu: Baxtiyorlik - umrning bosh maqsadi.....                   | 34 |

### II BOB ILM-MA'RIFAT. INNOVATSIYA

|   |    |
|---|----|
| 10-mavzu: Buyuklarni aziz qilgan - bilim .....                            | 40 |
| 11-12-mavzu: Tafakkur - kelajakka yetaklovchi<br>vosita .....             | 45 |
| 13-mavzu: Bilimga asoslangan jamiyatda<br>muvaqqiyat qozonish .....       | 50 |
| 14-mavzu: Innovatsiya va ilg'or fikrlash -<br>taraqqiyot g'ildiragi ..... | 54 |
| 15-16-mavzu: Tanqidiy fikrlash .....                                      | 58 |
| 17-18-mavzu: Liderlikka xos xususiyatlar .....                            | 64 |

### III BOB ORZU, MAQSAD VA MUVAFFAQIYAT

|  |    |
|--|----|
| 19-mavzu: Bizning kuchli va kuchsiz tomonlarimiz.....  | 72 |
| 20-mavzu: Maqsadga qanday erishiladi? .....            | 76 |
| 21-mavzu: Muvaffaqiyat - qimmatli tajriba mevasi ..... | 82 |
| 22-23-mavzu: O'ziga ishonch - mo'jizakor kuch .....    | 87 |
| 24-mavzu: Muloqot va ijtimoiy<br>ko'nikmalar .....     | 94 |
| 25-mavzu: Kelajak kasblari .....                       | 97 |

### IV BOB TADBIRKORLIK, G'OYA VA BOYLIK DAN FOYDALANISH MEZONLARI

|  |     |
|--|-----|
| 26-mavzu: Tadbirkorlik mezonlari .....                           | 102 |
| 27-28-mavzu: Biznesni boshlash uchun<br>zamonaviy g'oyalar ..... | 107 |
| 29-mavzu: Frilanserlik - qo'shimcha daromad<br>manbai .....      | 113 |
| 30-31-mavzu: Insonni boy va qashshoq qiluvchi omillar            | 117 |
| 32-mavzu: Boylikdan foydalanish mezonlari .....                  | 123 |

ENG KATTA BOYLIK – BU AQL-ZAKOVAT VA ILM,  
ENG KATTA MEROS – BU YAXSHI TARBIYA,  
ENG KATTA QASHSHOQLIK – BU BILIMSIZLIKDIR!

*Sh. MIRZIYOYEV*

## **QADRILI YOSHLAR!**

Hayotingizda muhim davr boshlanmoqda. Sizning yoshingizda inson kelajagini yorqinroq ko'rishga intiladi. Aynan shu yoshda siz yillar davomida tinchlik bermay kelayotgan orzular asosida rejalar tuza boshlaysiz. Bularning barchasi baxtiyor, munosib va mustaqil hayotga intilishdan darakdir.

Unutmang, mustaqil hayotda eng ishonchli panoh ta'lim va tarbiyadir. Siz kimsiz, qayerdasiz, bulardan qat'i nazar, siz – o'z kelajagingiz egasisiz. Zamonayiv ta'lim va go'zal tarbiya sizga o'zingiz va ota-onangiz xohlagan inson bo'lishga, chiroqli va baxtli yashashga yordam beradi.

Bu yo'lida qat'iyat sizga yordam beradi. Zero, maqsad ortidan borish metin irodani shakllantirib, astoydil mehnat qilish va izlanishni rag'batlantiradi.

Bugun barchamiz yangi texnologik davrda yashamoqdamiz. Ilg'or g'oyalarni ilgari suradigan, tashabbuskor va ijodkor mutaxassislar har bir zamonning eng oldi, muvaffaqiyatlari insonlari bo'lishgan. Shunday ekan, siz salohiyatingizni rivojlantiradigan ishlarga, hamisha olg'a boruvchi insonlarga intiling.

Unutmang, sizdagi navqiron yoshlik hayotingizning oltin davridir. Bu imkoniyatni munosib tarbiya va chuqur bilim olishga, Ona Vatanga xizmat qilishga, ezgu va xayrli ishlarga sarf qiling.

*Mualliflar jamoasi*

## I B O B

### YASHASHDAN MAQSAD - MUNOSIB HAYOT

- Vatandan tashqarida baxt yo'q
- Vatan - shirin jon, usiz yashab bo'lmas
- Eng go'zal hayot - yaxshilik uchun yashalgan hayot
- Oila tarbiyaga tayansa, mamlakat ravnaq topadi
- Baxtiyorlik - bilim, mehnat va harakat natijasi
- O'z-o'zini anglash - baxt va muvaffaqiyatning asosi
- Faol fuqarolik - mahalla obodligi, farovon turmush kafolati
- Munosib umr vaqtini maqsadli sarflashdan boshlanadi



## 1-MAVZU: ULUG'IMSAN, VATANIM!

Tafakkur qilib ko'ring, borliqdagi har jonzot o'zi ma'qul ko'rgan go'sha-da yashaydi. Insondon tortib tog'-u sahrodagi jonivorlar, osmondagи qush-lar, ummondagi baliqlarning ham o'z oshyonlari bor. Ular baxtiyorlik va xotirjamlikni his qilish uchun ham makon tutadilar.

Vatan – inson uchun eng qadrli va eng suyukli dargohdir. Vatanni obod qilish – har bir kishining burchi. Farzandlariga obod va ozod Vatan qoldirish – har bir insonning oliv maqsadi. Barcha dinlarda Vatanga xiyonat qoralanadi, iymonsizlik belgisi va og'ir jinoyat sanaladi.

\* \* \*

2019-yil 31-avgust. Seul shahri markazidagi Dondemun mavzesida-gi «O'zbek ko'cha»sidaman. O'qishdan vaqt orttirib, yurt xumorida shu ko'chada kezaman.

Bu yerda hamma jonsarak – taraqqiyot ortidan chopayotgan koreya-liklar kabi, musofirlar uchun ham har soniya g'animat. O'zbek tilida so'zlashgancha shosha-pisha ketayotgan yo'lovchilar ham yurakka yaqin. Ich-ichimdan ovoz keladi – Vatan! Vatan, seni juda sog'indim!

Go'yoki ko'chaning tez tugab qolishidan qo'rqib, asta qadam tashlay-man. Yon-atrofdagi o'zbekona choyxonalarda tabassum bilan bir-biriga choy uzatayotgan insonlar davrasiga qo'shilgim keladi. Ularga qarab jilmayar ekanman, labim beixtiyor pichirlaydi: «Assalomu alaykum!»



Milliy uslubda qad rostlagan binoda osig'liq Vatan bayrog'ini ko'rishim bilan to'lqinlanib ketdim. Tanish ohang qulog'imga chalindi:

O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim...

«Keling, bir piyola choy ichib keting!» deya samimiyl manzirat qilayotgan zardo'z nimchali ofitsiantga nam ingan ko'zlarimni tikkancha, «Bayram muborak bo'lsin! Bayram muborak, vatandosh!» deyman xursand-chilik bilan.

*Koreyadagi o'zbek talabasining kundaligidan*

## Amaliy mashg'ulot



1. Yuqoridagi matnga sarlavha tanlang.
2. Oilangizdan uzoqda nimalarni his qilasiz?
3. Mahalla-qishlog'ingiz yoki shahringizdan uzoqda bo'lsangiz-chi?
4. Olisdagi insonlar qanday sabablar tufayli yana Vatanga qaytadilar?
5. Vatanimiz tarixida yurtni himoya qilib, dushmanga qarshi kurashgan kimlarni bilasiz?

## Bilasizmi?



«Vatan» atamasi arabcha so'z bo'lib, «tug'ilgan makon», «ona yurt» ma'nosini anglatadi. Vatan – bu insonning tug'ilib o'sgan yeri, uning go'daklik chog'idanoq mehr qo'ygan maskanidir.

## Jamoaviy mashg'ulot



*Tasavvur qiling, rassom quyidagi hikmatlardan biriga surat ishlamoqchi. Unga bu fikrlarni suratda ifodalash uchun g'oya bering.*

Ona Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli eng go'zal narsalar bunyod bo'ladi.

Vatandan tashqarida baxt yo'q, har kim jonajon yerida ildiz otsin.

Soyasida o'tirmasligini, mevasini yemasligini bilsa ham, daraxt ekkan inson, hech bo'lmasa, hayotning mazmunini tushuna boshlabdi.

## Ma'naviyat xazinasidan



Inson Vatanini sevgani bois ham dunyo obod bo'lgan.

*Ali ibn Abu Tolib*



## Mulohaza uchun

### ULUG'LARNI, SHOHLARNI YIG'LATGAN - VATAN SOG'INCHI

Imom Termiziy rivoyat qilishicha, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) Makkan ni tark etishga majbur bo'lganlarida, shahar chegarasida orqalariga qarab shunday degan ekanlar: «Qandayam yaxshi shaharsan, qandayam menga suyuklisan! Agar meni sendan chiqarib yuborishmaganida, sendan boshqada yashamasdim».

(*Sunnani Termiziy*)


\* \* \*

- «O'zbekistonni yaxshi ko'raman».
- «Qanchalik yaxshi ko'rasan?»
- «Ko'p, juda ko'p».
- «Vatanni yaxshi ko'rish nimaligini bilasanmi?»
- «Ya'ni?...»

*Vatanga muhabbatni qanday namoyon qilasiz? Misol uchun, ona farzandini jonidan aziz ko'rgani uchun unga mehr beradi, bag'riga bosadi, avaylaydi. Bizning qaysi xatti-harakatlarimiz Vatanimizga bo'lган muhabbatimizni ifodalaydi?*

\* \* \*

Buyuk shoir va hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur Vatandan ketishga majbur bo'lgan. U Hindistonda yirik sultanat bunyod qilgan bo'lsa ham, bir umr bobokalonlaridan meros Vatanni qo'msab o'tgan. U Vatanga murojaat qilib, «Behad vafo-u mehr sanga ko'rsatib edim, Sen ham sog'ing'aysen mehr-u vafo bila», deb yozadi.



## Jamoaviy mashg'ulot



1. Vatandan boshqa yerda yashashni tasavvur qilishga yo'l qo'ymaydigan uchta sababni ayting.
2. Musofirlikda shohona saroylarda yashasa ham, Zahiriddin Muhammad Boburni bir umr Vatan sog'inchida yashashga majbur qilgan 3 ta sababni ayting.
3. Jamoangiz bilan Vatanga muhabbatni ifodalaydigan ishlar ro'yxatini tuzing?

## Ma'naviyat xazinasidan



Avlodlarga qoldirish mumkin bo'lgan eng munosib meros – Vatan erkinligi, zaminni sevish tuyg'usi hamda go'zal tarbiyadir.

*Sharq hikmati*


## Mulohaza uchun



O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1998-yili tibbiyot instituti talabalari bilan uchrashuvda talaba qizning «Vatan siz uchun nima, Vatanni siz qanday tushunasiz?» degan savoliga quyidagicha javob bergan:

«Singiljon, – dedi shoир hayajon bilan, – mana siz, o'qishni tugallab shifokor bo'lasiz. Bemorlarni davolaysiz. Ayting-chi, jonsiz tanani davolash mumkinmi? Yo'q. Vatan men uchun – jon. Jonsiz yashab bo'lmanidek, Vatansiz ham yashab bo'lmaydi. «Jon shirin» deyishadi. Vatan – jondan ham shirin.

Hayotimni, olayotgan har nafasimni, bosayotgan har qadamimni, aytayotgan har so'zimni shu shirin jonsiz tasavvur qila olmayman. Men Vatanni shundoq tushunaman...»



1. Muhammad Yusuf nima sababdan Vatanni jonga o'xshatgan?
2. Siz Vatanni nimaga qiyoslagan bo'lar edingiz? Fikringizni izohlang.

## Mustaqil faoliyat



Muhammad Yusufning Vatan haqidagi «Iqror» she'rini o'qing.



## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot

### 2-MAVZU: YASHAMOQ – O'ZIDAN YAXSHI NOM QOLDIRMOQ



#### Faollashtiruvchi savollar



1. «Yaxshi nom» deganda nimani tushunasiz?
2. Hayot mazmuni nimadan iboratligi xususida xulosangiz bormi?



Johann  
Gutenberg  
(1400–1468)



Dmitriy  
Mendeleyev  
(1834–1907)



Ajiniyoz  
Qosiboy o'g'li  
(1824–1878)



Mahmudxo'ja  
Behbudiy  
(1875–1919)



Rizamat ota  
Musamuhamedov  
(1881–1979)



Vera Pak  
(1938–2018)



Abdulla Oripov  
(1941–2016)



Dilbar Ikromova  
(1947–2020)



#### Vazifa

Yuqoridagi suratlarda aks etgan insonlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga misollar keltiring. Ayrim insonlarning nomlari asrlar o'tib ham unutilmasligining sababi nimada? Qanday insonlarni tez unutib yuborishadi?

Xalqimiz hayotda yaxshi nom qoldirgan odamni bog'bonga o'xshatadi. Yaxshi insonni yana nimalarga qiyoslash mumkin?

*Quyidagi suratlarda qanday yaxshi ishlar aks etganini yozing.  
Yaxshilikning yana qanday turlari va ko'rinishlari borligini sanang.*



## Amaliy faoliyat



*Quyidagi hikmatlarni to'ldiring va ma'nosini anglashga harakat qiling: maktab, yaxshilik, oqilona, yomon ish, yaxshi nom, ilm.*

Bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas, biroq ..... qoldirmoq katta saodatdir.

*Alisher Navoiy*

Dunyoda yashamoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, boy bo'lmoq u yoqda tursin, ro'zg'or tebratish uchun ham ..... kerak.

*Mahmudxo'ja Behbudiy*

Hayot yo'lida birinchi masala – ..... masalasidir.

*Abdurauf Fitrat*

Hurmatga erishish uchun ko'plab yaxshi ishlar qilish kerak. Lekin birligina ..... undan mahrum qiladi.

*Benjamin Franklin*

..... qilganlargina bu hayotda yashay oladilar.

*Lev Tolstoy*

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Mulohaza uchun

Bolaligimda otam bilan sirkka boradigan bo'ldik. Chipta uchun navbat kutar ekanmiz, bizdan oldinda olti nafar farzandli bir oila turardi. Bolalar xursand ko'rinar, ular sirk haqida gaplashishardi. Navbatlari kelgach, oila boshi chipta sotuvchidan narxni so'radi. U narxni eshitgach biroz o'ylanib, turmush o'rtog'iga pichirlab nimadir dedi. Yuzida bezovtalik alomatlari paydo bo'ldi.



Shu payt otam cho'ntagidan pul olib, yerga tashladi va egilib uni oldi-da, haligi kishining kaftiga qo'yib, «Pulingiz tushib ketdi», – dedi. U kishi otamga minnatdor boqdi va «Rahmat, aka», – dedi.

Ular kirib ketishgach, otam qo'llimdan tortdi va biz qatordan chiqdik. Savol aralash nigohimga, «Ularni xijolat qilmaylik, biz boshqa kuni kelamiz», – dedi.

O'shanda otamdan juda faxrlangan edim. Bu holat butun hayotimdag'i eng go'zal manzara bo'lib qolgan. U o'sha kuni ko'rolmaganim – sirkdan ham yaxshiroq edi.



### Savol va topshiriqlar


1. Hikoya qahramonining otasi nima sababdan o'z pulini boshqa birovga berdi?
2. Qaysi xislatlar odamni boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga undaydi?
3. Hikoya qahramoni nima sababdan otasi bilan faxrlana boshladi?
4. Nima sababdan o'sha voqeа qahramonning hayotidagi «eng yaxshi» manzara bo'ldi?
5. Hikoyani qanday nomlagan bo'lar edingiz?
6. Hikoyadan nima xulosaga keldingiz?



### Ma'naviyat xazinasidan

Odamlarga beminnat yordam qo'lini cho'zish – bu dunyoda yashayotganga uchun Yaratganga shukronadir.

*Muhammad Ali, boks ustasi*



### Mustaqil faoliyat

«Yaxshilik» yoki «Yaxshi ish» mavzularida rasm chizing yoki kichik matn yozing.

## 3-4-MAVZU: YUKSALISH – O'ZINGNI ANGLASHDAN BOSHLANADI

### Faollashtiruvchi savollar



1. Hech o'ylab ko'rganmisiz, davlat rivojlanishida eng muhim omil nima?
2. «Har bir inson – noyob tabiiy boylik» degan fikrni izohlang.
3. Ta'lif qanday qilib insondagi iste'dodni yuzaga chiqaradi?
4. Bilimga asoslangan jamiyatda qanday ko'nikmalar insonlarga muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi?


### Mulohaza uchun



Dunyoga kelgan har bir inson – davlat uchun tom ma'nodagi noyob boylikdir. Unda o'ziga xos qobiliyat yashiringan bo'ladi. Shu qobiliyat yuzaga chiqsa, undagi iste'doddan butun jamiyat manfaatdor bo'ladi. Insondagi iste'dodni kashf qilishning vositasi – ta'lif.

Tabiiy xomashyo resurslari dunyo miqyosida deyarli adog'iga yetmoqda. Shu sababli mamlakatlarning e'tibori inson aql-zakovatini «zabt etish»ga qaratilgan. Inson omili yuksalib, jahon iqtisodiyoti tobora bilimga asoslangan sohalar ixtiyoriga o'tmoqda. E'tibor qiling, dunyoning eng boy kompaniyalari ham aql evaziga boyimoqda. Hozirgi jarayonda ko'proq bilim olib, ilg'or fikrlarni ilgari surish – muvaffaqiyat asosidir.

Jamiyat rivoji shaxslarning rivojlanishi bilan bog'liq. Inson omili yuksalgani sayin davlat ham taraqqiy etib boradi. Shaxsiy rivojlanish – umr bo'yi davom etadigan jarayon. Odamlar salohiyatlarini anglash va yuksaltirishni istasalar, ular maqsadlarini belgilashlari hamda ularga yetish uchun zarur qobiliyat, fazilatlarini rivojlantirishlari kerak.





## Amaliy faoliyat

### Hayot muntazam rivojlanishdan iborat

1. Beshta guruhgaga bo'lining va berilgan matnni diqqat bilan o'qing. Savollarga javob bering.
2. Insonning ehtiyojlarini pastdan tepaga qarab piramida joylashtiring.
3. Bu ehtiyojlarni juda muhim va u qadar muhim bo'l-magan ehtiyojlarga ajrating. Fikringizni asoslang.



### 1-guruh uchun:

Yangi tug'ilgan chaqaloq onasiga talpinib yig'lay boshladи. Ona uni qo'liga oldi. Bag'rige bosib, qornini to'yg'azdi. Chaqaloq yana yig'lay boshladи. Ona uni yana qo'liga oldi va tagligini almashtirdi. Bir muddat bag'rige bosgan edi, bola uxlab qoldi. Xona isib ketgani uchun chaqaloq yana bezovtalandi. Ona xonani shamollatdi. Bir muddat o'tib bola sovqotdimi, yana g'ingshidi. Ona unga yana mehribonchilik ko'rsatdi.



**Chaqaloqning bu bezovtalanishini tabiiy ehtiyoj deyish mumkinmi? Tabiiy ehtiyojlarni ajratib chiqing. Bu ehtiyojlar insonning umri davomida u bilan ajralmas bo'lib qoladimi?**

**Bu ehtiyojlarni «insonning asosiy ehtiyojlari» deyish mumkinmi?**



## 2-guruuh uchun:

Bola ulg'aya boshladi. Kuchli shamol turib, momaqaldiroq gumburladi, chaqmoq chaqdi. Bola darhol otasining pinjiga kirdi.

Ota-bola sayrga chiqishdi. Qo'shni bolaning kuchukchasi bolaga qarab yugurib, u bilan o'ynamoqchi bo'ldi. Bola shoshgancha otasiga talpindi. Ota uni ko'tarib oldi. Bola o'zini xavfsiz sezdi.

Bolaning nimaga ehtiyoj sezganini aniqlang. Xavfsizlikka intilish hissi qanday paydo bo'ladi?

Nima uchun inson xavfsizlikka intilib yashaydi? Bu intilishni insonning birlamchi ehtiyojlaridan deyish mumkinmi?

## 3-guruuh uchun:

Bola mакtabga bordi. Jamoaga qo'shil-di. Onasi uni maktabga kuzatar ekan, sinfdoshlari bilan ahil-inoq bo'lismeni tayinladi. Bola ulg'aygani sayin, boshqalardan ko'proq e'tibor va iliq munosabatni kuta boshladi. U odamlar bilan yaxshi muomala qilar, xato qilganda «uzr», «kechirasiz», fikr tug'ilganda «mumkinmi», «mening fikrimcha», «siz nima deb o'ylaysiz», «maylimi» kabi so'zlarni ishlatar edi. Uni sinfdoshlari o'ta madaniyatli va tartibli bola sifatida qabul qilishdi. Uni hamma hurmat qilar edi.

U institutga o'qishga kirdi. O'ziga ma'qul bo'lgan qiz bilan tanishdi. Ular tur mush qurishdi. Hayotlaridan mamnun va baxtli edilar.

Yuqoridagi matnda inson uchun zarur qanday ehtiyoj to'g'risida gap ketyapti? Bu ehtiyoj insonga nima uchun kerak?



## 4-guruuh uchun:

Ular ishda yaxshi mutaxassis, oilada esa mehribon ota va ona.

Ularning oilasida bolalarning ham fikrlari hurmat qilinadi. O'qishi yoki biror narsa xarid qilishda bolalarning fikrlari albatta so'raladi.

Ular farzandlariga yaxshi tarbiya berishdi. Mahallada ularni «namunali oila» deb e'tirof etishdi.

Insonning bu ehtiyojlarini qanday tushunish mumkin? Bu ehtiyojlar insonga nima uchun kerak?

Bu darajaga yetishish uchun boladan nimalar talab qilinadi?

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### 5-guruh uchun:

U ilm-fanni rivojlantirish uchun tinmay harakat qildi. Izlanishlar olib bordi. Tajribalar o'tkazdi, ilmiy maqolalar yozdi. Uning bu harakatlari zoye ketmadi. Mehnatlari qadrlandi va yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Mehnatning qadrlanishi, unga yarasha mukofot olish inson uchun ehtiyojmi? Bu ehtiyoj insonga qanchalik zarur?



### Mulohaza uchun



Axloq – insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilub tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabitidur.

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur. Tarbiyaning axloqga, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar». Mana bu so'z to'g'ridur.

Yaratgan insonlarni asl xilqatda ist'e'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomon, foyda ila zarar, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladur. Qush uyasinda ko'rganin qiladur. Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqlaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.

*Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan*

Buyuk ma'rifatparvar va iste'dodli pedagog Abdulla Avloniy (1878–1934) o'zbek xalqi maorifi, madaniyati, ma'rifatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan. Ma'rifatparvar olim hayotini yangi maktablar tashkil etish, yosh pedagoglarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish, ta'lif-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga bag'ishlagan. Uning maktablar uchun yozgan darsliklari o'z davrida Markaziy Osiyoda ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shgan.



## Jamoaviy mashg'ulot

*Quyidagi fikrlarni muhokama qiling:*

Yoshligidan tarbiyasiz o'sgan kishilardan yaxshilik kutish – yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidir.



Axloqimizning go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir.

Kishi yaxshi tarbiya olib, go'zal xulqlarga odatlansa, u baxtiyor inson bo'lib voyaga yetar.

Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.

## Ma'naviyat xazinasidan



Odamlarning botiri kelajakdag'i ishlardan qo'rqlmaydi. Kamolot hosil qilishdan chetlangan kishi – odamlarning eng qo'rrog'idi.

*Abu Ali ibn Sino*

## Bilasizmi?



Olimlar inson ehtiyojlarini quyidagilarga bo'lganlar:

**Jismoniy ehtiyojlar:** toza havo, suv, oziq, uyqu, uy, me'yordagi harorat, dam olish, mashq.

**Xavfsizlik ehtiyojlari:** jismonan va ruhan o'zini xavfsiz his qilish.

**Tegishlilik va mehrni his qilish ehtiyoji:** sizni oilangiz yaxshi ko'radi, atrofdagilar hurmat qiladi va siz – jamoaning bir bo'lagisiz.

**O'z-o'zini qadrlash va munosib bilish ehtiyoji:** o'zini barkamol his qilish va qadrlash, hurmat qilish hissi. Bu, oilani, atrofdagilarni hurmat qilish hissini uyg'otadi va imkoniyatlarni kengaytiradi.

**Maqsadni anglash ehtiyoji:** ma'no yoki maqsadni izlash qiziquvchanlik va chuqur bilishga, o'rganishga undaydi.

**Go'zallik ehtiyoji:** chiroyli va tartibli hayot ehtiyoji insonni yaratuvchanlik, san'atga undaydi.

**O'z-o'zini anglash ehtiyoji:** shaxsiy salohiyatni to'liq anglash orqali o'zi istagan har qanday holat yoki maqsadga erishish.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Savol va topshiriqlar

1. Insonga o'zini anglash nima uchun kerak?
2. Salohiyatingizni namoyon qilish uchun zarur barcha ehtiyojlar sizda mavjudmi?
3. «Anglash ehtiyoji» deganda nimani tushunasiz?
4. «Ehtiyojlar piramidasi» asosida o'zingiz uchun kun tartibi tuzing.



### Amaliy faoliyat

#### SHAXSIY RIVOJLANISH UCHUN 3 QADAM

##### **Shaxsiy nuqtayi nazarni rivojlantiring.**

1. Ayni paytda oldingizda turgan maqsadingizni yozing.
2. Maqsadingiz haqida nima deya olasiz? U siz uchun nega ahamiyatli?
3. U sizni bir oy yoki bir yildan keyin qayerga olib boradi?

##### **Shaxsiy rivojlanishni rejalashtiring.**

1. Maqsadingizga sizni nima olib boradi?
2. Unga yetish uchun oldingizda qanday to'siqlar bor?
3. Bu yo'lida sizga qanday ko'nikma va bilim kerak bo'ladi?
4. Siz o'zingizni qayerda tasavvur qilsangiz – shuning o'zi siz uchun maqsad sari olg'a borishga rag'batdir.

##### **O'zgarish jarayonini boshlang.**

1. Qaysi ishni oson va maromiga yetkazib, zavq bilan bajarasiz? Buning uchun atrofdagilardan qanday e'tirof eshitgansiz?
2. Bu yo'nalishda yetuk mutaxassisiga aylanish uchun qanday ko'nikmalar zarur?
3. Nimada qobiliyatli ekaningizni bilish, sizga baxt va davlat olib keladigan ish bilan mashg'ul bo'lishni anglatadi.



##### **Yuqori natijaning sabablari:**

Malaka – bilim va mahoratning yuqoriligi  
Rag'bat – motivatsiyaning borligi

##### **Unumdorlikka erishishning uch bosqichi:**

Qolningizdan keladigan ishni qiling  
Shu yo'nalishda o'qib-o'rganining  
Rivojlanish rejasini tuzing

##### **Yuqori natijaning o'lchovlari:**

Daromadning oshishi  
Ichki mammunlik  
Ijobiy o'zgarishlar

## 5-MAVZU: FAOL O'QUVCHIDAN FAOL FUQAROLIKKACHA

### Mulohaza uchun



Maktabdan qaytayotgan Bahromjon elektr simini uzilib yotganini ko'rib qoldi. Aylanib o'tib ketmoqchi bo'ldi. Lekin bu yerdan o'tishi mumkin bo'lgan yosh bolalar va qariyalar ko'z oldiga keldi-yu, qo'l telefonidan 1050 – avariya xizmatiga telefon qilib, muammoni aytdi. Muammo tezda bartaraf etildi.

1. *Bahromjonning e'tibori mahalla osoyishtaligiga qanday hissa qo'shadi?*
2. *O'ylab ko'ring-chi, barcha fuqaro faol, e'tiborli bo'lsa nima bo'ladi?*

\* \* \*

Faol fuqarolar shaxsiy maqsadlari va qiziqishlari yo'lida bir-birlari bilan hamkorlik qilishadi. Ular uyushmalar, iste'molchilar kengashlari, klublar va ko'ngillilar jamoalarini tuzadilar.

Shaxsiy javobgarlik hissiga ega fuqaro jamiyatda faol bo'lishning ahamiyatini anglaydi. Faol fuqarolar nafaqat jamiyatning rivojlanishi, balki boshqalarning farovonligini ham o'ylaydilar. Ular atrofdagilarga yordam qo'lini cho'zadilar, xayr-saxovat ishlarida qatnashadilar. Faol fuqarolik Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi sabab paydo bo'ladi. Ular mahalliy tuzilma va tashkilotlarda ko'ngilli sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

### Vazifa



*Matnni o'qing va nuqtalar o'rniغا berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni to'ldiring.*

### FAOL FUQARO KIM?

Faol fuqarolar ... kunida mamlakat ... uchun xizmat qiladigan nomzodlarga ovoz berish uchun ... ishtirok etadilar. Fuqarolar bir qancha ... egalar, shu bilan birga ularning ... ham bor. Fuqaro mamlakati ... uchun xizmat qiladi. Ular davlat ... hurmat qilishlari zarur. Fuqaroning davlat boshqaruvidagi ... rivojlanish uchun muhimdir. Kimningdir Vataniga sodiqligi va ... vatanparvarlik deyiladi. Faol fuqaro mahalla va hududi ..., xavfsizligi va ..., atrof-muhitni ... uchun kamarbasta bo'ladi.

**Foydalanish uchun so'zlar:** farovonligi, obodligi, majburiyatları, asrab-avaylash, osoyishtaligi, faolligi, fidoyiligi, qonunlarini, nomzodlarga, huquqlarga, saylovlarda, rivoji, saylov.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Vazifa


#### ANZIRAT BUVI KIM?

Barchamizga yaxshi tanish «Suyunchi» filmining bosh qahramoni – Anzirat buvi qishloqdagi barchanining issiq-sovug'idan xabardor, hashar ishlariiga bosh-qosh, muammolarga yechim topishda faolligi bilan tomoshabinda taassurot qoldiradi. Uni faol fuqaro timsoli deyish mumkin.

**Mashq.** Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

Anzirat buvining ... ... sababli hamqishloqlari uni «General buvi» deb atashadi.

Qishloqning ... ...ga aylangan Anzirat buvi qishloqni ... ... qilishga bosh-qosh.



U hamqishloqlarining ... ..., ... va ... ...ga jim qarab tura olmaydi.

*Qishloq raisi nima sababdan Anzirat buvini «qishloqning vijdoni» degan?*

*Qishloqning ham vijdoni bo'ladi mi?*



### Bilasizmi?

**Faol fuqarolik** – bu fuqarolarning jamoat ishlari va davlat boshqaruvidagi, shuningdek, xalqaro miqyosdagi faol ishtirokidi.

#### Mahalliy darajadagi faollik:

Fuqarolarning mahalla miqyosidagi masalalarda faol bo'lishi, muammolarni hal qilishdagi ishtiroki.

#### Hududiy yoki davlat ahamiyatidagi faollik:

Fuqarolarning hudud yoki davlat miqyosidagi masalalarni hal etishdagi faol ishtiroki.

#### Xalqaro darajadagi faollik:

Fuqarolarning xalqaro ahamiyatga ega masalalar bilan bog'liq faol harakatlari.


## Vazifa



1. Sarvarbek ishdan bo'sh vaqtlarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish dasturi doirasidagi «Ona tabiatga qo'l cho'z» loyihasida ishtirok etadi. Uning bosh maqsadi – tabiatni himoya qilishdir. Loyiha doirasida u boshqa mamlakatlardagi tabiatsevar insonlar bilan tajriba va fikr almashadi.


2. Qo'shni hovlida ma'raka bo'lib qoldi. Qo'ni-qo'shnilar darrov chiqib, ko'cha-hovlilarni supurib-sidirib, odamlar kelishi uchun joy tayyorlay boshladilar. Kimdir uyidan ko'rpancha olib chiqsa, kimdir stol-stul tashish bilan ovora edi.

3. Qo'shni xonadonga mehmon keldi. Uyda hech kim bo'limgaganligi sababli, yon qo'shni mehmonlarni uyiga olib kirib, dasturxon yozdi va hurmat-ehtirom ko'rsatdi.



4. Mahalla fuqarolar yig'inida urush qatnashchisi Samariddin otaning betobligidan xabar topgan Sarvarbek ko'cha boshidagi novvoyxonadan non olib, uyidan chiqa olmayotgan otaxonni yo'qlab kirdi.

5. «Yangi hayot» mahallasining obodligi ko'zni quvontiradi. Har yili mahallaning uyushqoq aholisi hashar tadbirlarini tashkil etadilar. Mahalladagi ko'ngillilar jamoasi xayriya va bayram tadbirlarini o'tkazishga boshqosh.



## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot

1. Mazkur hikoyalarda qanday qadriyatlar mavjud?
2. Bu qadriyatlar qanday shakllangan?
3. Sizning mahallangizda ham shunday an'analar bormi? Misollar keltiring.
4. Nima sababdan mahallaga «qadriyatlar beshigi» deb ta'rif berilgani haqida fikringizni ayting.
5. Qanday holatlarda «Mahalla-ko'y nima deydi?» deb ta'kidlashadi?



## Vazifa

Axborot texnologiyalari asrida faol fuqarolar o'rtasida yangicha an'ana paydo bo'ldi – elektron ishtirok. Elektron ishtirok – davlat va jamiyat boshqaruvida Internet orqali ishtirok etishni anglatadi.


Quyidagi elektron portallar orqali ham fuqarolarning ariza, taklif yoki shikoyatlari va tashabbuslari qabul qilinadi:

**pm.gov.uz** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi.

**meningfikrim.uz** – Jamoaviy murojaatlar portalı.



Quyida keltirilgan tushunchalar asosida axborot texnologiyalari fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashiga misollar keltiring.



## Mustaqil faoliyat

Quyidagi savollarni oila davrasida muhokama qiling:

1. Befarqliq, dangasalik, loqaydlik kabi illatlar jamiyatda qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
2. Siz fuqaro sifatida buning oldini olish uchun nimalar qila olasiz?
3. Mahalliy darajadagi faol fuqarolikka mos faoliyatni amalga oshiring. Uning asosida «Men faol fuqaroman» mavzusida kichik hikoya yozing.

## 6-7-MAVZU: KELAJAKKA SARMOYA – VAQTNI MAZMUNLI O'TKAZISH

### Faollashtiruvchi savollar

1. Sizning yoshingizda kelajak uchun eng yaxshi sarmoya nima?
2. Vaqtini sarmoya sifatida qo'yish mumkinmi?
3. Sizning tasavvuringizda vaqt nima?
4. Vaqt bizning hayotimizga qanday ta'sir qiladi?
5. Vaqtini yo'qotayotganingizni his qilasizmi? Qaysi payt?



### Mulohaza uchun

#### VAQTNI TO'G'RI TAQSIMLASH

O'qituvchi stol ustidagi idishga bir necha dona qayroqtoshlarni soldi. «Nima deb o'ylaysizlar, idish to'ldimi?» – so'radi u o'quvchilardan. Idishda ko'rinish turgan qayroqtoshlarni ko'rib, sinf uning to'lganini tasdiqladi.

So'ng o'qituvchi dars avvalida stol ustiga yoygan qog'ozdan yarim hovuch mayda shag'al toshchalarni olib, idishga soldi va yana o'quvchilardan idishning to'lgan-to'lmanligini so'radi. Qayroqtoshlar orasidan sirg'anib, bo'sh joylarni to'ldirgan shag'alni ko'rgan o'quvchilar yana bir ovozdan idishning to'lganini tasdiqlashdi.

Shundan keyin o'qituvchi kaftini qog'oz ustidagi qumga to'ldirib, uni qayroq va shag'alga to'lgan idish ustiga to'kdi. To'lganligi bir necha marotaba tasdiqlangan idishga bir kaft qum zarralari ham singib ketdi.

O'quvchilar bu gal ham bu tajribaning nima bilan tugashiga qiziqib, «To'ldi!» deb javob qaytarishdi.

«Bu idish sizning umringiz timsoli: qayroqtoshlar – sizning oilangiz, yaqin do'stlaringiz, salomatligingizdir. Mayda shag'al donalari – sizning ishingiz, qiziqish va boshqa istaklaringiz. Qum esa – hayotingizdagи boshqa mayda-chuydalardir», deya so'zini tugatdi o'qituvchi.

### Savol va topshiriqlar

1. Idishga birinchi bo'lib qumni solsak, nima bo'ladi?
2. Hayotda avval mayda-chuydalarga navbat berish qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Hayotingizdagи «qayroqtosh», «mayda shag'al», «qum»ga misol keltiring.





## Amaliy mashg'ulot

### Daqiqani his qilasizmi?

Vaqtni qanchalik his qila olasiz? Keling, sinab ko'ramiz. O'rningizdan turing va ko'zingizni yuming. Bir daqiqa vaqt o'tdi deb o'ylishingiz bilan o'tiring. Vaqtga qaramang, soniyalarni his qilishga intiling.

Guvohi bo'lganingizdek, vaqtni har kim har xil tushunadi va his qiladi. Ayrimlar 30 soniyani qisqa vaqtida, boshqalar uzoqroq vaqt boshdan o'tkazadilar.

### «86 400 so'm» o'yini

Tasavvur qiling, sizga bir hafta mobaynida har kuni 86400 so'm pul beriladi. Siz bu pullarni sarflashingiz kerak. Sarflanmagan pul o'z-o'zidan kuyib ketadi. Pullarni nimaga va qanday sarf qilasiz?

1. Har kuni tongda bizga 86 400 miqdorida nima beriladi? Biz ulardan qanday foydalanishimiz kerak?
2. Berilgan rasmlarni qanday nomlagan bo'lardingiz?
3. O'z vaqtingizni samarasiz o'tkazganimisiz? Javobingizni 2-rasm bilan bog'lab ko'ring.
4. Qaysi holatda vaqt to'xtab qolgandek tuyuladi? 4-rasmni qanday izohlaysiz?
5. Siz vaqt yetishmovchiligidan shikoyat qilganmisiz? Javobingizni 3-rasm bilan bog'lab ko'ring. Bunday holatlarga qanday tushib qolish mumkin?
6. Inson vaqt ustidan hukmron bo'lishi mumkinmi? Javobingizni 1- va 5-rasm-lar bilan bog'lab tushuntiring.





## Amaliy mashg'ulot

Jamoangiz bilan quyidagi mavzularda taqdimot tayyorlang.  
Javoblarizingizni izohlang.

Agar vaqtlar aro sayohat qilish imkonini bo'lsa, dunyo tarixining qaysi davriga qaytishni xohlar edingiz?

Kelajakka sayohat qilish imkonini bo'lsa, nimani ko'rishni istar edingiz?



## Mulohaza uchun

### Vaqtni to'g'ri taqsimlash sirlari

**Foydali odatlarni rivojlantiring**  
Erta uyg'onning, yaqinlaringizga vaqt ajrating, sog'lom ovqat-laning, pulni to'g'ri sarflashni o'rganing, sayr qiling, yangilikka intiling. Yaxshi odatlar taqdiringizga ijobiy ta'sir qiladi.



**Vazifani to'g'ri belgilang**  
Noto'g'ri maqsad - nishonni xato olish degani. Maqsad to'g'ri belgilansa, behuda vaqt va kuch yo'qotilmaydi.



**Tongni jismoniy mashq bilan qarshi oling**  
Natijada tanadagi zararli moddalar chiqib ketadi, quvvatni yo'naltirish, chidam va bardoshli bo'lish hamda aqliy-ruhiy holat yaxshilanadi.



**Kunni eng muhim vazifalar bilan boshlang**  
Muhim ishlar tanda kuch-g'ayrat bor vaqtda qilinsa, ishtiyoq qiyin ishlarni ham samarali amalga oshirish imkonini beradi.



## Bilasizmi?



Agar har kuni 1 soat vaqtingizni biror sohaga oid bilimlar olishga sarflasangiz, bir yil o'tib siz bu borada jahondagi qolgan 99,999% mutaxassisdan ko'proq bilimga ega bo'lasiz.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Mulohaza uchun

#### *Ijtimoiy tarmoqda qimmatga tushgan xatti-harakatlar*

A. 2012-yil. Gollandiyaning Haren shaharchasida istiqomat qiluvchi 16 yoshli qiz tug'ilgan kunini nishonlash uchun do'stlarini uyiga taklif qildi. U «Facebook» ijtimoiy tarmog'ida taklifnomा tayyorlab, jamoatchilikka tarqatdi. Virtual taklifnomা tarmoqda ommalashib, 100 yoki 1000 kishi emas, naq 30 ming kishiga yetib bordi.

Garchi tug'ilgan kun tadbiriga tayyorlangan taklifnomা bekor qilinsada, tug'ilgan kunni nishonlash uchun Harenga 3 ming nafar kishi jam bo'lgan. Aldanganini sezgan «Facebook» foydalanuvchilari norozilik keltirib chiqardilar. Politsiya aralashuvi bilan tartibsizliklar bartaraf etildi.

1. Tug'ilgan kunini nishonlamoqchi bo'lgan qizning xatosi nimada edi?
2. Nima sababdan bilgan ham, bilmagan ham qizning tug'ilgan kunini nishonlash uchun shaharchaga to'plandi?
3. Politsiya tartibsizlikni bartaraf qilmaganida, voqealar rivoji Haren shahri uchun qanday yakunlanishi mumkin edi?

B. Nodira ta'til davrida restoranda ofitsiant bo'lib ishlaydi. Bir kuni ovqatlanishga kelgan ikki mijoz restoranda kechgacha qolib ketdi. Natijada Nodiraning me'yordan 3 soat ko'proq ishlashiga to'g'ri keldi. Mijozlar chiqib ketish mahali unga 15 ming so'm choychaqa puli berishdi. Bundan g'azablangan Nodira «Facebook» tarmog'ida fikr yozib, restoran nomini qoldirgan holda, o'sha mijozlarni «pastkash» deb atadi. Mijozlarni haqorat qilish – restoran ichki tartibiga zid edi. Shu bois Nodira ishdan bo'shatildi.

4. Nodira qanday yo'l tutishi kerak edi?
5. Restoran ichki tartibini qo'llab-quvvatlaysizmi? Nega?
6. Internet tarmog'ida fikr qoldirishdan avval nimalarni hisobga olish kerak? Xato va noo'rin fikrlar yana qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

D. Soxta nom bilan sahifa ochib olgan Internet foydalanuvchisi o'zganining shaxsiy hayotiga doir video ni qo'lga kiritdi. U video evaziga katta miqdorda pul talab qilib, pulni olmasa, video ni «Telegram» orqali tarqatishini aytdi. Tezkor qidiruv ishlari natijasida tovlamachi fosh qilinib, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

7. Tovlamachi nimadan bexabar bo'lgan?
8. Shaxsiy hayotimizga oid videolarni qanday himoya qilish mumkin?
9. Internet tarmog'ida qanday himoyalanish mumkin?

## Bilasizmi?



### «RAQAMLI QORA TUYNUK» DOMIDAGI KITOBLAR

Dunyo miyosida kutubxonachilar yuz yillar avval chop etilgan kitoblarning asl nusxalarini asrab-avaylab kelishmoqda. Hozirda ularni bir xavotir tashvishga solmoqda – bugun yaratilayotgan elektron kitoblarni 100 yildan keyin topa olmasligimiz mumkin. Kutubxonachilarining fikricha, raqamli axborot hamda raqamli kitoblar hozirdanoq yo'qolib bormoqda.

Texnologiya muntazam rivojlanib, noshirlik sohasi o'zgarmoqda. Yangi asr boshidan kitoblarni elektron shaklda sotish ommalashdi. Oradan vaqt o'tib, kitobxonlar bugun bir muammoga duch kelishmoqda – 10-15 yil avval yozilgan aksariyat dasturlardan foydalanish imkonи bo'lmayapti. Aniqrog'i, raqamli axborotlar «raqamli tuynuk» nomli makonda yo'qolib bormoqda. Misol uchun, Toshkentda bundan 1300 yil avval ko'chirilgan Qur'oni karim nusxasi bo'lsa-yu, Internet tarmog'ida 10 yil avval tayyorlangan elektron kitobning nusxasi topilmasa.

Kitoblar – ma'lumotlarni saqlash uchun juda qulay bo'lgan axborot tashuvchilar. Ularni o'qish uchun ortiqcha vositalarga hojat yo'q. Lekin elektron qurilmalarda saqlanayotgan hujjatlarni 50, 100 yildan keyin ham o'qish mumkinligiga hech kim kafolat berolmaydi.

«Wikipedia» elektron ensiklopediyasida bugun 4,7 milliondan ziyod maqolalar mavjud. Ularni tayyorlash uchun 100 million soat vaqt sarf qilingan. Biroq, tezkor o'zgarayotgan «raqamli makon»da bu resursdagi qimmatli ilmiy-ijodiy ishlarning yo'qolib ketish xavfi yuqori.

Bugun hayotimizga kirib kelayotgan ilg'or elektron qulayliklar bilan birga, asrlar davomida rivojlanib kelgan nashr etish texnologiyasini ham saqlab qolishimiz zarur. Bu orqali tarix, ilm-fan va rivojlanishga oid ulkan ma'naviy meros saqlab qolinadi.

### Savol va topshiriqlar



1. Siz matndagi raqamli kitoblar taqdiri xavf ostida ekani haqidagi fikrga qo'shilasizmi?
2. Matnga ko'ra, zarur raqamli manbalarni qanday asrab qolish mumkin?
3. An'anaviy va elektron kitoblarning kamchilik va yutuqlarini sanang.





## Amaliy faoliyat

### YOMON ODATLAR ISKANJASIDA

«Nima haqida maqola yozsam ekan?» deb uzoq bosh qotirdim. Bu meni har kuni o'ylantiradigan savol. Bir fursat o'ylab, yomon odatlardan voz kechishimga oid tajribalarim xususida yozishga kirishdim.

Besh oy avval men sog'lom hayotga qaytish uchun kun tartibimni qayta ko'rib chiqdim. Birinchi galda, muhim ishlarni oxirgi daqiqalargacha tashlab qo'ymaslikka odatlanishim kerak edi. Ikkinchidan, aytilgan joyga kechikib borish odatimni bas qilishga kirishdim. Har ikkala maqsadning yechimi bitta edi – yarim tungacha smartfonga tikilmaslik. Shu bois ertaroq uqlashga odatlandim. Ammo hozir ham biroz qiyalyapman. Kun tartibim iziga tushsa-da, aksariyat vaqtida o'zimdan qoniqish his qilsam-da, ba'zida ruhan qiynalaman. Yaxshi hayotga ko'nikish shunchalar qiyinmi? Biror illatga odatlanishdan avval undan voz kechish qanchalar mushkul ekanini tushunish zarur ekan.

Illatlardan voz kechishning mushkulligi shundaki, ular miyamizda dasturlangan bo'ladi. Ya'ni, inson miyada ikki ko'rinishda tasvirlanadi – «hozirgi men» va «kelajakdagi men». Agar miyangiz ko'proq «kelajakdagi men»ni ko'rsa, illatlardan xoli bo'lish oson. «Kelajakdagi men» tasviri insonni tanqidiy fikrlashga, hissiy aqlga tayanishga undaydi, ya'ni biz ko'proq idrok qilamiz. Shu zaylda muvaffaqiyatli va munosib hayotga erishish ham osonlashadi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, yaxshi odatni shakllantirish 10 hafta davom etadi. Misol uchun, 70 kun davomida har kuni kitob o'qisangiz, mutolaa o'z-o'zidan sizning kundalik xohishingizga aylanadi. Yaxshi odatlarga bugundan kirishing va ularni egallahdan erinmang.

1. Muallif qaysi kasb egasi bo'lgan deb o'ylaysiz?
2. Nega yomon odatlarga o'rganish juda oson?
3. Yaxshi odatlarni egallah nimaga qiyin?
4. «Hozirgi men»ingiz nimani xohlayapti?
5. «Kelajakdagi men»ni qanday tasavvur qilasiz?

## Ma'naviyat xazinasidan

Ikki narsa borki, ko'pchilik uning qadriga yetmaydi. Biri – sog'lik, ikkinchisi esa – bo'sh vaqt.

*Hadis*



## 8-MAVZU: BAXT - OILADA

### Faollashtiruvchi savollar



1. Oila nega baxt qo'rg'oni deyiladi?
2. Oilaning inson muvaffaqiyatidagi o'rni qanday?
3. Oilaviy an'analarning ahamiyatini bilasizmi?

Tong-sahar tinchlik-xotirjamlikda uyg'onish – ulug' ne'mat. Bobo-buvi, ota-onasi, yaqinlarimiz bilan oila davrasida nonushta qilishning fayzi bo'lakcha. Oila ulug'larining duosini olib ko'chaga chiqishning xosiyati katta. Kechki dasturxon atrofida keksalarning o'gitlarini qunt bilan eshitib, tanaga singdirishning zavqi o'zgacha. Vatanga muhabbat shunday an'analalar orqali singadi.

Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi.

### FARZAND - OILANING YUZI

Har bir farzand oilaning yuzidir. Jumladan, siz ham. Chunki sizning jamiyatda o'zingizni qanday tutishingiz, atrofdagilar bilan muomalangiz orqali oilangizga baho beriladi. Yomon muhit hukmron joyda ezgulik urug'i unishi amrimahol.

Agarda sog'lom bolani tarbiyalashni alloma Ibn Sino uning tug'ilgan vaqtidanoq boshlash kerak degan bo'lsa, Umar Xayyom o'zining fan tarixiga oid asarlarida bolaning tarbiyasini uni ona qornidagi davridanoq boshlash lozimligini ta'kidlaydi.



## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Jamoaviy mashq

*Quyidagi rasmlarning mazmun-mohiyatini ochib bering.*

Otaning oiladagi vazifalarini sanang.

Onaning oiladagi vazifalarini yozib chiqing.



### Vazifa

*Quyida keltirilgan o'zbek xalq maqollarida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping: uyim, bilak, yurt, qo'shning, allasi.*

Onaning ..... dunyoni tebratar.

Ota – aql, ona – idrok.

Ota – ..... , ona – yurak.

O'nqir edi, cho'nqir edi – o'z ..... edi.

Oila tinch – ..... tinch.

Gilam sotsang, ..... ga sot,  
Bir chetida o'zing o'tirasan.

## Amaliy faoliyat



«Meni o'zgartirgan suhbat» mavzusida kichik matn tuzing. Unda bobongiz, otangiz yoki boshqa yaqinlaringiz bilan qurgan va sizda taassurot qoldirgan suhbatni bayon qiling.

### «Bu kim?» o'yini

Ikki o'quvchi doska oldiga chiqib, biri doskaga va ikkinchisi sinfga yuzlanib o'tiradi. O'qituvchi doskaga yuzlangan o'quvchiga oilaning qaysidir a'zosining rolini o'ynab berishni so'raydi. Sinfga yuzlangan o'quvchi pantomima orqali rolga kiradi. Javobni topgan o'quvchiga rol o'ynash imkonini beriladi.

## Ma'naviyat xazinasidan



Oilaning har bir a'zosi bir-biriga xizmat qilishni ham burch, ham savob deb bilsa, o'sha xonadonda baxtiyorlik hukmron bo'ladi.

*Konfutsiy*

## Mulohaza uchun



### ONANING OQILALIGI

Yangi uyga ko'char ekan, Tomas bolaligi o'tgan uyning har qarichini oxirgi marta ko'zdan kechirdi. Xizmatkorlardan o'ziga qadrdon jihozlarni mashinaga avaylab yuklashlarini iltimos qildi. Bolaligida kiyimlari saqlangan shkafning yuqorisidan onasining qizil g'ilofli sevimli jomadoni chiqди. Tomas uni ehtiyyotkorlik bilan stol ustiga qo'yib, ochdi. Onasiga tegishli buyumlar orasidan chiqqan sarg'ish qog'ozni oldi. Maktub ostiga uning muallimasi imzo chekkan ekan. Bu imzo Tomasga onasi bilan bog'liq xotirani eslatib yubordi.



Tomas birinchi sinfda o'qir edi. O'sha kuni u muallimasi bergen xatni onasiga olib kelgan edi. Xatni o'qiyotib onaizorning qarog'laridan yosh dumaladi. So'ng u farzandini bag'rige oldi.

«Muallimam nima deb yozgan ekanlar?» – qiziqib so'radi o'g'il onasidan.

«U senda favqulodda qobiliyat borligini, bu maktab senga to'g'ri kelmasligini, seni iqtidorli bolalar mакtabiga o'tkazishimni so'rabi», – deya jilmayib javob berdi voldasi.

Jomadondan topilgan, vaqt o'tishi bilan biroz unniqqan xatni o'qiganida Tomas hayratga tushdi.

«Xonim, sizga bularni aytayotganimdan taassufdaman. Lekin o'g'lingizda biroz ruhiy xastalik bor. Iltimos, uni ixtisoslashgan maktabga joylashtirsangiz.

*Hurmat bilan muallima».*

Tomasning ko'zları yoshga to'ldi. U onasidan yana bir bor minnatdor bo'ldi.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot




### Savol va topshiriqlar

1. Hikoyadagi onaning donoligini ta'riflab bering.
2. Ona haqiqatni farzandidan yashirib to'g'ri qilganmi?
3. Tomasning hayoti boshqacha ham bo'lishi mumkin edimi?

Tomas Edisonni «kashfiyotlar dahosi» deyishadi. Uning cho'g'lanma chiroq, fonograf (tovushni yozib oladigan va qayta eshittiradigan asbob), telegraf, telefon va kinetograf (harakatlantiradigan tasvirni tasmaga yozadigan apparat) kabi ixtirolari insoniyat hayotini o'zgartirib yuborgan.

Edison bolaligida qizilcha kasalligi bilan og'rib, eshitish qobiliyati zaiflashgan. Bu esa uning maktabdagi tahsiliga ta'sir qilgan. Uni kamsitishgan, mazax qilishgan. Maktabda u bor-yo'g'i 3 oy o'qigan. Qolgan saboqlarni uyda – onasidan olgan. U o'n yoshida uyining yerto'lasida laboratoriya ochib, kimyo, fizika fanlarini amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgangan. U bo'sh vaqtlarida ilmiy-tajribaviy kitoblarni o'qigan.



### Ma'naviyat xazinasidan

Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq.

*Abdurauf Fitrat*



### Mulohaza uchun

#### BOBO-BUVI – NEVARALARING HIMYOYACHILARI

Bobo va buvilarimizning hayotimizdagi o'rni beqiyos. Ular bizga mehrdan tashqari axloqiy va hayotiy saboqlarni berishadi. Ko'pchilik bobo

va buvilarning qimmatli nasihatlari, qiziqarli hikoyalarni eshitgan. Ular bizni yaxshiroq tushunishadi, istaklarimizni ro'yobga chiqarishga harakat qilishadi, duolari bilan qo'llab-quvvatlashadi.



*Yuqoridagi suratlar asosida bobo-buvining hayotimizdagi o'rni haqida hikoya tuzing.*

*Bobo yoki bivingizning hayotingizda tutgan o'rnlari haqida 10 ta misol keltiring.*



## Mustaqil faoliyat



Quyidagi «Oila daraxti» asosida oilangiz tarkibini chizing. Bobongiz yoki bivingizdan ularning otalari va onalarri haqida ham surishtiring. Oila a'zolarining kasblari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.

**Loyiha darsi.** Bobo-bivingiz yoki mahalla-ko'ydagisi keksa insonlar bilan hayot, munosib va uzoq yashash, yaxshilik, oila va baxtiyorlik haqida suhabat quring. Suhbat doirasida intervyu, taqdimot tayyorlang. Taqdimotda keksalardan eshitgan hikmatlar, fikrlarni bayon qiling.

## I bob. Yashashdan maqsad - munosib hayot

# 9-MAVZU: BAXTIYORLIK - UMRNING BOSH MAQSADI



## Faollashtiruvchi savollar

1. Baxtiyorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Baxtli bo'lish uchun ko'p narsa kerakmi?
3. Bizni baxtli qiluvchi odatlarni bilasizmi?



## Mulohaza uchun

### VATAN UCHUN YASHASH - BAXT

*Bizlarni unutmangiz, mакtab-maorifni taraqqiy ettiringiz.  
Mahmudxo'ja Behbudiy*

Mahmudxo'ja ziyoli oilada tug'ildi. Ta'lim-tarbiya olib, o'z davrida yuksak lavozimlarga erishdi. Qalbi pok, aqli teran bu zot olamga qalb ko'zi bilan boqdi. O'sha yillardagi tahlikalari vaziyatda u haqsizlik, adolatsizliklarga ko'z yumolmadi, xalqning dard-u alamini chuqur his etdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy taraqqiyotni ilm-u ma'rifikatda deb bildi, kishilarni ilmga, ziyoga chorladi, jaholatdan qochishga undadi, yoshlarga ilm berish uchun maktablar ochdi, darsliklar yozdi. Necha zamonlardan beri kishilar ongiga singib kelayotgan jaholatni quvish uchun teatr tomoshalari yozib, namoyish ettirdi, gazeta va jurnal chiqarib, elga ilm-u ma'rifikat yoydi. Buyuk ajdodimiz xalqining taqdirlari uchun qayg'urdi, Vatan ravnaqi uchun yo'l izladi.

O'sha davrda Mahmudxo'ja Behbudiy kabi Vatan ozodligini, xalqi farovonligini istagan yuzlab ziyolilar yo'q qilingan, qatag'onga uchragan. Ular taqdirlarini Vatan istiqboli bilan bog'ladilar va xalq manfaatini jonlaridan ustun qo'ydilar.

Oradan yillar o'tib, bobolar orzusi - O'zbekiston mustaqilligi amalga oshgach, ularning nomlari abadiylashtirilib, Vatan yo'lidagi xizmatlari munosib taqdirlanmoqda.



## Savol va topshiriqlar

1. Ajdodlarning xizmatlarini unutmaslik, mакtab-maorifni taraqqiy ettirishning mohiyati nimada?
2. Mahmudxo'ja Behbudiy «taraqqiyot ilm-u ma'rifikatda» deganda nimani nazarda tutgan?
3. Teatr va gazeta-jurnallarning jamiyat hayotidagi o'rnini izohlang. Ularning insonlar tarbiyasidagi o'rni qanday?
4. Inson xalqi, yurti, jamiyat manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yishi uchun qanday xususiyat va jihatlarga ega bo'lishi lozim?

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING HAYOT YO'LII



1875-yili  
Samarqandda  
tug'ilgan



18 yoshidan qozixonada  
mirzalik qilgan,  
qozi, muftiy darajasiga  
ko'tarilgan




1899—1900-yillardagi  
Arabiston, Misr,  
Turkiya bo'y lab safari  
chog'ida yangi  
usuldagagi maktab ochish  
fikri tug'ildi



1900-yili  
Samarqandda  
yangi usuldagagi  
maktab ochdi.



1913-yilda  
kitob nashrini yo'nga  
qo'yib, ilg'or fikrli  
jadidlarning asarlarini  
nashr qildi



1911-yilda ilk o'zbek  
dramasi «Padarkush» ni  
yozgan. Unda ma'naviy  
qashshoqlik insonning  
fojiasi ekanligi bayon  
qilingan



1904-yildan  
yangi maktablar  
uchun darsliklar  
tuzishga kirishdi



1903—1904-yillarda  
Qozon va Ufaga borib,  
yangicha maktablar  
bilan tanishdi,  
ziyolilar bilan aloqani  
yo'nga qo'ydi



1914-yilda «Samarqand» gazetası,  
«Oyna» jurnalini tashkil qildi.  
«Oyna»da xalq va uning  
haq-huquqiga, tarixiga,  
til va adabiyot masalalariga  
doir qiziqarli maqolalar,  
bahslar berib bordi



300 ga yaqin  
maqolalarida ilm olish,  
xususan, ko'p tillarni  
o'rganish,  
tenghuquqlilik  
g'oyalarini ilgari surdi



1919-yilda  
Qarshida  
dushmanlari  
tomonidan qatl  
qilinadi

2020-yilda  
1-oktabr –  
O'qituvchi va murabbiylar  
kuni munosabati bilan,  
«Buyuk xizmatlari uchun»  
ordeni bilan taqdirlandi

## Amaliy faoliyat



*Sizdan baxtning rasmini chizishni so'rashsa, nimani rasmini chizgan  
bo'lardingiz?*

### Quyidagi ro'yxatni davom ettiring:

Baxtli inson ...

- oilasi va yaqinlari, o'zi yaxshi ko'rgan insonlarga vaqt ajratadi;
- har kuni o'qiydi, biror yangi narsa o'rganadi;
- muammolar emas, yechimlar haqida o'ylaydi;
- sog'lom ovqatlanadi.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot



### Mulohaza uchun

#### BAXTLI BO'LAY DESANGIZ

Zohidjon qiyin vaziyatga tushib qolgan odamlarga yordam berganida o'zini dunyodagi eng baxtiyor inson sifatida his qiladi. U yaxshilik qilishni, avvalo, oilasidan boshlaydi: ota-onasiga xizmat qilib, bobo-buvisining duosini oladi.

Inson o'zini dunyodagi eng baxtiyor deb his qilishi uchun siz nimani tavsiya qilgan bo'lardingiz?

Anora qiyin vaziyatlarda ko'nglidan o'tayotgan hislarni kundaligiga yozib, taskin oladi. Bu unga og'ir vaziyatdan chiqib ketishiga ruhiy ko'mak beradi.

«Og'ir vaziyatlar» deganda nimani tushunasiz?

Siz yana nimani tavsiya qillardingiz?



Umidjonning fikricha, baxt tuyg'usi «yuqumli» va insondan insonga yuqadi. Shu bois u doim yaxshi insonlar davrasida bo'lismi xush ko'radi.

Sherzod, odatda, muvaffaqiyatli odamlar haqidagi kitoblarni o'qib, filmlarni tomosha qilganida o'zini baxtiyor his qiladi. Mashaqqat bilan baxtga erishgan qahramonlar uning o'ziga ishonchini oshiradi.



Baxt tuyg'usi «yuqumli»mi? Agar shunday bo'lsa, u insondan insonga qanday yuqadi?

Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishsa baxtli bo'ladimi? Baxtli bo'lismi xush nima qilish kerak?



### Bilasizmi?

#### INSONNI NIMA BAXTSIZ QILADI?

Harvard universiteti 1938-yildan boshlab baxtiyorlik sabablarini o'rjanib keladi. Bugungacha uning doirasida 700 kishining hayoti o'rjanilgan. Ma'lum bo'lismicha, inson baxtiyorligiga ikki omil katta salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

**1. Tamaki chekish.** Bu illat insonda ko'plab kasalliklarni qo'zg'atadi.

**2. Spirtli ichimliklar iste'moli.** Bu illat tushkunlikka bo'lgan moyillikni oshiradi va xastaliklarni keltirib chiqaradi.

O'rta yoshda insonni baxtsiz qiladigan omillar, asosan, oiladagi notinchliklar bilan bog'liq. Mustahkam rishtalar o'rnatilgan oilaning a'zolari davriy kasallik, ruhiy va xotira pasayishi kabi xastaliklardan himoyalangan bo'ladilar.



Baxtsiz bo'lmashlik uchun nimalar qilmashlik kerak?

## Ma'naviyat xazinasidan

Baxtni sa'y-harakatda, baxtsizlikni esa loqaydlik va dangassalikda, baloni tilda, halovatni sukutda ko'rdim.

Najmiddin Kubro

Birgina qandil orqali minglab qandillarga charog'onlik ulashish mumkin. Bu bilan o'sha qandilning umri qisqarib qolmaydi.

Budda

## Mulohaza uchun



### MILLIARDERNING SO'NGGI MAKTUBI

Men bugun bir haqiqatni angladim – behisob mol-davlatga ega inson o'zini o'qqa-cho'qqa urmasdan, hayotini boylikdan yuqorida turgan maqsadlarga sarf qilmog'i lozim ekan. Baxt uchun fayzli xonodon, hayot zavqi va ozgina mablag'ning borligi kifoya.

Yoshlik chog'lарida hadeb boylik ortidan beto'xtov quvish kun kelib insonning qaddini xuddi meniki kabi bukchaytirib qо'yadi.

Yaratgan ko'nglimizga hislar, tuyg'ularni mehr-muhabbatning jozibasini his qilishimiz uchun soladi. Hayotning so'nggi daqiqalarida boylik ilinjidagi puch maqsadlar ahamiyatini yo'qotadi.

Men umr bo'yi to'plagan davlatimni o'zim bilan olib ketolmayman. O'zim bilan olib ketishim mumkin bo'lgan yagona narsa, bu – muhabbat menga hadya qilgan go'zal xotiralardir. Baxt, bu – senga ergashishi, hamroh va do'st bo'lishi, senga chinakam kuch-qudrat berishi hamda yo'llaringni yoritishi mumkin bo'lgan xotiralar ekan.

Moddiy boyliklarni topsa bo'ladi, yaratса yoki tiklasa bo'ladi. Ammo bu dunyoda yo'qolsa topilmaydigan moddiylik ham bor. Bu – inson va uning hayoti. Insonlarni qadrlang.

Oolangizga muhabbat in'om qiling, yaqinlariningizni asrang, do'stlaringizga sadoqatli bo'ling.

O'z sog'ligingizga e'tiborli bo'ling va o'zingizni asrang. Boshqalarni mehr-muhabbat bilan himoya qiling.

1. Maktubda milliarder yashagan umridan rozimi? Javobingizni matndagi fikrlar bilan izohlang.
2. Milliarderning fikricha, hayotning mazmuni nima?
3. Maktubni o'qib qanday xulosaga keldingiz?

## Mustaqil faoliyat



«Mening baxtiyor kunim» mavzusida bayon yozing va nutq tayyorlab keling.

## I bob. Yashashdan maqsad – munosib hayot

### KATTA O'ZGARISHLAR QILUVCHI KICHIK ODATLAR

Shunday odatlar borki, inson ruhiyati va quvvatini boyitib, olg'a borishga xizmat qiladi.

Eng  
muhim  
shart

O'zingizni olg'a borishga majburlang.  
Kichik g'alaba ham sizni ilhomlanadiradi  
va hayotingizni yaxshi tomonga o'zgartiradi.  
Buning uchun esa qulay hududdan chiqing.  
Kichik qadam tashlang va qulay hududdan  
voz keching.

Kichik odatlar katta sa'y-harakatni  
talab qilmaydi.

Xohish kuchi – iqtidor kuchidan ustun.  
Bir maqolni unutmang:  
«Muntazam yurgan – uzoq yuradi».  
Kuchli xohish doimo rag'bat bilan  
quvvatlanishi shart.

Eng  
muhim  
omil

Eng  
muhim  
qoida

Son emas, barqarorlik muhim.  
Kichik odatlarga doimiy amal qilib va  
takrorlab odatlanish mumkin.  
Kichik natijalardan ham xursand bo'ling,  
ularni katta g'alaba deb biling.

## II B O B ILM-MA'RIFAT. INNOVATSIYA

- O'zbekiston - ma'rifatparvar allomalar zamini
- Ta'lim - sinovlarda ishonchli panoh
- Bilimga asoslangan jamiyatda yaxshi ta'lim olganlar muvaffaqiyat qozonadilar
- Muvaffaqiyatli ish - to'g'ri qarorlar natijasi
- Innovatsion fikrlash texnikasi - ilg'or g'oyalar manbai
- Innovatsiya - yangilikka intilish, tanqidiy fikrlash - uning asosidir
- Odamlarni boshqarish - salohiyatlarini namoyon etish uchun ularga zarur sharoit yaratib berishdir
- Ijodkorlik - tadbirkorlik va taraqqiyot g'ildiragi



## 10-MAVZU: BUYUKLARNI AZIZ QILGAN – BILIM

### Mulohaza uchun

#### MUTAFAKKIRLARNING UMRBOQIYLIK SIRI

«Hayot, bu – yashash degani. Yashayotgan kishi o'zgarishlarga tayyor turishi lozim», – deydi faylasuf Gyote. O'zgarishga tayyor insonni zafarlar kutadi. O'zgarishni xohlamagan odam zaiflikka duchor bo'ladi. Nomlari ming yillardan beri barhayot olim-u allomalar doimo ilm-fanda yangi marralar sari harakat qilishgan. Ularning yutuqlari insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilgan. Bilim – o'zgarishlar asosi, muvaffaqiyatning ibtidosidir. «Ta'lim – muvaffaqiyat va omadning bezagi, nochorlikdagi ishonchli panohdir», deydi Arastu. «Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq ilmdan tashqarida bo'lma», degan ajdodimiz Mahmud Zamaxshariy. Allomalar kitoblar orqali hayotning, dunyoning sir-asrorlaridan voqif bo'lganlar. Bilim ularga umrboqiy qudrat bergen.



### Savol va topshiriqlar

1. Matndagi «... o'zgarishlarga tayyor turish» deganda nimani tushundingiz?
2. Arastuning matnda keltirilgan fikriga izoh bering.
3. Mahmud Zamaxshariy «... ilmdan tashqarida bo'lma» deganda nimani nazarda tutgan?
4. Bugun bilimli inson qanday muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin?

\* \* \*

Markaziy Osiyo farzandlari islom ilmi va falsafasida ulkan iz qoldirganligi va uning rivojiga katta hissa qo'shganligiga ikkilanmay da'vo qilishga haqli.

Bugun zamonaviy kompyuter texnologiyalarining poydevori hisoblangan «algoritm» tushunchasi ham aynan shu yurt olimi Xorazmiy tomonidan ilgari surilgan va keyinchalik uning bu bebafo ilmiy kashfiyoti o'z nomiga qo'yilgan. «Tib qonunlari» kitobi bilan Hindiston, O'rta Sharq va Yevropada tabobat ilmi rivojlanishida yuksak hissasini qo'shgan, G'arbda «Avitsenna» nomi bilan dong'i ketgan alloma ham aynan O'zbekiston zaminining farzandi hisoblanadi. Arastu asarlariga sharh yozgan, musiqa fani to'g'risida ulkan ilmiy asarlar bitgan va ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shgan yana bir buyuk olim Abu Nasr Forobiy ham Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan.

Frederik Starr,

«Yo'qotilgan ma'rifat» kitobi muallifi, jamoat arbobi.

Qaysi omillar Markaziy Osiyoni ilm-ma'rifat markaziga aylantirgan?

Jahon ilm-fanini rivojlanirgan ajdodlarimiz va ularning ilmiy merosini sanang.

## Bilasizmi?



### AL-XORAZMIY - JAHON ILM-FANIDA BURILISH YASAGAN OLIM

«...u faqatgina o'z davrining buyuk matematigi emas,  
balki butun insoniyat tarixidagi buyuk matematikdir»  
*Jorj Sarton, tarixchi olim*

Xorazmiyni algebra fanining asoschisi sifatida hurmat bilan tilga olishadi. «Algebra» so'zining o'zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» nomli risolasidan olingan. Uning «Arifmetika» nomli risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda foydalaniladigan o'nlik tizimi va undagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «Xorazmiy» nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy muhirlanib qoldi.

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola «Diksit Algorizmi», ya'ni «Xorazmiy shunday deydi» iborasi bilan boshlanadi.

*Har gal qo'lingga mobil telefoningni olganda, unutma! Har bir qo'l telefoni ichida o'zbek bor. Bu allomaning ismi esa – Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Barchamiz xayolan undan minnatdor bo'lishimiz shart.*

*Endryu Marr, ingliz jurnalisti*

## Savol va topshiriqlar



1. Endryu Marr «Har bir qo'l telefoni ichida o'zbek bor» deganda nimani nazarda tutmoqda?
2. Jurnalist nega Muso al-Xorazmiydan barchamiz minnatdor bo'lishimiz zarurligini ta'kidlamoqda?

## Bilasizmi?



### ALGORITM NIMA?

**Algoritm** – muammoni hal qilish yoki vazifani bajarish bo'yicha ko'rsatmalar to'plamidir. Hayotga boqsangiz, yon-atrof algoritmlarga to'la ekanligiga amin bo'lasiz – kompyuterlar ular yordamida ishlaydi, siz har kuni ularga murojaat qilasiz, do'stlaringiz ularidan foydalanadilar. Siz hozirgacha minglab yoki yuz minglab algoritmlardan foydalangansiz.

Algoritmning eng yaqqol namunalaridan biri – retseptdir. Uning yordamida biror nima tayyorlash, qaysidir ishni amalga oshirish mumkin. Misol uchun, biror nima xarid qilsangiz, uning qadog'ida foydalanish yo'riqnomasi ham bor. U yerda nima qilish kerakligi tartib bilan tushuntirilgan.

Algoritm – maqsadga yetish yoki masalani hal qilishda maqbul amallar ketma-ketligidir.

## II bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

### Maqsadni amalga oshirish algoritmi



Maqsadni  
aniqlash



Amalga oshirish  
muddatini belgilash



O'z ustida  
ishlash



Ilk qadamni  
tashlash



Qat'iyat bilan  
harakatlanish



### Jamoaviy mashg'ulot

*Quyidagi savollar asosida biror yaxshi amallarni bajarish uchun zarur ko'nikmalarni ishlab chiqing:*

1. Inson qanday qilib o'ziga yaxshilik qiladi?
2. Inson qanday qilib ota-onasiga yaxshilik qiladi?
3. Inson qanday qilib qo'shnilariga yaxshilik qiladi?
4. Inson qanday qilib Vataniga yaxshilik qiladi?
5. Inson qanday qilib oilasiga yaxshilik qiladi?



### Bilasizmi?

#### INSONIYAT HAYOTINI O'ZGARTIRGAN – ALGORITM

Elektron qurilmalar ham dasturchilar tomonidan yozilgan algoritmlar asosida ishlaydi. Dasturchilar biror vazifani bajarishi uchun ularga algoritm yozadilar. Qurilmalar ana shu yerdagi buyruq asosida amallarni ketma-ket bajarib, ishlaydilar. Bu «kodlash» deyiladi. Iqtidorli dasturchi qurilmalarga kod yozganda ilg'or yondashuvdan foydalangani uchun ham ayrim qurilmalar qulay ishlaydi va bozorda ularga talab ham yuqori bo'ladi.

Algoritmsiz jahon ilm-fani va insonlar hayoti bu qadar rivojlanmas edi. Boisi, bugungi taraqqiyotning bosh g'ildiragi – Internetning ishlashi ham algoritmga asoslanadi. Ma'lumotni uzatish algoritmi sabab milliardlab Internet foydalanuvchilari o'zaro axborot almashadilar.

«Google» qidiruv tizimi, bu – millionlab odamlarning Internetda ma'lumot topishlariga yordam beradigan qulay algoritmlar jamlanmasidir.



### Jamoaviy mashg'ulot

#### «Munosib umr» algoritmi

Jamoangiz bilan insonning tug'ilishidan boshlab qanday qilib munosib yashashi mumkinligini o'ylang. Hayotning mazmunini hal qiluvchi ketma-ketliklarni infografika shaklida aks ettiring.

## Amaliy faoliyat



1. Sizni o'ylantirayotgan muammo yoki masalani aniqlang. Uni ijobiy hal qilish algoritmini tuzing.
2. Muammoni rasmda tasvirlang. So'ng uni so'zda ifodalang.
3. Muammo qarshisida o'zingizni qanday his qilyapsiz? Holatingizni so'zda ifodalang.
4. Sizga bu muammoni hal qilish nimaga kerak? Fikringizni bayon qiling.
5. Muammo hal bo'lsa, qanday holatga tushasiz?
6. Muammoga yechim topishning bir nechta yo'llarini o'ylang. O'zingizni bu ishlarni qilayotgandek tasavvur qiling. Qaysi bir yechim ma'qul bo'lsa, shuning tasvirini chizing.
7. Yechim sifatida nega aynan shu yo'lni tanlaganiningizni so'zda bayon qiling.

## Mulohaza uchun




### ILMGA UMRINI BAG'ISHLAGAN ZOT

Islom ilmlari bilimdoni sifatida tanilgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952-yilning 15-aprelida Andijon viloyatida tavallud topgan. Maktabni a'lo baholariga tamomlagan. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Buxorodagi «Mir Arab» madrasasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islam instituti, shuningdek, Sharq mamlakatlari-dagi yirik islam universitetlarida tahsil olgan. U doimo kitob mutoalaa qilgan. Butun umrini yangi manbalarni izlash, ularni o'rganish va asarlar yozish bilan o'tkazgan. Olim Islom dini asoslari, tafsir, hadis, aqida, fiqh, tasavvuf va qator ilmlarga oid ko'plab asarlar yozgan. Olimning ilmiy merosida olti jiddlik «Tafsiri Hilol» asari alohida o'rinn egallaydi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O'zbekistonning birinchi muftiysi bo'lgan, o'z asarlari bilan yurtimiz va xorijiy davlatlarda yirik islamshunos olim sifatida tanilgan.



Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2015-yilning 10-mart kuni Toshkent shahrida vafot etgan. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Toshkent shahrida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomidagi muhtasham majmua bunyod etildi.

*Qaysi xususiyatlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga yetuk olim bo'lishiga xizmat qildi?*



## Mustaqil faoliyat

Matnni o'qing va sifatlarni, fazilatlarni sanang, muhimligiga ko'ra tartiblang. Ularning inson hayotida tutgan o'rni haqida mulohaza qiling.

### KITOBGA OSHNOLIKNING MUKOFOTI



Muhammad Sodiq yoshligidan juda ko'p kitob o'qib, vaqtдан unumli foydalangan. U bo'sh qoldi deguncha qo'liga kitob olar, kechasi uqlab qolguncha mutolaa qildi.

Bo'lajak olim talabalik yillarda ham qat'iy kun tartibi va kundalik vazifalarni tayinlab olgan bo'lib, bu nizom «temir qonun» sanalardi. Ular orasida mustaqil mutolaa uchun alohida vaqt ajratilgan. Unga ko'ra har kuni darsdan tashqari turli mavzudagi kitoblardan 100 sahifa o'qish vazifa qilib olingan. Universitetda kutubxona mudiri bo'lib ishlagan Tohir Nous shunday degan edi: «Muhammad Sodiqqa kitob tashib charchaganman».

Olim umri mobaynida qilgan yuzlab safarlardan son-sanoqsiz kitoblar bilan qaytgan. Ularni o'zbek tiliga o'girib, o'rganganlarini ma'rifat tarqatishga, xalqning ma'naviyatini oshirishga sarf qildi. Kitobga mehr Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufni zamonamizning allomalaridan biriga aylantirdi. Uning hayotiga va erishgan yutuqlariga diqqat qilsak, xalqimizning quyida aytgan hikmati yodga tushadi:

Ilmsiz bir yashar,


Ilmlı ming yashar.



## Ma'naviyat xazinasidan

Tarbiyali va odobli inson har qanday holatda ham gunoh va beodoblikni o'ziga ep ko'rmaydi. Ilymon va axloqi qayerda, qachon va qanday holatda bo'lsa ham, uni faqat yaxshilikka chorlaydi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf



## 11-12-MAVZU: TAFAKKUR – KELAJAKKA YETAKLOVCHI VOSITA

### Faollashtiruvchi savollar

1. Bilim kuchlimi yoki tasavvur?
2. Bolaligingizda kimdir kitob o'qib, ertak aytib berganida siz voqealarga ishonarmidingiz?
3. Bugun ham xayol-tasavvurlarning haqiqatga aylanishiga ishonasizmi?

#### TAFAKKUR – INNOVATSIYALAR KALITI

Tafakkur qilish qobiliyati bizning hayotimizga ta'sir qiladi. Bu biz qilayotgan, o'ylaydigan va yaratadigan hamma narsani o'zgartiradi. Tafakkur qilish ilmiy sohalardan tortib muhandislik va san'atgacha – har qanday kasbdagi puxta rejalar, orzular va ixtirolarning ilgari surilishiga poydevor.

O'ylab ko'ring, avval hech xayolga keltirmagan yaxshi ishlarni xayolan bajarib ko'ring. Bunda sizga tafakkur yordamga keladi. Tasavvur qiling-a, siz har kungi faoliyattingizni idrok va mushohada orqali rejalshtirsangiz, hayotingiz naqadar mazmunli, boshqalar uchun ham foydali bo'lar edi.

Inson tafakkur qilgani sayin miyadagi «tasavvur mushaklari» shunchalik kuchli bo'ladi. Bu qobiliyat cheksiz imkoniyatlarning boy manbasiga yo'l ochadi.

Bugun ma'lumot hajmi oshib, uni saralash, foydalisini tanlash ko'nikmasi ham bevosita idrok bilan bog'liq. Tafakkur har bir kishi uchun, ayniqsa, yetakchilar uchun juda muhimdir. Odamlar hayotini yaxshilashga, muammolarni bartaraf etishga kirishgan inson tafakkuriga suyanadi. Yangiliklar yaratish, hayotni qulaylashtirish uchun esa tasavvur yordamga keladi.

Deyarli barcha muvaffaqiyatli odamlarga xos ko'nikma – teran idrok qilish, xayolotdan unumli foydalana olishdir.

### Amaliy mashg'ulot



#### Kelajakni ko'rghan Navoiy

Buyuk shoir Alisher Navoiy astronom, me'mor, rassom sifatida ham nom qozongan. Uning yozganlari shunchaki badiiy namunalar emas, kelajak hayotga ishora ilg'or fikrlar bo'lgan. Yaqin tarixda qilingan muhim ilmiy kashfiyotlar uning asarlarida faraz sifatida kelgan.

«Farhod va Shirin» dostonida shunday satrlar bor:

G'aroyib ko'p huvaydo bo'lg'usidir,  
Bas, anda shakl paydo bo'lg'usidir...

Ko'runic har zamone – ko'zga bir shakl,  
Ko'z olg'och bo'lg'usidir ... o'zga bir shakl!..






## Amaliy faoliyat



Navoiy shunday qurilma haqida yozganki, unda shakl paydo bo'lib, almashib turadi. Farhod uzoq Arman o'lkasidagi malika – Shirinni shunda ko'radi.

O'ylang, bu yerda XX asrda yaratilgan qaysi qurilma haqida so'z ketmoqda?




Xuddi shu dostonda bugun tobora rivojlanib borayotgan yana bir qurilma tasvirlanadi.

Bo'lur darvoza ichra oshkoro,  
Temur jismiki qilmish paykar oro.  
Erur odamg'a monand-u mushobih,  
Eshigida temurdin yo qilib zih.

«Sab'ai sayyor» dostonida bugun insonlarning og'irini yengil qilgan boshqa bir qurilma haqida farazlar keladi.

O'ylang, oradan 400 yil o'tib kashf qilingan bu qurilma bugun qanday nomlanadi?



Poyalar maqdamida bo'lg'ay past,  
Aylagay bir-biri yuziga nishast.  
Chun sekiz poya qat' bo'ldi tamom,  
Aylagach shoh o'z yerida maqom.  
Yana ul poyalar baland o'lg'ay,  
Taxtidin shoh bahramand o'lg'ay.  
Kim, qayon shah bo'lur nishotangez,  
Oz ishorat bila yugurgay tez.

Bu – 1892-yilda amerikalik kashfiyotchi Jesse Reno tomonidan yasalgan va bugun yirik binolarda mavjud qurilmaning ilk chizgilari edi. Bu qaysi qurilma?

«Saddi Iskandariy» dostonida Iskandar suv tubiga tushish uchun shishadan yasatgan maxsus idishga o'xshash suvosti qurilmasi 1948-yilda shveysaryalik olim Ogyust Pikkar tomonidan yaratilgan.

## Savol va topshiriqlar

1. Navoiydagagi qaysi jihat unga bir necha asrdan so'ng yaratilajak ixtiro-larni ko'ra olishiga yordam berdi?
2. Adabiyot va taraqqiyot o'rtaida qanday bog'liqlik bor?
3. Kitob o'qishning qanday foydali jihatni bor?

## Mulohaza uchun

### EYNSHTEYNDEK FIKRLASHNI O'RGANAMIZ

«Aqlning chinakam belgisi bilim emas, tasavvurdir» degan edi taniqli olim Albert Eynshteyn. Olim ko'pchilik uchun ijodkor daholarning yorqin timsoli bo'lgan. U nisbiylik nazariyasi orqali fizika fanini manguga o'zgartirib yubordi. Eynshteynda boshqacha – o'ziga xos ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmasi bo'lganini ko'pchilik bilmaydi.

### EHTIMOLIY O'YLASH


Eynshteynning idrok qilishdagi bosh yondashuvi tasavvurni ishga solish va voqelikdan qochish bo'lgan.

U hamma narsani tasavvur qiladi. Tasavvur qilib o'rganadi va muammoga ham tasavvur orqali yechim topadi. Shu orqali u bilimlari chegarasini kesib o'tishga muvaffaq bo'ladi. O'zimiz bilgan va ishongan g'oyalardan qochish qanchalik g'alati bo'lmasin, boshqa ehtimoliy yechimlarni topishga ko'maklashadi.

Buning uchun olimning o'ziga xos texnikasi bo'lgan. U buni «tafakkur tajribasi» deb atagan. Bu tajriba uning miyasida sodir bo'lgan. Olimning aytishicha, nisbiylik nazariyasi aynan shu tajriba mahsuli. Tadqiqotchi yorug'likka va uning tezligiga, vaqt bilan bog'liqligiga qiziqar edi. U bu to'g'rida o'ylayotganida o'zini quyosh nuri ustida ketayotgan chavandozdek his qilgan.

Bu ko'pchilik uchun g'ayrioddiy va telbanamo bo'lishi mumkin, ammo kashfiyotchi tasavvuriga shu yo'sinda erkinlik berib, yorug'lik hamda vaqt o'rtasidagi aloqadorlikni topgan.

Vaqtni his qilishimiz qayerdamiz va nima qilayotganimizga daxldor. Eynshteyn buni shunday ta'riflaydi: «Yaqin do'stimiz bilan bir soatlik suhbat bir daqiqa tuyulsa, cho'g'ni tutganimizda bir daqiqa bir soatdek tuyuladi».



## II bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

### IJODIY FIKRLASH UCHUN VAQT

Ehtimoliy o'ylash o'zini oqlashi uchun biz uni boshdan o'tkazib ko'rishimiz kerak. Ko'pchilik o'ylaganidek, o'ylash – yo'l-yo'lakay yoki bo'sh bo'lgan vaqtida sodir bo'ladigan hodisa emas. Eynshteynning fikricha, inson har kun, muayan paytda idrok qilish bilan band bo'lishi lozim. Bu jarayon «ijodiy tafakkur» deb nomlanadi. Agar sizni biror muammo yoki masala o'ylantirsa, vaqt ajratib, u to'g'risida tafakkur qiling. Olim ko'z oldida muammo suratini hosil qilib, fikrlashni yaxshi ko'rgan. Uning aytishicha, bu – idrok qilishning samarali yo'lidir.



Shuningdek, kashfiyotchi har qanday muammo yoki masala uzoq o'yansa va tashlab qo'yilmasa, oxir-oqibat yechimini topishiga ishongan. «Men oylab, yillab o'ylab yurar edim. Xulosalar 99 foiz asossiz bo'lib chiqar, oxir-oqibat yuzinchi marta yechimni topar edim», – deydi olim.



### Vazifa



*Quyidagi iboralarni o'z o'rniغا qo'ying:*

- quyosh nuri ustidagi chavandoz;
- javobni topgunga qadar;
- ko'plab ilmiy yangiliklarni;
- idrok qilishning kuchli usuli;
- odatdagidan boshqacha o'ylash;
- muntazam shug'ullangan taqdirda;
- mustaqil va ehtimoliy o'ylash;
- nisbiylik nazariyasi.

1. Eynshteyn ... ... haqida birinchi bo'lib o'ylagan olim edi.
2. Olimda ... ... qobiliyati borligini ko'pchilik bilmagan.
3. Ehtimoliy o'ylash ... ... degani.
4. Uning tasavvurida o'zini ... ... kabi tasavvur qilgan.
5. Bu tasavvur unga ... ... kashf qilishiga yordam bergan.
6. Ehtimoliy o'ylash ... ... o'zini oqlaydi.
7. Kashfiyotching fikricha, ko'z oldida suratni hosil qilib o'ylash – ... ... bo'lgan.
8. U ... ... o'ylashda davom etishni muhim hisoblagan.

## Jamoaviy mashq



### «EHTIMOLIY O'YLASH» O'YINI

Jamoangiz bilan o'ziga xos maqsad yoki vazifalar ro'yxatini tuzing. Ularga Eynshteynning «tafakkur tajribasi» asosida ehtimoliy javoblar toping.

## Mulohaza uchun



### MIYA ALDANADIMI?

1939-yil. Bir kuni Kaliforniya universiteti talabasi Jorj Bernard Dansig statistika darsiga kech qoladi. U o'quv xonasiga yetib kelganida dars allaqachon tugagan va doskada 2 ta masala chala yozib qoldirilgan edi. Jorj Bernard ularni uyga vazifa deb xayol qilib shosha-pisha ko'chirib oldi.


Keyingi bir hafta u besaranjom bo'ldi: masalalarni yechish uchun kutubxonaga qatnadi, tunlari ishladi. U masalalarning odadagidan biroz mushkulroq ekanini payqadi, ammo qunt bilan ularni yechishga kirishdi.

Biroq kelasi darsda o'qituvchi bu masalalar haqida og'iz ochmadi. U har ehtimolga qarshi ishlanmalarini professorga qoldirib ketdi.

Keyingi kun, erta tongda Jorj Bernardning yotoqxona eshigi taqilladi.

«Sen ishlagan masalalarga taqriz yozdim. Iltimos, buni o'qib, maqola tayyorla va chop etish uchun biror nashrga yubor», - dedi ostonada hansirab turgan professor Neyman. Jorj nima gapligini tushunmay ustozining qo'lidagi qog'ozga ko'z tashladi.

«Yechilmagan ikki statistik masalaning javobi topildi» deb yozilgan edi unda. Shu taxlit Jorj Bernard Dansig o'zi bexabar holda ikki yechimsiz masalaga javob topgan edi.



## Mustaqil faoliyat



*Matnni o'qing va savollarga javob bering.*

1. Jorj Bernard Dansigning yechimi topilmagan ikki masalani yechishiga qaysi omil sabab bo'ldi?
2. Miyani aldash mumkinmi?
3. Agar Jorj Bernard Dansig bu ikki masalani yechimi yo'qligini bilganida, ularga javob topa olarmidi?
4. Mehnat, intilish bilan birga qaysi xususiyatlar insonga boshqalar imkonsiz deb bilgan ishlarni amalga oshirishiga yordam beradi?

## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

# 13-MAVZU: BILIMGA ASOSLANGAN JAMIYATDA MUVAFFAQIYAT QOZONISH



## Faollashtiruvchi savollar

- «Bilimli inson xor bo'lmaydi» degan naql bor. Buning sababi nimada?
- Qanday omillar jamiyatda bilimning bahosini oshirmoqda?
- Qaysi sohalarda bilimning ahamiyati tezkor ko'tarilib bormoqda?
- Jamiyatda bilimli insonlar ko'payishi va qadr topishi uchun qanday omillar zarur?



## Mulohaza uchun

### BILIMGA ASOSLANGAN JAMIYATDA BILIMLI FUQARO QADR TOPADI

Jahondagi eng boy kompaniyalarga nazar tashlang. Yetakchi o'nlikda turgan kompaniyalar, asosan, inson aqli evaziga rivojlanmoqda va boyimoqda. Ular bilan birga davlatlar ham taraqqiy etmoqda. O'tgan asrlarda esa eng boy kompaniyalar neft, gaz, ishlab chiqarish kabi yirik sanoatlardan foyda ko'rgan.

Bugun esa hammasi o'zgarib, xomashyo sarf qilmasdan turib ham boyish va rivojlanish imkoniyatlari mavjud.

«Bilimga asoslangan jamiyat» deganda zamonaviy dunyoning o'zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida raqobatlasha olish va muvaffaqiyatga erishish tushuniladi. Bu tushuncha yetarli bilimga ega bo'lgan fuqarolarining salohiyatiga tayanadigan jamiyatni ifodalaydi. Bunday jamiyatda bilimli fuqaro innovatsiyalarni, tadbirkorlikni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Bugungi taraqqiyot zamonida biror ishda muvaffaqiyat qozonish uchun o'tgan asrdagi kabi bilimli bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bugun har qaysi yo'nalishda muvaffaqiyat qozonish uchun quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishimiz zarur.



## Amaliy faoliyat

*Muvaffaqiyat qozonish uchun ko'nikmalar.*

### MUAMMOGA KENG QAMROVLI YECHIM TOPISH

Shifokorga kelgan bemor o'zidagi ortiqcha vazndan shikoyat qiladi...

1-shifokor: «Mana sizga parhez. Unga amal qiling», - deydi bemorga.

2-shifokor: Bemorning kundalik turmush tarzi bilan tanishib, muammoni yaqindan o'rganib, ortiqcha vaznning kelib chiqish sabablarini aniqladi. Muammoni bartaraf etish bo'yicha kompleks tavsiya berdi.

Siz qaysi shifokorning qarorini ma'qullaysiz? Nima uchun?



## TANQIDIY FIKRLASH

Tasavvur qiling, bir guruh odamlar Mars sayyorasiga borishning imkonsizligini aytib, sayyoralar aro sayohatga shubha bilan qarashmoqda. Shunda bir ilmli odam keladi-da, ularning shubhasiga shubha bilan qaraydi va urinib ko'rib, bu ishni uddalaydi.

*Hamma shubhalangan ishni uddalash uchun insonga qanday xususiyatlar zarur?*

## KENG QAMROVDA IJODIY FIKRLASH

Kreativlik – ijodkorlik, ijodiy yondashuv ko'nikmasidir. Jahondagi barcha muvaffaqiyatli insonlar, biznesmenlardan tortib rassomlargacha mazkur ko'nikma sabab ko'zga ko'ringanlar. Kreativlik – bu hali noaniq narsani noan'anaviy, o'ziga xos tarzda tasavvur qilishni anglatadi.

Misol uchun, rassom va haykaltarosh Mikelanjelodan o'z asarlarini qanday qilib bu qadar shukuhli va mukammal yaratishini so'rashganida, u shunday javob bergen: «Men har gal ijod jarayoniga kirishar ekanman, ulkan marmar ichida qamalib qolgan qahramonlarni ko'raman va ularni ozod qilishni istayman».

Ijodiy fikrlash g'oyalarni rivojlantiradi, g'oyalar esa o'zgarishlarni ilhomlantiradi.

*Qaysi ishlar sizga ijodiy kayfiyat bag'ishlab, kreativ fikrlashga undaydi?*

## ODAMLARNI BOSHQARISH KO'NIKMASI

Fizik olim Pyotr Kapitsaning ajoyib fikri bor:

«Boshqarish – bu yaxshi xodimlarga ishlashlariga xalaqit qilmaslikdir». Bu ko'nikmaning bahosi oltinga tengdir. Odamlarni boshqarish – ularga bor salohiyatlarini namoyon etishlariga xizmat qiladigan shart-sharoit yaratib berishni anglatadi. Odamlarni boshqarishda o'zingiz namuna bo'ling.

*Odamlarni boshqarish nega qiyin deb o'ylaysiz?*

## ODAMLAR BILAN O'ZARO MUNOSABAT

«Odamlar bilan ishlash – qum ichidan tilla izlashga o'xshaydi: tomog'ingni achishtirgan changni emas, topayotgan tillani o'ylishing kerak», degan edi taniqli milliarder Endryu Karnegi. Ish jarayonida har xil vaziyat bo'ladi. Kim bilandir tortishasiz, xafalashasiz. Shunda ham unga bo'lgan insoniy munosabatingizni o'zgartirmang. Odamlarning yaxshi jihatlariga e'tibor qaratish ham muhim ko'nikma.

*Odamlardagi qaysi yaxshi jihatlarni qadrlaysiz?*



## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

### QAROR QABUL QILISH VA XULOSA YASASH

Qaror qabul qilish – maqsadga yetish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash faoliyatni boshqarishning ajralmas qismidir. Bu – muammoga yechim topish faoliyati sifatida maqbul yoki hech bo'limganda qoniqtiruvchi yechim topishni, yakuniy to'xtamga kelishni anglatadi.

Yo'lboschi qanchalar kuchli bo'lsa, uning qarorlari ham shu qadar maqsadli va samarali bo'ladi. Qaror qanchalik mustahkam bo'lsa, lider ham shu qadar mas'ul bo'ladi.

*Qaysi qaroringizdan afsuslangansiz?*



### Amaliy faoliyat

Quyidagi kasb egalari bugun o'z sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun qanday zamonaviy bilimlarni egallashlari kerak.





## Mulohaza uchun

### HISSIY BILISH – ANIQ HARAKATLANISH KOMPASI

O'z hislarini boshqarish va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish hayotda muvaffaqiyat qozonishda muhim ahamiyatga ega.

Hissiy bilish – insonning hislarni fahmlash, farqlay olish, boshqalarning xohish va istaklarini tushunish. Bu ko'nikma insonga maqsadi yo'lida o'z hislarini va boshqalarning hislarni boshqarishga yordam beradi.

Biz ba'zida tashvishlardan vahimaga tushamiz yoki boshqalarning xatti-harakatlaridan g'azablanamiz. Ammo bu qanchalik asosli? Agar g'azab yoki vahima qilish qimmatga tushishini bilsangiz, hislarni boshqara olsangiz – sizda hissiy bilish ko'nikmasi bor.

*Siz jahlingiz chiqqanida hislaringizni nazorat qila olasizmi?*

### Ma'naviyat xazinasidan



G'azabdan saqlaning, chunki g'azab odamzod ichida yonib turgan bir cho'g'dir. Sizlardan biringiz g'azablanganingizda ko'zları qizarib, tomirlari bo'rtib chiqqanini ko'rmingizmi? Agar qay biringiz o'zida g'azab alomatlarini sezsa, yotib olsin yoki o'tirib olsin.

*Hadis*



### Amaliy faoliyat

#### HISSIY HOLATLAR BANKINI TUZISH

Salbiy hissiyotlar bilan kurashish usullari ro'yxatini tuzing. Ro'yxatni umumiy muhokamada to'ldiring.

#### Misol uchun:

| SALBIY HISSIYOT | UNGA QARSHI KURASH USULI                                       |
|-----------------|--|
| Qayg'u          | Baxtli onlarni eslash,<br>yaqinlarning mehr-muhabbatini sezish |
|                 |  |
|                 |  |
|                 |  |

Eng qiyin ish – salbiy hislarni boshqarish. Salbiy hislar insonning jismoniy holatiga yomon ta'sir qiladi. Ijobiy hislar insonga sog'lom bo'lishga yordam beradi.

Insonlar nimani his qilayotganini tushunish samarali muloqot qilish, odamlarga xayriy bo'lish va munosabatlarni asrab qolish uchun ongli ravishda harakatlanishga yordam beradi.

## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

# 14-MAVZU: INNOVATSIYA VA ILG'OR FIKRLASH – TARAQQIYOT G'ILDIRAGI



## Faollashtiruvchi savollar

1. Innovatsiya jamiyatning rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. «Innovatsiya ehtiyojdan boshlanadi» degan fikrni izohlang.
3. Sizning hayotingizda innovatsiyalar qanday o'rinn tutadi?

### INNOVATSIYA NIMA?

«Ehtiyoj – kashfiyotning onasi», – degan edi qadimgi yunon faylasufi Aflatun. Ilg'or g'oya va tashabbuslar, ixtiolar – innovatsiyalar bois bugun biz hozirgi manzildamiz.

Innovatsiya – ijodiy yondashuv darajasini namoyon etuvchi ko'nikma bilan bog'liq hodisa; yangilik degani. Misol uchun g'ildirakning kashf qilinishi o'z davrida ulkan innovatsiya bo'lgan. Bugun g'ildirakni ishlab chiqarish yangilik emas, ammo «aqli g'ildirak» yaratilsa, bu – innovatsiya bo'la oladi.



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi matnlarda insoniyat tarixidagi qaysi innovatsiyalar haqida gap ketayotganini toping.*

Undan ilk marotaba 400 ming yil avval foydalanilgan. U himoyalashda, masofadan turib muloqot qilishda odamlarga qo'l kelgan.

100 000 yil avval yaratilgan bu innovatsiya bir avlod to'plagan tajribani keyingi avlodga yetkazishni osonlashtirgan.

19 000 yoshdagi bu ilg'or fikr paydo bo'lishi bilan odamlar tuyalarni xonakilashtirib, savdogarlikda foydalanishgan.

17 000 yil avval yuzaga kelgan bu voqeadan so'ng odamlar ko'chman-chilikdan voz kechib, bir joyda yashab, qishloq va shaharlar qurbanlar.

6000 yoshdagi bu ilg'or ixtiro savdo-sotiq rivojini harakatga keltirgan navbatdagi ulkan kuch bo'ldi.

5400 yil avval u loydan yasalib, olovda pishirilgan, natijada o'nlab yangi transport vositalari yaratilgan.

5000 yoshdagi bu innovatsiya savdo tizimini osonlashtirgan, mahsulot almashuv jarayoniga asta-sekin chek qo'ygan.

Til kashf qilingach, oradan taxminan 95 ming yillardan so'ng bu ixtiro ham paydo bo'ldi. U hisob-kitob, ilm uchun tagzamin bo'ldi.

1600-yilda yaratilgan bu ixtironing nomi finikiyaliklarning «elēkrōn», ya'ni «yonar tosh» so'zidan olingan va kahrabo (zargarlikda foydalani-ladigan qimmatbaho tosh)ga nisbatan ishlatilgan.

Xitoyda paydo bo'lган bu innovatsiya axborot tashuvchi vositaga aylangan. Natijada yangi bilimlar tezroq va ko'proq tarqala boshladi.

1440-yillarda esa Germaniyada bu qurilma yaratilishi bilan Yevropa ilm-fan markaziga aylandi. Chunki unda kitoblar bosila boshlandi.



## Ma'naviyat xazinasidan



Muvaffaqiyatni – sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko'rdim.

*Najmuddin Kubro*



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi matnni o'qing va nuqtalar o'rniiga kerakli so'zlarni qo'ying.*

### IJODIY FIKRLASH XUSUSIDA

Ijodiy fikrlash yangi g'oyalari orqali odamlar hayotini yaxshilash, insonlar va imkoniyatlarni bir-biri bilan bog'lash, ya'ni ...ka keltirish degani. Bu borada omadi chopgan odamlardan muvaffaqiyatlarining sirini so'rasangiz, ular bor-yo'g'i boshqalar e'tibor qaratmagan nimagadir ... qilishganini aytishadi. Ular aslida yig'ilgan ...ni jamlab, bilimlarni o'zaro ... olganlar. Ular ...ka boshqalardan ko'proq diqqat qilganlar. O'z sohasida yetakchi insonlar hamda bu insonlarga ergashuvchilar o'rtasidagi yagona farq – ..., ya'ni ilg'or fikrdir. ...ka uchramay turib, yangilik yaratib bo'lmaydi. Ijodiy yaratuvchanlik yangi ...larni o'ylash, innovatsiya – ...ni amalga oshirishdir. Buni uddalash uchun muvaffaqiyatsizlikdan ... kerak.

*Foydalanish uchun so'zlar: dunyo, uyg'unlik, innovatsiya, muvaffaqiyatsizlik, diqqat, tajriba, bog'lay, g'oya, ilg'or ishlar, qo'rmaslik.*

## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya



### Amaliy faoliyat

#### INNOVATSIYA - YANGILIKKA BO'LGAN EHTIYOJ MEVASI

Jamiyatda ilg'or fikrlar har bir insondagi o'zgarish, yangilikka bo'lgan ehtiyoj bois yuzaga keladi. Misol uchun, bundan 10 ming yil avval kimir bug'doy yetishtira boshlagan. Oradan 5 ming yil o'tib kimir xamirturush yordamida mazali non tayyorlash sirini topgan. Innovatsiya - bu faqat mahsulot emas. Bu, birinchi navbatda, xizmat ko'rsatish, biznes-jarayon yoki biznes-modeldir. Tushunarli tilda aytganda, innovatsiya - yashash tarzimiz va qadr-qimmatini oshiruvchi omildir.

*Quyidagi kompaniyalarning qanday ilg'or va innovatsion mahsulotlari ularning qadr-qimmatini oshirayotganini aniqlang.*

SAMSUNG

SONY



amazon



LG

*Quyidagi yoki o'zingiz bilgan innovatsiyalar va ularning hayotimizga olib kirgan o'zgarishlari xususida yozing.*



### Mustaqil faoliyat

*Quyidagi matnni o'qing.*

#### ILMGA CHANQOQ BOLANING KOMPANIYA RAHBARIGA AYLANISHI

Go'zal hayot o'z-o'zidan bunyod bo'lmaydi. U o'qib-o'rganish, muntazam intilish, qattiq mehnatning natijasidir. Sundar Pichai 27 yil avval Stenford universiteti grantini qo'lga kiritgan. Hindistondan u yerga uchib borishga mablag' yo'qligi bois, kambag'al otasi bankdan qariyb bir yillik maoshiga teng pul olib, unga chipta xarid qiladi. Yigit umrida birinchi marta samolyotga chiqib, okean ortiga uchib ketadi va musofirlikda o'qib-izlanadi. Bugun uning yillik maoshi qariyb 300 mln. dollarga teng.

«Google»ning bo'lajak rahbari yoshligidanoq ilmga chanqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. U maktabda kamgap, ammo so'zları ma'noga to'la, uyatchan o'quvchi bo'lgan. Elektronika mahsulotlarini «titkilash» uning uchun eng sevimli mashg'ulot edi.

2004-yilda «Google» kompaniyasidagi faoliyatini oddiy menejerlik lavozimidan boshlagan Pichai 2015-yilda kompaniyaning rahbariga aylandi.

Pichai «Google Chrome», «Chrome OS», shuningdek, «Google Drive» kabi dasturiy mahsulot va loyihalarning menejmenti bo'yicha mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. U kompaniyaning «Gmail» hamda «Google Maps» loyihalarining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Innovatsion mahsulotlarni yaratishda Sundar Pichaining sa'y-harakatlari yuqori.

Sundar juda kamsuqum va kamtarin inson. U bilan suhbatlashayotgan inson uning xalqaro ahamiyatga ega kompaniyaning rahbari ekanini his qilmaydi.

*Innovatsion g'oyalarni vujudga kelishi uchun qanday sharoitlar bo'lishi kerak?*

*Sundar Pichai muvaffaqiyatining siri bo'lgan o'ziga xos fazilatlarni sanang va ularni infografika shaklida tasvirlang.*



Ota-onam boshqa millionlab insonlar kabi, topgan-tutganlarini, umrlarini farzandlarining ta'limi uchun sarf qilganlar. Shu tufayli hozirgi darajaga yetishdim.

*Sundar Pichai*



## Amaliy faoliyat



1. Internet va axborot texnologiyalarining rivoji insoniyat hayotini qay darajada o'zgartirdi?
2. Ular sizning hayotingizga qanday ta'sir qilyapti?
3. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan shaxsiy rijovlanish uchun qanday foydalinish kerak?

## II bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

# 15-16-MAVZU: TANQIDIY FIKRLASH

## Amaliy faoliyat

1. Quyidagi suratlarda qanday jarayon aks etganini toping.
2. Javoblarizingizni izohlang.
3. Yana nima qo'shimcha qila olasiz?



## Amaliy faoliyat

### «NIMA BO'LGAN BO'LAR EDI?»

Ushbu mashq sizga «yon tomon»dan fikrlash va masalaga boshqa rakursdan qarash imkonini beradi. Ijodiy va amaliy fikrlagan holda savollarga javob bering.

Nima bo'lgan bo'lar edi, agar ...

... kompyuter va elektron gadgetlar to'satdan hayotimizdan g'oyib bo'l-ganida?

... dunyoda elektr tokisiz yashashga to'g'ri kelganida?

... sizga dunyodagi bitta narsani o'zgartirish imkoni berilganida?

... yer yuzida daraxtlar bo'lмаганда?



## Mulohaza uchun

### TANQIDIY FIKRLASH - INNOVATSIYANING TAGZAMINI

Aristotel yoki Arximed, Beruniy yoki Xorazmiy, Stiv Jobs ...

Insoniyat tarixini o'zgartirgan va o'zgartirayotgan insonlardagi umumiy o'xshashliklardan biri – tanqidiy fikrlash qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash – muvaffaqiyat qozonishga, baxtli yashashga, mo'may daromad topishga, hurmat qozonishga xizmat qiladi. Xo'sh, tanqidiy fikrlash qanday sodir bo'ladi?

Tasavvur qiling, siz ko'p ma'lumotlarni bilasiz va kuchli xotiraga egasiz. Lekin bu qobiliyatlarningiz sizga qarshingizdagi muammoni hal qilishga yordam bera olmaydi. Chunki sizda hozircha tanqidiy fikrlash ko'nikmasi yetishmayapti. Muammoni hal qilish uchun yangi g'oya kerak. Muammoning ijobiy yechim topishi nafaqat yangi g'oyalarga, balki ularning qanchalar foydali ekaniga ham bog'liq. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi orqali g'oya-fikrlarni baholaymiz, eng yaxshilarini saralaymiz va ulardan hayotimizni o'zgartirish uchun foydalanamiz.


Tanqidiy fikrlaydigan odam g'oya va fikrlarni bog'lab turgan aloqalarni yaxshi tushunadi. Natijada, u dunyoni boshqalardan ko'ra yaxshiroq va tezroq anglaydi.

Tasavvur qiling, siz qora rangli buyum oldidasiz. Ammo uning ichi yoki boshqa tomoni oq bo'lishi mumkinligi haqida o'ylaganmisiz? Ehtimol tashqaridan qo'pol ko'ringan odam ich-ichidan mehribon bo'lib chiqishini taxmin qilgan bo'lishingiz mumkin.

Tanqidiy fikrlash – muammoni hal qilish uchun ma'lumotlardan aniq va oqilona foydalana olish, savol berish oqrali qo'shimcha ma'lumotlar topish ko'nikmasidir.

#### Tanqidiy fikrlab, muammo va masalani qanday hal qilamiz?

Keling, biror muammo va masalani hal qilishda bizga nimalar yordam berishini o'ylab ko'raylik. Avval muammoni tahlil qilamiz. Tahlil, bu – murakkab masalani yaxshiroq tushunish uchun uni kichik qismlarga bo'lib chiqish degani. Bu orqali:



*Ushbu infografikaga asoslanib hayotiy misol keltiring.*

Tanqidiy fikrlash chog'ida mantiqiy yondashuv faollashadi, savollar aniq ketma-ketlikda qo'yiladi. Natijada, vaziyatdan kelib chiqib, muammoga yangicha yechim topish mumkin bo'ladi. Aniq va tizimli fikrlash bizdagi g'oyalarni ifodalash uslubini yaxshilaydi. Shunda odamlar bizni yaxshiroq tushuna boshlaydilar.

## II bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya



Taqidiy fikrlaydigan kishi oqilona qaror qabul qiladi. Anvarning otasi o'g'liga noutbuk sovg'a qildi. Do'stiga havasi kelgan Nodir ota-onasidan unga ham noutbuk olib berishlarini so'radi. Uning otasi uyni yaqindagina ta'mirdan chiqargani sabab, noutbuk xaridini biroz keyinroqqa qoldirishni aytdi. Nodir bundan biroz xafa bo'lgan bo'lsa ham, ota-onasini tushundi va bu fikrga ko'ndi.

Taqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega insonda mustaqil o'rganish moyilligi baland bo'ladi. Ya'ni, bunda siz bilimingizni boyitasiz, qo'shimcha ma'lumotlar izlaysiz.



## Jamoaviy faoliyat

### MENING HAYOT QOIDALARIM

Qonun va qoidalar bizni to'g'ri yo'naltirish, himoya qilish va tartibni saqlash uchun juda muhim. Tasavvur qiling, dunyoda hamma amal qilishi shart bo'lgan ikkita qoida ishlab chiqish kerak. Siz qaysi qoidalarni ilgari surasiz?

1-qoida ... .

Bu qoidani tanlashimdan maqsad shuki, ... .

2-qoida ... .

Bu qoida Yer uchun muhim, chunki ... .

Taqidiy fikrlash orqali biz ahamiyatsiz og'zaki bahslarni asosli fikrlar bilan ifodalashga o'rganamiz. O'z nuqtayi nazarimizni shubha ostiga olamiz, boshqalarni tinglaymiz. Bunday insonlar «Ehtimol men xato qilayotgandirman?», «Balki uning so'zлари to'g'ridir?» degan savollarni o'ziga beradi va javob izlaydi.

Taqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega insonlar kamtar bo'ladilar, fikrlarining xato ekanini, boshqalarning ustun jihatini tan oladilar. Ular sinchkov va qiziquvchan bo'ladilar, mayda dalillarni ham o'rganishdan to'xtamaydilar.



## Mulohaza uchun

### IJODKORLIK – IQTISODIYOT VA INNOVATSİYANING G'ILDİRAGI

XXI asrga kelib ijodkorlik va madaniyat xalqaro iqtisodiyotning muhim yo'nalishlariga aylandi. Natijada «kreativ iqtisodiyot» tushunchasi paydo bo'ldi. Internet orqali aloqalar o'rnatish, axborot texnologiyalari yordamida ijod qilish bu yo'nalishning jadal rivojiga poydevor bo'ldi. Ijodkorlar adabiyot va san'at asarlari, fan va madaniyat sohasidagi xizmat va tadqiqotlari, dasturiy mahsulot hamda ishlanmalarini sotib katta foyda ko'rmoqda. Xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lish, sifatli xizmat ko'rsatish uchun mutaxassisdan ijodiy fikrlash bilan birga, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi ham talab etiladi. Tanqidiy fikrlash ijodkorlarga yangilik yaratishda yordam beradi.

Jamshid Xoliqulov jurnalistika sohasida tahsil olayotgan davridayoq «raqamlı dunyo»ga qiziqib qoldi. Hayot tarzining ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashayotgani uning maqsadlarini o'zgartirib yubordi. Internet davri ta'sirida yuqori sur'atda rivojlanayotgan dunyoning turli huddularidagi kompaniyalar axborot tarqatishda so'z bilan birga grafika-tasvirlardan ham foydalanishga kirishib ketdilar. Jamshid so'zning mohiyatini suratda aks ettirish qobiliyatini egalladi. Buning uchun so'zni anglash, ijodiy fikrlash ko'nikmalari unga yordam berdi.

Envato, CreativeMarket, Shutterstock platformalarida jahon miqyosida har kuni yuz minglab kompaniyalar tadbir yoki reklama mahsulotlarining grafika-tasvirlari uchun tanlovlар e'lon qilishadi. Jamshid frilanser sifatida, ishdan bo'sh vaqtida bu platformalar orqali qo'shimcha mablag' ishlab topadi. Undagi tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati ham oilasi, ham davlatga daromad keltirmoqda.



## Amaliy faoliyat




Quyidagilarning har biriga uchtadan misollar keltiring.

- |  |                               |
|--|-------------------------------|
| 1. Sizdan ko'ra ko'p gapiradi. ...         | 5. Sizdan ko'ra kamgap. ...   |
| 2. Sizdan mehnatkashroq. ...               | 6. Sizdan ko'ra aqlli. ...    |
| 3. Sizdan ko'ra ko'proq kitob o'qiydi. ... | 7. Sevimli ustozlaringiz. ... |
| 4. Sizdan ko'ra ko'p sayohat qiladi. ...   | 8. Sizga mehribon. ...        |

- |   |
|---|
| 1. Qayerda yaxshi taom yeish mumkin?                  |
| 2. Sayohat uchun qayerga borgan bo'lar edingiz?       |
| 3. Bog'-rog'larga boy joy.                            |
| 4. Doim issiq o'lkalar.                               |
| 5. Siz tashrif buyurishni istamagan joy.              |
| 6. Siz Yerdan tashqari sayohat qilmoqchi bo'lgan joy. |
| 7. G'oyalarga boy joy.                                |
| 8. Dunyodagi eng tinch joy.                           |

## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

- |                                       |                                      |
|---------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. To'rtburchak narsa. ...            | 2. Olovrang narsa. ...               |
| 3. Xushbo'y narsa. ...                | 4. Suvda yashaydigan jonzot. ...     |
| 5. Yoqimsiz narsa. ...                | 6. Siz uchun yoqimli mashg'ulot. ... |
| 7. Siz yoqtirmaydigan mashg'ulot. ... | 8. Odamlar o'qiydigan narsa. ...     |



## Mustaqil faoliyat

### «ERISHING VA VOZ KECHING»

Hayotning bir qismi ehtiyoj va xohishlarimiz o'rtasida sog'lom muvozanatni ta'minlashga sarflanadi. Biz doim o'zimiz uchun muhim narsalarga diqqat qilishimiz kerak. Quyidagi mashqda o'zingiz xohlagan 3 narsaga ega bo'lishni tasavvur qiling. Buning evaziga o'zingizda mavjud 3 narsadan voz kechishingiz kerak bo'ladi. Siz nimani xohlaysiz, o'rniga nimani berishga tayyorsiz va nima uchun?

*Men quyidagilarni tanlayman:*

1. ....
2. ....
3. ....

*Men bularni xohlayman, sababi: ....*

*Evaziga quyidagilardan voz kechaman:*

1. ....
2. ....
3. ....

*Men bulardan voz kechmoqchiman, chunki: ...*

Javoblarni  
daftaringizga  
ko'chiring



## Ma'naviyat xazinasidan

Fikr insonning sharofatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi.

*Abdulla Avloniy*

\* \* \*

O'ylash oson, harakat qilish qiyin. Ammo dunyodagi eng qiyin ish, bu – fikrga monand harakat qilishdir.

\* \* \*

Tafakkur qilish – bilishdan qiziqroq, ammo tekshirib ko'rish undan ham qiziq.

*Logann Wolfgang Gyote*

\* \* \*

Hech bir muammo barqaror tafakkur hujumiga dosh berolmaydi.

*Volter*



Dalillardan adolatli foydalanadi,  
oqilona qaror qabul qiladi.  
Fikrlari aniq va izchil;  
o'z harakatlarini baholay oladi

Kamtar, xatosini tushunadi,  
boshqalarning ustunligini  
tan oladi



Qarorlarining natijasini  
oldindan sezadi



### Tanqidiy fikrlaydigan insonga xos 9 xususiyat

Vaziyatni tahlil qiladi;  
sinchkov va qiziquvchan  
bo'ladi



Muammoga yechim  
topish yo'llarini bir nechta  
sohada qo'llay oladi



Ahamiyatsiz og'zaki  
bahslarni asosli  
ifodalaydi



O'z fikriga nisbatan  
tanqidni to'g'ri  
qabul qiladi



Mustaqil o'r ganishga  
moyilligi baland;  
turli vaziyatlarga  
moslasha oladi



Muammolarga  
noan'anaviy yechim  
topadi

58-betda berilgan rasmlarning izohi.

Indoneziyaning Yava orolida dehqon ayol guruch hosilini qushlardan  
to'r yordamida himoya qilmoqda.

Shimoliy Irlandiyaning Antrim tumanidagi fermer qor ostida qolgan  
qo'ylarini izlamoqda.

Kosta-Rikada maktab o'quvchilari sinfonasidagi televizorda sport  
musobaqalarini tomosha qilishmoqda.

Qizaloq Milandagi La-Skala teatri oldidagi shouni to'xtatib qo'ydi.



## II bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

# 17-18-MAVZU: LIDERLIKKA XOS XUSUSIYATLAR

## Faollashtiruvchi savollar

1. Inson fe'l-atvorining hayotiga qanday ta'siri bor?
2. Yetakchi insonlar qaysi xususiyatlari bilan ajralib turishadi?
3. «Temir iroda» deganda nimani tushunasiz? Uning baxt bilan qanday bog'liqligi bor?



## Jamoaviy mashg'ulot

*Quyidagi fikrlarni muhokama qiling.*

### QAT'IY FE'L-ATVOR - LIDERGA XOS XUSUSIYAT

Lider qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

Umidsizlik, qiyin vaziyatda sizga olg'a borish uchun nimalar yordam beradi?

«Muvaffaqiyatli insonlarning siri – ular boshqalardan ko'ra ko'proq mehnat qiladilar, xolos» degan fikrga munosabatingiz qanday?

### QAT'IY FE'L-ATVOR - «MEN BUNI QILA OLAMAN»

Inson ezgu niyatlariga yetishish uchun yashaydi. Maqsad va orzularga erishish uchun muvaffaqiyatsizlikdan so'ng oyoqqa turib, yana olg'a borish kerak bo'ladi. Doimiy o'qib-o'rganish, ko'nikma va qobiliyatni rivojlantirish yetakchilarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Qat'iylik – mashaqqat va sinovlarga qaramasdan muvaffaqiyatga erishish uchun bardosh bilan oldinga borishdir. Qat'iy iordaning asosi uchta: sabrli bo'lish, ilm olish va mehnat qilish.

Kattalar «Men buni qila olaman» deb astoydil harakat qilsang, mehnatdan qochmasang, albatta, niyatning yetasan», deyishadi.



## Yetakchilarga xos to'rtta muhim xususiyat

**Mardlik**

Olg'a  
borish  
va  
kurashish

**Innovatsiya**

Yangilik  
kiritish

**Axloq**

Tarbiya  
va  
odob

**Mahorat**

Bilim  
va  
ko'nikma

**Qiziqishingizni anglang,  
rivojlantiring, mustahkamlang.**  
Siz uchun nima muhimligini aniqlab  
oling; faraz qiling va uning haqiqatga  
mosligi haqida xulosa chiqaring;  
qiziqishlarining haqiqatga mos kelsa,  
ularni rivojlantirish uchun zarur  
bilimlarni o'zlashtiring.

**Qobiliyatlariningizdan amaliyotda  
foydalaning.**

Iqtidoringizdagi ojiz jihatga diqqat  
qiling; shu jihatingizni yengmasdan  
turib, g'alaba yo'qligini tushuning;  
bor kuch va diqqatni maqsadga  
yo'naltiring.

**Qat'iy  
fe'l-atvorga  
erishish  
uchun to'rt  
qadam**

**Ishonch-e'tiqodingizni  
mustahkamlang.**

Harakat bilan ezgu maqsadlarga  
erishish mumkinligiga ishoning;  
dunyoga ijobiy nigohda qarang;  
yordam so'rashdan qo'rwmang;  
o'zingizga bo'lgan ishonchni  
yo'qotmang.

**Maqsadingizni aniqlang.**

Maqsadingiz haqida batafsil o'rganing  
va bilimingizni oshiring;  
vazifani jiddiy va qat'iyat bilan qabul qiling;  
siz qilayotgan ish o'zingiz va boshqalar  
hayotini qanchalar yaxshilashini o'ylang;  
o'z idealeringizga havas qiling va unga intiling;  
mehnatingiz orqali hurmat-e'tibor  
qozonishga harakat qiling.



## Amaliy faoliyat

QR-kod orqali animatsiyani tomosha qiling va savollarga javob bering.

### LAMANING IRODASI

Lama maqsadiga erishish uchun qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirdi?

Lama nima sababdan maqsadiga erishish uchun qat'iyat bilan bordi?

Sizningcha, mevaga yetishish uchun olg'a borayotganda lama nimalarini his qildi?

Maqsad sari olg'a borganda mashaqqatlarga duch kelsangiz, nimalar haqida o'ylash sizga yordam beradi?

Muvaffaqiyatga erishish uchun qat'iy bo'lishda o'zingizga nimalar deya olasiz?

Quyidagi fikrlarni guruh bilan birgalikda takrorlang. Ularni tez-tez o'zingizga eslatib turing.

«Mening maqsadim – ezgulik!», «Men buni qila olaman!»

«Bu oson emas, ammo harakat qilsam bunga erishaman!»

«Muvaffaqiyatga erishish uchun menda imkoniyat bor!»

«Men maqsadimga olib boradigan rejani tuza olaman!»



## Mulohaza uchun

### SOHIBQIRON AMIR TEMUR – BUYUK YETAKCHI TIMSOLI

Dunyoning qariyb yarmini zabit etgan Amir Temur shaxsiyati fazilatlarga nihoyatda boy bo'lgan. Ajdodimiz insoniyat tarixidagi eng qat'iyatli shaxslardan biri bo'lgan.

Uning muvaffaqiyatlari zamirida, avvalo, chin e'tiqod yotadi. Sohibqiron og'ir damda ham Yaratgandan madad tilar, sarsonlikdan qutqarishini so'rар edi. Ixlos bilan qilingan iltijolar ijobat bo'lib, Sohibqiron zafarli kurashlar olib bordi va mo'g'ullarni yengib, buyuk sultanat barpo etdi.

Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat'iyat, haqiqatgo'ylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kaliti bo'lgan. Sohibqiron mardlik, jasurlik bilan davlat tashkil etib, jabr-zulmdan uzoqroq bo'lishga intildi.

Amir Temur sadoqat, adolatparvarlik kabi fazilatlarni ulug'lab, ikkiyuzlamachi, munofiqlarga nafrat ko'zi bilan qaragan. U boshiga kulfat tushganida ham haq so'zni aytishdan qo'rwmagan.



Xushmuomalalik, sabr-matonat, odillik kabi sifatlarni o'zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarni talab qilgan. Amir Temur hasadchi, kek saqlovchi, qora niyatli, g'iybatchi, zulmkor, razil, xulqi buzuq kishilarni nihoyatda yomon ko'rgan, ularni, hatto navkarlikka ham olmagan. U atrofiga jasoratli, dovyurak va mard insonlarni to'plagan.

## Amaliy faoliyat



Amir Temurdan o'rganishimiz lozim bo'lgan fazilatlar.

1-abzatsdagi gaplardan qanday xulosa chiqardingiz?

2-abzatsdagi «chin e'tiqod» tushunchasiga izoh bering.

3-abzatsda keltirilgan qaysi fazilatlar sizda ham bor?

4-abzatsdagi «ikkuyuzlamachi, munofiqlarga nafrat ko'zi bilan qaragan» fikrining mohiyatini tushuntiring.

5-abzatsga ko'ra, Amir Temur nima sababdan amaldorlardan xushmu-mala, sabr-matonatli, odil bo'lishni talab qilgan?

## Mulohaza uchun



### ORZULARI USHALGAN BOLA

Soichironing otasi temirchi edi. U bolaligidan otasiga yordamlashib ulg'aydi. Ondasonda ularnikiga ishdan chiqqan mototsikllarni olib kelishardi. Soichiro bu g'alati transportga hayrat bilan tikilar, tuzatishga qarashar edi. U ba'zida ustaxonadagi temirlarni bir-biriga payvandlab shunday transport yaratishga intilardi.

Soichironing orzulari ummondek cheksiz bo'lgan. U orzusiga erishish uchun 15 yoshida Tokioga yo'l oladi. Ish izlab taniqli «Toyota» kompaniyasiga kelganida uni ishga olishmagan. U mashaqqat va haqoratlarga qaramay, orzularidan voz kechmadi. Soichiro 22 yoshida o'zining avtomobil ta'mirlash ustaxonasini ochadi. Kunlarning birida u mototsikl yasashga kirishib, oxir-oqibat orzusiga yetadi.

1948-yilda Soichiro Honda tomonidan asos solingen «Honda Motor» kompaniyasi jahondagi eng qimmat avtomobil va mototsikllarni ishlab chiqaradi.



## Savol va topshiriqlar



1. Soichironing muvaffaqiyatini nima bilan bog'laysiz?
2. Soichironing muvaffaqiyati tug'ma iste'dod bilan bog'liqmi yoki boshqa omillar bilanmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
3. Maqsadga yetish uchun sizda nima yo'q?

## Il bob. Ilm-ma'rifat. Innovatsiya

### Maqsadga erishish yo'lida

O'zingizga tez-tez savol bering:

«Bu ishni yanada yaxshiroq uddalash uchun nima qilishim kerak?»

### Munosabatlarni qabul qiling

Tanqidni to'g'ri qabul qilgan odamlarning faoliyati samarali bo'ladi, ular o'z ishlaridan ko'proq qoniqish his qiladilar.



### Jamoaviy mashg'ulot

*Savollarga javob bering va ro'yxatni davom ettiring.*

Yon-atrofdagilarning munosabatini nega qabul qila olmaymiz?

Qanday odamlar o'zlarini oqlashni yaxshi ko'rishadi?

Boshqalarni mensimaslikning sababi nimada?

...

To'g'ri tanqidni qabul qilmaslik nimalarga olib keladi?

Tez-tez xato qilish nimadan darak beradi?

Muvaffaqiyatsizlikka uchrashning qanday sabablari bor?

...



### Ma'naviyat xazinasidan

Qila olaman deb o'ylasangiz ham, qila olmayman deb o'ylasangiz ham – to'g'ri o'ylagan bo'lasiz.

*Genri Ford*



### Amaliy faoliyat

#### Foydali odatlar – maqsadga olib boruvchi yechim

Siz uchun foydali odatlar ro'yxatini tuzing.

Ularni egallashning foydali jihatlarini yozing. Siz tanlagan odatlar sizga nega kerak, bu bilan nimaga erishasiz?



### Mulohaza uchun

#### KATTA O'ZGARISHLAR QILUVCHI KICHIK ODATLAR

Amalga oshirilgan barcha vazifalarni yozib boring. Shunda natijalardan paydo bo'ladigan xursandchilik ham yuzaga chiqadi.

Majburiy harakatlardan voz keching.

O'zingizni qiynamaslikka harakat qiling.

Harakatni kichik vazifalarni bajarishdan boshlang, rejangizni amalga oshirishdan to'xtamang.

O'zingizdan bordaniga katta narsani kutmang.  
Katta, mavhum maqsadlardan voz keching.  
Kichik urinishlar doimiy odatlarga aylanganiga amin bo'ling.  
Harakatlar odatlarga aylanishiga diqqat qiling.

## «Qulay hudud»



## «Muvaffaqiyat»

Kichik g'alaba ham sizni ilhomlanadiradi va hayotingizni yaxshi tomonga o'zgartiradi. Buning uchun «qulay hudud»dan chiqing. Qulay hududdan chiqish uchun tashlangan kichik qadam ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

### Eng muhim shart:

O'zingizni olg'a borishga majburlang.



Notiqlik –  
liderlarga xos  
xususiyat.  
Notiqlik sirlari

### Eng muhim omil:

Kichik odatlar katta sa'y-harakatlarni talab qilmaydi.

Xohish kuchi – iqtidor kuchidan ustun. Bir hikmatni unutmang – bir maromda, ammo muntazam yurgan uzoq yuradi va maqsadga yetadi. Kuchli xohish doimo rag'bat bilan quvvatlanishi kerak.

### Eng muhim qoida:

Son emas, muntazamlilik muhim. Kichik odatlarga doimiy amal qilib va ularni takrorlab odatlanish mumkin. Kichik natijalardan ham xursand bo'ling, ularni katta g'alaba deb biling.

## Jamoaviy mashg'ulot



Tasavvur qiling, o'qituvchingiz bergan vazifa asosida loyiha darsi uchun o'rganishlar o'tkazib, taqdimot tayyorlab kelishingiz kerak. Taqdimot yakunlanishi arafasida siz jiddiy xatoga yo'l qo'yaningizni tushundingiz. Natijada loyihani boshidan boshlashga to'g'ri kelishi mumkin. Bu vaziyatda nima qilgan bo'lar edingiz?



## Bilasizmi?

### ENG BUYUK YO'LBOSSHCHI



Amerikalik olim Maykl Xartning «Tarixdagi 100 buyuk odam» nomli asari G'arb dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'lgan. Xartning bu asarida keltirilgan 100 nafar buyuk insonlar orasidan insoniyat tarixini yaxshi tomonga o'zgartirgan eng muhim shaxs kompyuter tizimi orqali aniqlandi. Kompyuter dunyo liderlari ichidan eng buyuk yo'lboschi deb Muhammad (s.a.v.)ni tanlab berdi.


«Dunyo tarixini o'zgartirgan eng yetakchi shaxslar ro'yxatining boshiga Muhammad (s.a.v.)ning yozilgani bejiz emas. U dunyoviy va diniy sohalardagi samarali ishlari bilan tarix sahnasidagi ana shu ulug' maqomga munosibdir».

*Maykl XART, amerikalik olim*



## Savol va topshiriqlar

1. Dinlar jamiyat farovonligiga qanday xizmat qiladi?
2. Diniy qadriyatlar bilan bog'liq qanday axloqiy me'yorlarni bilasiz?
3. Lider yoki yetakchi deganda qanday insonlarni tushunasiz?



## Mustaqil faoliyat

1. *Quyidagi savollar asosida keyingi bir yil uchun reja tuzing:  
Mening hayotiy rejalarim*

- a) Eng muhim uchta maqsadingizni aniqlang. Ularga erishish yo'llarini toping va amalga oshirish uchun zarur harakatlar rejasini ishlab chiqing.
- b) sizningcha, ushbu maqsadlarga erishgandan so'ng hayotingiz qanday bo'ladi?
- c) tasavvur qiling, siz ularga erishdingiz. O'zingizni qanday his qilyapsiz?
- d) «Liderlik sari besh qadam» mavzusida esse yozing.

### 69-betda «Jamoaviy mashg'ulot» ruknida berilgan savolning javobi:

Ayni paytda amalga oshirayotgan ishlarni to'xtating va xatolarni baholang. Ularni to'g'irlash ko'p vaqtini talab etishi yoki etmasligini aniqlang. Agar qisqa fursat ichida kamchiliklarni bartaraf qilish imkonи bo'ssa, buning choralarini ko'ring. Modomiki, jamoangiz bilan loyihani boshidan boshlashga to'g'ri kelsa (loyiha belgilangan muddatidan chiqib ketgan taqdirda), bu haqida o'qituvchingizga xabar bering. Loyihani bajarish muddatlarini uzaytirish, vazifalarni qayta taqsimlash maqsadga muvofiq.

### III B O B

## ORZU, MAQSAD VA MUVAFFAQIYAT



- Munosib fe'l-atvoringiz bois hurmatga erishasiz
- Maqsad - bizni manzilga olib boruvchi kompas
- Sochilib yotgan g'oyalardan bino qurish uchun bilim, tajriba va hamfikr odamlar kerak
- Maqsadingiz boshqalarga ziyon yetkazishini sezsangiz, undan voz keching
- Yorqin kelajakka tayyorlash uchun hayot bizni sinovlarga ro'baro' qiladi
- Yaxshi maqsad yo'lida «Men buni qila olaman» degan lahzadan boshlab baxtli yashaysiz
- Liderlar mashaqqatlarni yengishda kuchli jihatlaridan foydalanadilar
- Tinglash va tushunish - dono kishining fazilati

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

## 19-MAVZU: BIZNING KUCHLI VA KUCHSIZ TOMONLARIMIZ



### Faollashtiruvchi savollar

1. Kuchsizlik nima?
2. Jismoniy kuchsizlik xavflimi yoki ruhiy?
3. Insonning «kuchli» yoki «kuchsiz» ekanligini qanday bilish mumkin?



### Mulohaza uchun

G'olib bo'lish uchun to'siqlar qarshisida taslim bo'lmaslikning o'zi kifoya. Kurashayotgan bo'lsangiz, demak tajriba orttiryapsiz – tobora kuch-quvvatga to'lyapsiz. Sinovlar mobaynida taslim bo'lmaslik va olg'a borish uchun inson kuchli xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

Beayov to'lqinlar mahoratlari kema yo'lboshchilarini kashf qilgani kabi, mashaqqatlar inson ichidagi kuchli jihatlarni yuzaga chiqaradi. Umri davomida kuchli iroda va matonat sifatlari tufayli kishi xususiyatlari olmos kabi sayqallanib, qadr topib boradi. Doimiy ravishda o'z mahoratini oshirish insonning kuchli tomonlarini mustahkamlaydi va zaif tomonlaridan xalos qiladi. Quyidagi hayotiy qoidalarga rioxva qilish orqali insonda kuchli sifatlar rivojlanadi.

### BIZNING KUCHLI TOMONLARIMIZ

#### O'zgarish

«O'zgarish – o'rghanishning mevasidir», deydi donishmand. Muvaffaqiyat qozonish va baxtli bo'lism uchun o'qib-o'rghanish orqali o'zgarishni odat qilish kerak. Boisi, bilimli inson tushkunlikka tushmaydi, u yuksalishda davom etadi.

#### Odamlarga hurmat

Muvaffaqiyat oxir-oqibat odamlarning ko'ngliga yo'l topa olish qobiliyati bilan hisoblashadi. Bilim sizga kuch va ishonch bersa, fe'l-atvoringiz hurmat keltiradi.

#### O'z-o'zini boshqara olish

Jahni tiyish, g'azabni jilovlash insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Xitoy faylasufi Lao Szi aytganidek: «Boshqalarni boshqarish – kuch, o'z-o'zini boshqarish – qudratdir».

#### Rahmat aytish

Atrofdagilarga tez-tez minnatdorchilik bildirib turing. Bu odat o'zaro rishtalarni mustahkamlaydi, kayfiyatni ko'taradi.

## Ijobiy va salbiy hislar o'rtaida muvozanatni saqlash

Ijobiy narsalarni o'ylash ijobiy va yaxshi voqealarning sodir bo'lishiga xizmat qiladi. Salbiy hislar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish, ularga qarshi kurashishga yordam beradi.

### Xatoni tan olish

Dunyodagi eng qiyin ish – o'z xatosini tan olish. Muvaffaqiyatli odamlar «men xato qildim» deyishadi. Omadsiz odam esa doim «bu mening aybim emas» deydi va o'zini oqlashga urinadi.

## Amaliy faoliyat



*Quyidagi savollarning har biriga uchtdan javob yozing.*

### Mening kuchli xususiyatim va sifatlarim

Nimalarda qobiliyatlisiz?

Sizdagi qaysi jihatlar o'zingizga yoqadi?

Siz nima uchun tez-tez maqtov eshitasiz?

O'zingizga xos jihatlaringiz?

Siz kimlarga havas qilasiz?

Siz qanday mashaqqatlarni yengib o'tgansiz?

Boshqalarga qanday yordam berasiz?

Siz havas qilgan insonlardagi kuchli jihatlarni sanang.

**KUTUBXONA**



### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Ma'naviyat xazinasidan

Ojizlar kechirishni bilishmaydi. Kechira olish – kuchlilarga xos fazilat. Kechirimlilik – ruhiy kamolot belgisi.

Mahatma Gandhi




## Mulohaza uchun

### «BOKS QIROLI» - MUHAMMAD ALINING KUCHLI JIHATLARI

«Mashqlardan charchab ketardim. Lekin og'ir paytda o'zimga: «To'xtama! Hozir azoblansang ham, hayotingning keyingi qismida champion bo'lib yashaysan» deyishni kanda qilmadim.

Kuchli ezgu istak meni o'zim xohlagan manzilga olib borishini bilar edim. Championlar mashq zallarida yetishib chiqmaydilar. Ular, avvalo, o'zlarining qalblarida kuchli xohish, orzu tufayli tug'iladilar. Sportda g'alaba uchun mahoratdan ko'ra istakning ahamiyati yuqori.

Omadning kelgani sari odamlarga yaxshilik qo'llini cho'z. Odamlarni baxtli qilish – mening burchim bo'lgan. Men doimo odamlarni baxtli qilish uchun bir finjon muhabbat, bir qoshiq sabr, bir choy qoshiq saxiylik, yana birozgina g'amxo'rlik yetarli ekanini aytaman».



## Jamoaviy mashg'ulot

Muhammad Aliga xos kuchli jihatlar ro'yxatini tuzing.



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi xususiyatlar nimalarga olib kelishini muhokama qiling.*


1. Men mayda-chuyda detallarga ham haddan tashqari e'tiborliman.
2. Men yordam so'raganlarga «yo'q» deya olmayman.
3. Mening fikrim tez-tez o'zgarib turadi.
4. Ba'zida menga ishonch yetishmaydi.
5. Men bilmaganimni boshqalardan so'ray olmayman.
6. Men juda qiziqqonman.
7. Men ishlarni chala tashlab ketaman.
8. Men odamlarni tinglay olmayman.
9. Men tez-tez tushkunlikka tushaman.

## Ma'naviyat xazinasidan

Yaxshi fazilatli insonni hech kim omaddan ayira olmaydi. Yomon xulqli kishiga yer yuzidagi hech kim yordam berolmaydi.

*Hikmat*

## Mustaqil faoliyat



*Quyidagi hikoyani o'qing va uning asosida «Do'stim – mening kuchli tomonim» mavzusida kichik hikoya tuzib kelng.*

### BO'RINING XULOSASI

O'rmonda ahil bo'rilar to'dasi umrguzaronlik qilar ekan. Kun kelib keksaygan to'daboshi batamom kuch-quvvatdan qolibdi. Navbatdagi ov arafasida yo'lboshchi bundan buyon to'daga boshchilik qilolmasligini ma'lum qilibdi. To'da orasidan yosh va baquvvat, quyuq kulrang mo'ynali bo'ri chiqib to'daboshining oldiga boribdi va bo'rilar jamoasiga boshchilik qilishga izn so'rabdi. Keksa bo'ri rozilik bildirib, buni e'lon qilgach, bo'rilar yangi yo'lboshchi rahbarligida ov qilish uchun jo'nab ketishibdi.

Oradan bir kun o'tib yangi sardor boshchiligidagi to'da mo'l-ko'l o'lja bilan qaytibdi. Yosh yo'lboshchi keksa bo'riga 7 nafar ovchiga hujum qilib, hech bir qiyinchiliksiz ularning bor-budini talon-toroj qilganliklari bilan maqtanibdi. Keyingi ovda, undan keyingisida ham ov baroridan kelib, yosh yetakchi jamoada o'z mavqeyini mustahkamlab olibdi.

Izg'irin kunlarning birida yangi sardor boshchiligida ovga ketgan to'da oradan ko'p vaqt o'tsa hamki, ovdan qaytmabdi.

Nihoyat, uzoqdan bo'rilarining qorasi ko'rinishi. Yakkam-dukkam qaytayotgan bo'rilar mayib-majruh, hammayog'i tirnalgan va qonga belangan holda edilar.

Yosh yo'lboshchi keksa rahbar bo'riga yo'lda uch nafar yo'lovchiga duch kelgani, ularga hujum qilib, jangda o'zi va sanoqli hamrohlari zo'rg'a omon qolishganini aytibdi.

«Ilk boshqargan ovingda 7 nafar qurollangan ovchini xonavayron qilib qaytgan eding. Bu gal bor-yo'g'i uch yo'lovchining sizlarni bunday achinarli ahvolga solganini qanday tushunmoq kerak?» – deb so'rabdi keksa bo'ri hayrat bilan.

Sobiq to'daboshining savoliga yosh sardor shunday javob qaytaribdi: «O'shanda biz hujum qilganlar 7 nafar ovchilar to'dasi edi. Biroq, kechagilar 3 nafar do'stlar ekan».

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

## 20-MAVZU: MAQSADGA QANDAY ERISHILADI?

### Faollashtiruvchi savollar

1. Hayotda maqsad bilan yashash nega muhim?
2. Maqsadga erishishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
3. Siz orzu qilgan hayot uchun qanday maqsadlar zarur?

### Mulohaza uchun

*Maqsad qo'yish – yuksalishga xizmat qiladi.*

#### «SMART» maqsad texnologiyasi

«SMART» – ingliz tilidagi *Specific (aniq), Measurable (o'lchash mumkin bo'lgan), Achievable (erishsa bo'ladigan), Relevant (ahamiyatga ega) hamda Time-Bound (amalga oshirish muddati aniq)* so'zlarining qisqartmasi.

SMART-maqsadni yozishda ana shu shartlarning barchasi hisobga olinadi.

*Nimani amalga oshirishni xohlayotganingizni bilasizmi?*

*Unga erishsa bo'ladimi?*

*Qachon amalga oshirishni belgilab olganmisiz?*

*Maqsadga erishganingizni qanday bilasiz?*

Bu mezonlar noaniqlik va taxminlarni yo'q qiladi, aniq harakat qilishga, yutuq va kamchiliklarni kuzatishga yordam beradi.

#### Aniq



Maqsad samarali bo'lishi uchun, u aniq bo'lishi kerak. Aniq maqsad quyidagi savollarga javob beradi:

*Uni uddalash uchun nimalar zarur?*

*Buning uchun kim mas'ul?*

*Maqsadga olib boruvchi yo'lni bilasizmi?*

**Misol:** Maftuna bolaligidan pazandalikka qiziqadi. Buvisi va oyisi unga milliy taomlar tayyorlashning noyob usullarini o'rgatishadi. U akasining yordami bilan ijtimoiy tarmoqda pazandachilik blogini ochdi. Maftuna kuzatuvchilari sonini bir oyda 2 000 nafarga oshirish maqsadida 10 kundan so'ng blogi haqida yirik tarmoqlarda reklama bermoqchi.

#### O'lchanadigan



Yuqorida misolga nazar solsak, boshlanishi yaxshi, ammo unda nimadir yetishmayapti – aniqlik, ya'ni o'lchov yo'q. Ya'ni, Maftuna blogidagi kuzatuvchilar sonini qanchaga ko'paytirmoqchi? Ming yoki ikki mingtaga? U nechta va qaysi tarmoqlarda reklama bermoqchi? Ikkita yoki beshta?

Maftuna bu maqsadini yanada mustahkamlash uchun O'zbekistonda ommalashgan yetakchi tarmoqlar ro'yxatini ko'rishi kerak.

**Misol uchun:** Maftuna blogida kuzatuvchilari sonini 2 mingtaga oshirish uchun 10 kundan so'ng 3 ta – Facebook, Telegram va Instagram tarmoqlarida targ'ibot roligini e'lon qilmoqchi.

### Erishsa bo'ladigan

Maqsad qilayotganda amaliy rejalarни belgilang. Bilimingiz, iqtidor hamda resurslarni hisobga olib, maqsadni belgilangan muddatda amalga oshirishga ishonch hosil qiling.

Maqsad sizni ruhlantirsin, u siz qoqilishingiz mumkin bo'lgan to'siqqa aylanmasin. Shu sababli ham erishsa bo'ladigan maqsad zarur. Buning uchun unga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan jihatlarni tanqidiy mushohada qiling.

**Misol:** Yosh bloger sifatida Maftuna blogidagi kuzatuvchilarni 1 oyda 5 000 taga oshirish imkonsiz ekanini anglatdi. Shu tufayli Maftuna avvaliga 2 000 kuzatuvchi to'plashni maqsad qildi.

### Ahamiyatga ega

Maqsad ortidagi mohiyat yoki manfaat bizni manzilga olib boradi. Maqsadning siz uchun, oilangiz, jamoangiz, Vataningiz uchun ahamiyatini biling. Buni aniqlasangiz, natija ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

**Misol:** Maftuna pazandalik blogini o'zini o'ylab ochgani yo'q. Uning maqsadi – buvisi va oyisidan o'rgangan milliy taomlar tayyorlashning noyob retseptlarini tengdoshlariga ham o'rgatish.

### Amalga oshirish muddati aniq

Maqsadlar cheksiz bo'la olmaydi – ularga muddat kerak. Vaqt – muvaffaqiyatni o'lchashning yana bir muhim mezonidir. Maqsadingiz qachon bajarilishi kerak? U bilan bog'liq rejalarini aniq vaqt oralig'iga joylang va ana shu davrda ularning amalga oshirilishiga diqqat qiling.

**Misol:** Maftuna blogida kuzatuvchilari sonini bir oyda 2 000 taga oshirish uchun 10 kundan so'ng tarmoqlarda reklama roligini e'lon qilmoqchi.

Sizda ham maqsadni amalga oshirish uchun aniq muddat bo'lsin, shuningdek, amalga oshiriladigan ishlarni ketma-ketlikda amalga oshirishni muayyan vaqtini belgilang.

Maftuna SMART maqsadini to'g'ri belgilab olgani, rejalarini o'z vaqtida hamda to'g'ri ketma-ketlikda bajargani uchun maqsadiga yetishdi. Bugun uning blogini bir necha ming kuzatuvchi tomosha qiladi.

Maqsadni SMART texnologiyasi usulida belgilash juda muhimdir, chunki u muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini maksimal darajaga oshiradi.

SMART maqsadlarni yaratish uchun qat'iy formula bo'lishi shart emas, aksincha, rejangizga kiritiladigan narsalarning nazorat ro'yxati zarur. Ya'ni, maqsadga olib boradigan qadamlarni to'g'ri belgilab olishingiz kerak. Agar sizning maqsadingiz boshqa odamlar bilan ishslashni ham o'z ichiga olsa, ular buni ham bilishlari kerak.




### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi suratlarni izohlang. Savollarga javob bering.*



1. Qaysi omillar maqsadga yetishga to'siq bo'ladi?
2. Maqsad yo'lida qaysi xususiyatlar muvaffaqiyatga xizmat qiladi?
3. Maqsadga yetishishda jamoaviylikning ahamiyati qanday?



## Mulohaza uchun

*Maqsad nimani anglatadi?*

### MUVAFFAQIYATNING TO'LOVI OG'IR, AMMO GASHTI BEQIYOS



2003-yillarda Internet foydalanuvchilari soni ortishi barobarda Internet xizmatlariga ehtiyoj oshib borardi. 18 yoshli Akmal axborot texnologiyalari sohasiga qiziqar, biror yangilik qilish payida edi. U avvaliga Internetdan foydalanish markazini ochdi. Kunduz biznes tashvishlari, tunda yangi texnologiyalar va marketing haqida o'qib-izlandi. Bir kuni unda manzil va joyni ko'rsatuvchi elektron tizim ishlab chiqarish g'oyasi tug'ildi. NaviMax loyihasi O'zbekistondagi ilk GPS-navigatsiya tizimi edi. Ammo birinchi bo'lish doim ham oson emas. O'sha yillarda unga xarita maxfiy axborot ekanini aytishdi. U bir necha marta «yo'q», «mumkin emas» degan javoblarni eshitdi. Akmal maqsadi yo'lidan qat'iy borib, xaritani jamoasi bilan yangidan chizishga qaror qiladi. Kartograf yollab, yillab o'zining mashinasida ko'chama-ko'cha yurdi. Kuch, vaqt, sabr-toqat va harakat mevasini berdi - 2009-yilda Akmal Fayziyev O'zbekistonda xaritaga guvohnoma olgan ilk tadbirkorga aylandi. Kuchli xohish, bilim va sa'y-harakat natijasida u 2015-yilda «MyTaxi» xizmatini ishga tushirdi.

*Muvaffaqiyatga erishishning tayyor retsepti yo'q. Sizning muvaffaqiyatin-gizga xizmat qiluvchi g'oyalari har yoqda sochilib yotgan g'ishtlarga o'xshaydi. Ularni to'g'ri tanlab, bino ko'tarish uchun bilim, tajriba va to'g'ri odamlar kerak. Ana shunda siz qurgan bino uzoq turadi.*

*Akmal Fayziyev, tadbirkor*

## Savol va topshiriqlar



1. Akmal Fayziyevdagi qaysi xususiyatlar uning muvaffaqiyatiga xizmat qilgan?
2. Qanday tashqi omillar yosh tadbirdikoraga maqsadiga erishishiga yordam bergen?
3. Boridan ayrilgan biznesmenni maqsadi sari yana davom etishga nima majbur qiladi?
4. 18 yoshga kirganingizda muvaffaqiyatga erishishni nimadan boshlamoqchisiz?

## Amaliy faoliyat




*Hikoyani diqqat bilan o'qing va xulosa yozing.*

### AJDAR OVCHISI

Dovyurak Chju Pingman ajdarlarga qiron keltirishda nom qozongan ovchiga shogirdlikka tushishni istabdi va unga shu orzusi ekanligini ta'kidlabdi.

Ajdar ovlovchi o'n yil davomida Chjuga ulkan maxluqlarni o'ldirishning oddiy usullaridan tortib, murakkab yo'llariga daxldor barcha bilimlardan saboq beribdi.

Shundan keyin Pingman bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishga qaror qilibdi. U qolgan umrini o'rmon va tog'larda, ovloq joylarda ajdar izlash bilan o'tkazibdi. Ammo birorta ham ajdarga duch kelmabdi.



## Ma'naviyat xazinasidan



Og'ir damda boshqalarga yaxshilik qila oladigan odam – o'zining ham, boshqalarning ham xaloskoridir.

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Mulohaza uchun

### TANIQLI DENGIZCHI JAK-IV KUSTONING KECHINMALARI

«Imkonsiz tuyulgan ishlarni uddalashni muvaffaqiyat deyish mumkin. Buning uchun kelajak tomonga aql bilan harakatlanish lozim.

Kelajak uni kashf etganlarga nasib qiladi. Harakatchan insonlarga birinchi qadamni tashlashga qiziquvchanlik turtki beradi, uning ortidan esa ilm ergashadi. Jamiki hayrat ona tabiat qo'ynda yashiringan. Uning go'zalligi bizni hayotga bog'lab turgan eng mustahkam rishtadir.

Tarixning katta qismida inson omon qolish uchun tabiat bilan kurashishga majbur bo'lgan. Endi esa u tirik qolish uchun tabiatni himoya qilishi kerakligini anglay boshladi. Afsuski, Yer insonlardan butun tarixga nisbatan XX asrda ko'proq aziyat chekdi.

Vaholanki, tabiat – biz yashayotgan umumiy uyimizdir. Suvda yoki quruqlikda bajarayotgan amallarimizning qadr-qiymati boylikka intilish bilan emas, atrof-muhitga hurmat ko'rsatish bilan baholanishi kerak. Dengiz ustida ham, tubida ham asosiy tashvishimiz insoniyatning kelajagi bo'lishi zarur».



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi savollar asosida maqsadingizni topishga urinib ko'ring.*

### Mening maqsadim

1. Maqsadingizni ifodalang. Kichik detallarni ham aniq yozing: hidini, ovozini, tashqi ko'rinishini aniq tasavvur qilishga harakat qiling. Sizning tavsifingiz qanchalik boy bo'lsa, maqsadingizga erishish uchun miya imkoniyatidan shunchalik unumli foydalanasiz.

2. Natijani yozing. Natija haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga harakat qiling; maqsadga erishganingizda nima yuz beradi, shunda sizni kim o'rab turganini his qilasiz, u qanday ko'rinishga ega bo'ladi, umuman, intilgan narsaga erishganingizni qanday bilib olasiz?

3. Maqsadingiz xayrli ishga xizmat qilishiga ishonch hosil qilishingiz haqida yozing. Maqsadingiz boshqalarga ziyon yetkazishini his qilsangiz, undan voz keching.

## Natijadorlik - samarali harakat sirlari

Harakatlarim qanchalar maqbul?

Rejalaringiz amalga oshyaptimi?

O'z-o'zini tekshirish

Yanada yuqori natijaga qanday erishsam bo'ladi?

**Tashqi omillarga ta'sirchanlik - maqsadga yetishga to'sqinlik qiladi**

Bizni natijadan nima to'sib turadi?

### Omillar:

- Tushkunlik
- O'ziga ishonmaslik
- Vahimaga berilish
- Qo'rquv
- Dangasalik

Natija o'zgarishga tayyor odamga nasib qiladi

Odam xatolarini tog'irlash chog'ida o'zgaradi

### Xatti-harakat

- Jamoaviy kayfiyatning yo'qligi
- Mas'uliyatni boshqalarga yuklash
- Maqsadning noaniqligi

### Nimaga olib keladi?

- Motivatsiya (ichki rag'bat)ni o'ldiridi
- Ishtiyoqni pasaytiradi
- Tashabbuskorlikni yo'q qiladi

Natijaga olib boruvchi harakat

### Yetakchilik

- Mansabga uchmaydi
- Odamlarni olg'a boshlaydi
- O'rganadi, izlanadi

### Ichki rag'bat - motivatsiya

- O'zidan mammun
- Ijobiy o'yaydi
- Yuqori maqsadga intiladi
- Boshqalarni ruhlantiradi

### Jamoa

- Yagona maqsad sari intiladi
- Kuchli liderga ergashadi
- Ishini to'g'ri taqsimlaydi
- Bir-birini himoya qiladi
- Namuna bo'ladi

### Shaxsiy fazilatlar

- Yaxshi aloqalar o'rnatadi
- O'ylab, tavakkalchilik qiladi
- Boshqalardan o'rganadi
- Vaqtidan to'g'ri foydalanadi
- O'rganishdan to'xtamaydi

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

## 21-MAVZU: MUVAFFAQIYAT - QIMMATLI TAJRIBA MEVASI



### Faollashtiruvchi savollar


1. Muvaffaqiyatga ta'rif bering. Sizningcha, muvaffaqiyatsizlik nima?
2. Muvaffaqiyatni qachon his qilish mumkin?
3. Muvaffaqiyatga erishsangiz, uni qanday nishonlaysiz?



### Mulohaza uchun

*Matnni o'qing va savollarga javob bering.*

Siz o'zingiz havas qilgan biror insonning hayotini o'rgansangiz, uning muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmaganligiga guvoh bo'lasiz. Yaxshi hayotga erishgunga qadar har bir kishi sinovlardan o'tadi, mag'lubiyatga uchrab, yaxshi hayot uchun kurashadi. Hayotda ko'p sinovdan o'tganlar odamlarni oson tushunadilar, his qiladilar, mulyimlik va jonkuyarlik bilan boshqalarning yarasiga malham bo'lishga intiladilar. Bunday odamlarning kamol topishi - hayotning noyob hodisasi.



Asl muvaffaqiyatsizlik, bu - hayotda harakatdan to'xtash. Intilayotgan ekansiz, hali sizda imkon bor. Orzu va rejalar ortidan qunt bilan borgan, boshqalardan ko'proq mehnat qilib, maqsad sari intilgan inson muvaffaqiyatdan ko'proq huzurlanadi. Kechagi muvaffaqiyatsizlik bilan yashamang. Muvaffaqiyatsizlikni tajriba, o'sish va rivojlanish uchun saboq hamda imkon sifatida qabul qiling.



### Savol va topshiriqlar

1. Muvaffaqiyatsizlik bizni nimaga o'rgatadi?
2. Hayot mashaqqatlari insonlarning fe'l-atvoriga qanday ta'sir qiladi?
3. Yuqorida matnga asoslanadigan bo'lsak, hayot qiyinchiliklarini ko'rgan odamni yaxshi odam deyish mumkinmi?
4. Muvaffaqiyatsizlikni qanday qabul qilish kerak?

## Mulohaza uchun



### MUVAFFAQIYATSIZLIK - VOZ KECHISH UCHUN SABAB EMAS

**Stiven Spilberg** Kaliforniya kinofilm universitetiga kirishni orzu qilgan. Biroq 12 yoshida 8 daqiqali film yaratgan Stiven uch marta urinib ham bu o'quv yurtiga kirolmagan. Shunday bo'l shiga qaramay, u rejissorlikdan voz kechmadi. O'n ikki marotaba Oskar mukofotining «Eng yaxshi film uchun» nominatsiyasida taqdirlangan ijodkorni bugun yosh-u qari yaxshi taniydi. Bir vaqtlar uni qabul qilmagan universitet 1994-yilda Stivenga faxriy diplom berdi. 1996-yilda esa rejissor iqtisodiy qiyinchilikka uchragan bu universitetni otaliqqa oldi.

### Amaliy faoliyat



*Quyidagi «Orzular tog'i»ni daftaringizga ko'chiring. Tog'larning pastlagan qismlari va cho'qqilariga namunadagi kabi fikrlarni yozing.*



Muvaffaqiyatsizlik qoqilishga o'xshaydi – sodir bo'lishi muqarrar, lekin qoqilgach qayta turib, yo'lda davom etishni, to'xtab qolmaslikni unutmaslik kerak.

#### ***Muvaffaqiyat - qilingan xatolarni takrorlamaslik degani***

Xatolarni takrorlamaslik uchun nima qilish zarur?

Qayerda noto'g'ri yo'l tutganingizni tushuning: sababini aniqlang va shunga qarab rejangizni o'zgartiring.

Tajribani unutmang: tajriba to'plashdan qo'rwmang. Urinib ko'ring, muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz, tajribaga ega inson bo'lasiz.

Qo'rquvni rad eting: bir marta, ikki yoki uch marta urinishlar muvaffaqiyatsiz bo'lsa, qo'rqlish foydasiz ekanini anglaysiz.

Xatoni tan oling: aybni boshqaga to'nkamang. Siz xatoni tan olsangizgina siljishingiz mumkin.


### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat




## Jamoaviy mashg'ulot

Uch guruhga bo'lining. Quyidagi infografikalardan birini tanlab, undagi fikrlarni izohlang.

### HARAKAT BILAN TO'SIQLARNI YENGISH MUMKIN





## Ma'naviyat xazinasidan



Muvaffaqiyat, bu – yerga urilgach, iloji boricha balandroqqa sakrash degani.

### MUVAFFAQIYAT KALITI – MEHNATSEVARLIK

Ravshan bolaligidan otasiga ergashib, «Paxtakor» stadioniga borishni xush ko'rар edi. Haybatli stadionda u ilk orzulariga duch keldi – taniqli sportchi bo'lish.

«Muvaffaqiyat orzularining chin va chiroyli ekaniga ishonganlarga nasib qiladi», degani rost ekan. Futbolga mehr va o'z ustida mehnat uni taniqli «Paxtakor» jamoasining yoshlari tarkibiga qo'shdi. Ravshan o'n yetti yoshidan boshlab futbol bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Qishning ayozli kunlarida kuyunchaklik bilan bugun stadionga bormay qo'ya qolishini so'ragan onasiga xavotir olmasligini aytib, xotirjam qilar edi.

Lekin o'n to'qqiz yoshida olgan jarohati tufayli u katta futbol bilan xayrlashishga majbur bo'ldi. Ravshan uchun qiyin davr boshlandi – tushkunlik. Bir kuni Ravshan otasi bilan birgalikda sportda muvaffaqiyatga erishishga oid muhim rejani ishlab chiqdi. Unga ko'ra, olti yo'nalishda vazifalar belgilab olindi:



### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



Uzoq muddatli maqsad – strategiya ish berdi. Ravshan 25 yoshidan boshlab xalqaro futbol o'yinlarini boshqarish uchun taklifnomा oldi. Otasi uning yaqin ustozи bo'ldi – har bir o'yindan keyin ular natijalarni, tafsilotlarni tahlil qilishdi. Oldindagi muvaffaqiyatlar nafaqat uning oilasi, balki butun O'zbekistonning iftixoriga aylandi.

Futbol olamida O'zbekistonning faxri bo'lgan Ravshan Ermakov 1977-yil 9-avgust kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. U uch marta Jahan championatida 11 ta o'yinni boshqargan va bu borada rekordchi sanaladi. U 5 karra «Osiyoning eng yaxshi hakami» deb tan olingan. Ravshan Ermakov 2015-yilda nufuzli «Globe Soccer Awards» tadbirida «Yilning eng yaxshi hakami» nominatsiyasida mukofotlangan.

*Ravshan Ermakovning uzoqni ko'zlagan muvaffaqiyatli rejasini muhokama qiling.*



### Amaliy faoliyat


*Yuqoridagi matnga asoslanib, quyidagi fikrlarni daftaringizda davom ettiring:*

Ravshan Ermakovning hayotini stadionga tashrifi o'zgartirib yuborgan, chunki ... .

Orzularingizga ishonsangiz, bir kuni ... . Sababi, orzular ... .

Ravshan ... tufayli qishning qahratonida ham mashg'ulotlarni qoldirmadi. Ravshanning muvaffaqiyatida otasi muhim ahamiyatga ega, sababi ... .

Xalqaro sportchi ... kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Sportchi xorijiy tilni bilishi kerak, boisi ... . Men kelajakda muvaffaqiyat qozonishimga ishonaman, chunki men ... .



### Mustaqil faoliyat

Muvaffaqiyatga erishgan mahalladoshingiz bilan «Mening muvaffaqiyatim siri» mavzusida suhbatlashing va kichik matn tuzing yoki infografika chizing.

## 22-23-MAVZU: O'ZIGA ISHONCH – MO'JIZAKOR KUCH

### Faollashtiruvchi savollar



1. Siz eng ko'p mag'lub bo'ladigan dushmanni bilasizmi?
2. Ishonch nega muhim? Usiz hayotni qanday tasavvur qilasiz?
3. Ishonch va qo'rquv o'tasida biror bog'liqlik bormi?
4. Ishonchingizni oqlamagan odamni hurmat qilasizmi? O'zingiz hurmat qilmaydigan insonga nega ishonmaysiz?

### Mulohaza uchun



#### QO'RQMANG, O'ZINGIZGA ISHONING

Piter Pen filmini barchamiz sevib tomosha qilganmiz. Shu bilan asardagi bir fikr juda muhim: «Ucha olishingga shubha qilgan mahaling sen bir umrga bu imkoniyatni qo'ldan boy berasan».



Yaxshi maqsad yo'lida ishonch bilan harakat qiling. Baxtiyorlik tashqi omillarga qarshi jismonan kurashish emas, ichkarida – ong-shuurda o'rashib olgan shubha-gumonni ishonch orqali yengish degani. Boisi, bu dunyoda bizning ko'pchiligidan eng ko'p mag'lub bo'ladigan dushman, bu – ichimizdagи qo'rquv.



Holdan toygan chumchuq daraxt novdasiga qo'ndi. Xavf-xatardan xoli dam olar ekan, u manzaradan huzurlandi. Kutilmaganda esgan shamol daraxtni qulatguday qilib chayqasa-da, chumchuq novdada o'tirgancha xotirjamligini yo'qotmadni. Boisi, daraxt qulagan taqdirda ham, ikki qanoti tufayli u o'zini xavfsiz sezар edi.

*Fikr qiling, hayot davomida sinovlardan o'tishda qaysi fazilat va xususiyatlar insonga qanot bo'lishi mumkin?*



### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Jamoaviy mashg'ulot

*Quyidagi hikoyani o'qing va savollarga javob bering.*


Yog'och yetkazib beruvchi fabrika xo'jayini Hindistondagi taniqli filchilik fermasida g'aroyib holatga duch keldi: fillar orqa oyog'idan bog'lab qo'yilgan edi. Ular bu arqonni bir siltashda uzishlari mumkin bo'lsa-da, unga bo'ysunib yurar edilar.

Bu yerda bahaybat jonivorlarni boshqarishda qafas yoki changaklarga zarurat yo'q edi.

Tadbirkor arqonning izmiga itoat qilgan ulkan hayvonlarga hayrat bilan tikilar, har qancha harakat qilmasin, ularning nega bu ingichka arqonni uzishga urinmasliklariga aqli yetmas edi. Sayyoramizning eng qudratli jonzotlarini bu ahvolda ko'rish ham hayratlanarli, ham achinarli.

Qiziquvchan tadbirkor buning sababini so'radi.

«Ularni go'dakligidan shu o'lchamdagি arqon bilan bog'lab qo'yamiz. Yosh filchalar avvaliga uni uzishga urinadilar, kuchlari yetmasligini bilgach, yon beradilar. Ularda katta bo'lgach ham «bu arqonni uzishga ojizmiz» degan qo'rquv bo'ladı va uni uzishga harakat qilmaydilar», - dedi ferma egasi.



## Amaliy faoliyat



Hikoyaga nima deb sarlavha qo'yish mumkin?

Hikoyadagi fillar hayotimizdagi qanday odamlarning timsoli?

Hayotimizdagi qaysi «arqonlar» bizni muvaffaqiyat uchun urinib ko'rishdan to'sib turadi?

### O'ZIGA ISHONCH QANDAY PAYDO BO'LADI?

**Mehnat mobaynida orttirilgan tajriba tufayli.**

**Muttasil o'qib-o'rganish orqali.**

**Qat'iyat bilan erishilgan muvaffaqiyat sababli.**

## Mulohaza uchun



*Quyidagi fikrlarni muhokama qiling, uning mohiyatini anglang.*

### BILIM – ISHONCHLI PANOH

Fransuz olimi Bleyz Paskalning universitetdagi ta'sirli ma'rzasidan so'ng talabalardan biri unga: «Ilm-fan kelajagi haqida ishonch bilan gapirishingiz tafsinga sazovor. Agar men ham sizdagi kabi ishonchni egallaganimda bormi, ilm-fan haqida shunday yuksak ishonch bilan so'zlar edim», dedi havas bilan. «Sen avval ilm-fanni egalla, ana shunda mendagi kabi ishonch senda ham bo'ladi», dedi faylasuf tabassum bilan. Aristotel aytgani kabi, «Inson uchun hayotda eng ishonchli panoh – bilimdir».

### CHEGARANGIZNI KIM TORAYTIRDI?

Bolaligingizni eslay olasizmi? Sizdan «Shu ishni qila olasizmi?» deb so'rashsa, hech ikkilanmasdan «Albatta» der edingiz, to'g'rimi? Endi-chi? O'sha ishonch qanchalik o'zini oqladi? Imkoniyatlaringiz chegarasini kim toraytirdi? Kim sizni pessimist qilib qo'ydi? Bu – o'zingiz! Endi o'zingiz o'sha, bolalikdagi ishonchni qaytarishga urinib ko'ring.

## Amaliy faoliyat



*Quyidagi salbiy fikrlarga qarshi ijobjiy fikrlarni yozing:*

«Men buni bajara olarmikanman?»

«Boshqalar menden aqliroq va muvaffaqiyatga munosibroq».

«Bu ish allaqachon qilingan-ku!»

«Bu ishga urinib ko'rsam boshqalar nima deydi?»

«Men bunga hali tayyor emasman».

«Tavakkal qila olmayman, rejalarim o'xshamasa, mening ustimdan kulishsa-chi?»

«Meni baribir omadim chopmaydi».

«Och qornim – tinch qulog'im, oddiy va tinchgina yashaganim ma'qul».

## Jamoaviy mashg'ulot



*Uch kishidan iborat guruhlarga bo'lining va quyidagi savollarga javob bering.*

### «Bizning kuchli tomonlarimiz»

**1-guruuh.** Bugun mening kayfiyatimni ko'targan voqeа, bu ...

Men ... da o'zim bilan faxrlanaman.

Men ... da zavqlanaman.

**2-guruuh.** Men oilamni ... bilan qoyil qoldiraman.

Kecha men erishgan eng muhim muvaffaqiyat, bu ...

Kechagi kunimning eng muhim qismi ... edi.

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

**3-guruh.** Mening ajralib turadigan jihatim, bu ...  
Men haqimda eng noyob ma'lumot shuki, men...  
...da o'zim bilan faxrlanaman.

**4-guruh.** Men ... da hayajonlanaman. Chunki ...  
Men ...lar borligi uchun shukur qilaman.  
Men o'zimni ... chog'imda baxtli his qilaman.

**5-guruh.** Mening hayotimni go'zallashtirgan muhim narsa, bu ...  
Bu hafta men erishgan eng muhim muvaffaqiyat, bu ...  
Men ... da o'zimni juda yaxshi his qilaman.

**O'zingizdagи «super-kuchlar»ni uyg'oting**  
Film yoki kitoblardagi qaysi qahramonlarni bilasiz?  
Ulardagi qaysi xislatlar sizni hayratga solgan?  
Ularni oddiy insonlardan nimalar ajratib turadi?



## Mulohaza uchun

### MUVAFFAQIYAT KALITI - BILIM VA HARAKAT



Kolumbiya universiteti dunyoning eng nufuzli ta'lim maskanlaridan hisoblanadi. Bu yerda o'zbekistonlik professor – Aziza Shonazarova ham dunyoning har tarafidan kelgan talabalarga dars beradi. O'zbek olimasi Kolumbiya universitetiga 500 nafar nomzod orasidan tanlab olingan.

Aziza siz kabi maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq tirishqoqligi, qat'iyati bilan ajralib turgan. U oldiga qo'ygan maqsadi sari sabr bilan intildi. Bunda uyidagi kutubxonanining hissasi katta bo'lgan.

Kitoblar Azizaning eng yaqin suhbatdoshlari edi. Kitoblar unga dunyoning jamiki sirlarini aytib berishardi. U kitoblar orqali yurtimiz tarixi qanchalar boyligini angladı. Ana shu tarixni dunyoga ko'rsatib berishni maqsad qilib, ilm bilan shug'ullandi. Uning bilimi ustozlarida ham havas uyg'otar edi.

Aziza hozir ham ko'p kitob o'qiydi, izlanishdan to'xtamaydi. U arab, fors, turk, rus, ingliz, fransuz, nemis, polyak tillarida erkin muloqot qila oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Aziza Shonazarova 2020-yilda «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

## Amaliy faoliyat



1. Azizaning yuksak yutuqqa erishishida quyida berilgan qaysi 3 jihat muhim o'rin tutgan deb o'ylaysiz?

Kun tartibiga rioya qilish, vazifalarni o'z vaqtida bajarish, ilmgaga mehr, kitob o'qish, qunt, sabr, tushunmaganini so'rash, yangilikka intilish, o'ziga ishonch, ustozlarga hurmat, bilganini boshqalarga o'rgatish.

2. Yuqoridagi sifatlardan foydalanim, bilim olishning ahamiyati haqida matn tuzing.

## Jamoaviy mashg'ulot



Quyidagi asarlar bosh qahramonlarining o'ziga xos fazilatlari va qobiliyatlarini eslashga urinib ko'ring:

- «Alpomish»
- «Betmen»
- «To'maris»
- «Shiroq»
- «Supermen»
- «Farhod va Shirin»
- «O'rgimchak odam»

Ulardagi o'xshash fazilatlarni sanab bering.

Misol uchun:

- Jasurlik
- Aql-idrok
- Oliyjanoblik
- Odamlarga yaxshilik qilish

## Amaliy faoliyat




### «QAHRAMONLAR MASHQI»NI BAJARING

Qahramonlar usulida mashq qilish – o'zingizga bo'lgan ishonchni oshirishning samarali yo'li.

Eng og'ir vaziyatlarda o'zingizni sevimli filmingizdagagi qahramon deb tasavvur qiling. Misol uchun, mashaqqatlar va sinovga duch kelsangiz, o'zingizni «Shum bola» filmidagi bosh qahramon o'rniga qo'yib ko'ring. Qoravoy topqirligi, zukkoligi, sho'xligi tufayli turli vaziyatlardan omon chiqib ketadi. U sizning o'rningizda bo'lganida, sinovlarni mardlarcha yengib, maqsadiga yetar edi.

Biz sezilar-sezilmas o'zimiz havas qilgan insonlarning, filmda ko'rgan yoki kitoblarda o'qigan qahramonlarning yaxshi jihatlarini ko'chirib olamiz.

Hozir sizni nima qiynamoqda? Siz o'zingizning o'rningizda kimni tasavvur qilasiz? U nima qilgan bo'lar edi?



### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Amaliy faoliyat

### O'ZINGIZ TO'G'RINGIZDA KUCHLI TASAVVUR YARATING

Siz nimanidir qilish uchun bunga ishonishning o'zi kifoya emas. Chinakam ishonch – nima qilayotganingizni ko'ra bilishda.

Tez-tez ko'zingizni yuming va ko'z oldingizda o'zingizni qat'iy, xotirjam va munosib holatda tasavvur qiling. Bu vizual mashq sizga ishonchni o'zingizdan o'rGANISHINGIZGA yordam beradi. Deylik, ko'zingizni yumishingiz bilan siz televizorda paydo bo'ldingiz va film qahramonlari kabi ishonch bilan harakatlana boshladingiz. Bu mashqni qancha ko'p bajarsangiz, shunchalik ko'proq «filmdagi o'zingiz» kabi harakatlana boshlaysiz.




## Amaliy faoliyat

*Quyidagi gaplarni to'ldirib, o'zingizni anglang:*

O'qituvchimning fikricha, biz ahil jamoamiz, chunki biz .....  
Sinfdoshlarimizning fikricha, ..... da bizga teng keladigani yo'q ekan.  
Men ..... da o'zimni juda baxtiyor his qilaman.  
Oilamiz g'ururlanadigan narsa yoki ish, bu – .....  
Men ..... orqali oila a'zolarimni baxtiyor qilaman.  
Jamoamizning o'ziga xos jihatlaridan biri, bu – .....

### O'ZIGA ISHONCH – IJODIY FIKRLASH MEVASI



*Ishonchga ega bo'lish uchun quyidagi xatti-harakatlarning ahamiyatini muhokama qiling.*



## Amaliy faoliyat



*Quyidagi gaplarni to'ldiring:*

### «MEN KUCHLIMAN, CHUNKI ...»

Men o'zimga ishonaman, chunki ...  
 ... qobiliyatlarim shakllangan.  
 Kelajakda o'zimni ... tasavvur qilaman.  
 Do'stlarim davrasida ... namoyon qila olaman.  
 Jamoamizni ko'pchilik qadrlaydi, chunki biz ... .  
 Biz ...dan nihoyatda zavq-shavq olamiz.  
 Kelajakdagi ... kabi maqsadlarim bilan boshqalardan ajralib turaman.  
 Maqsadlarimga erishishimga ishonaman, chunki ... .  
 O'zimdagи qobiliyatlarimni rivojlantirish uchun ... qilaman.  
 Bizni ko'pincha ... uchun maqtashadi.  
 Men ...dan kuch olaman.

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

## 24-MAVZU: MULOQOT VA IJTIMOIY KO'NIKMALAR



### Mulohaza uchun

1. Siz yaxshi suhbatdoshmisiz?
2. Suhbatdoshni tinglay olish hayotda nega muhim deb o'ylaysiz?
3. Muloqot qila olish qobiliyati daromadga ta'sir qilishi mumkinmi?

\* \* \*

Bahodirning do'sti Aziz u bilan ko'proq suhbatda bo'lishni istaydi. Chunki Azizning fikricha, Bahodir uni yaxshi tushunadi.

Bahodir esa aslida yaxshi tinglovchi. U tinglash orqali Aziz nimani xohlayotganini tushunadi. U do'stini diqqat bilan tinglab turib, zarur savolni beradi. Shu asnosida u Azizga to'g'ri yo'lni topishiga ko'maklashadi.

*Odamlarni diqqat bilan tinglashning yana qanday ijobiy tomonlari bor?*

Mohiraning dugonalari gap boshlashsa, doimo ularni shoshirib, oxirigacha eshitmaydi. U, ko'pincha, suhbatdoshidan ayb izlaydi. Natijada suhbat bahs-munozaraga aylanib ketadi.

*Odamlarni mensimaslikning boshqa salbiy oqibatlarini sanang.*



### Bilasizmi?

*Yaxshi suhbatdoshga xos xususiyatlar.*

#### E'tiborli bo'ling:

- so'zlayotgan odamga qarang;
- chalg'ituvchi fikrlardan o'zingizni xalos qiling;
- suhbatdoshingizning gavda harakatlarini uqishga harakat qiling;
- tushunish uchun savol bering.



#### Tinglayotganingizni namoyon qiling:

- boshingiz bilan tasdiq ishorasini qiling;
- jilmaying yoki boshqa yuz ishoralarini qiling;
- sizning gavda holatingiz muhimligini yodda tuting.

#### Munosabat bildiring:

- sizning tinglovchi sifatidagi vazifangiz fikrni tushunishdir;
- suhbatdoshingizning fikrini vaqtி-vaqtி bilan umumlashtiring;
- «Siz aytmoqchisizki, ...», «Agar to'g'ri tushungan bo'lsam ...» kabi iboralar orqali aniqlik kiriting;
- qarshi fikrlar bildirib, suhbatdoshingizni to'xtatmang.

#### Munosib javob bering:

- yaxshi tinglovchi sifatida suhbatdoshingizni hurmat qiling va tushunishga intiling;
- samimiyl va ochiq, to'g'riso'zlik bilan javob qaytaring;
- fikringizni hurmat bilan bayon qiling;
- suhbatdoshingizni qanday muomala kutayotgan bo'lsa, unga munosib javob qaytarishga harakat qiling.



## Jamoaviy mashg'ulot

Sinfdoshingiz bilan quyidagi mavzulardan birida 5 daqiqa suhbat-lashing. Suhbat chog'ida yuqoridagi ko'rsatmalarga amal qiling.

### 1-suhbat:

Birinchi o'quvchi: – Menimcha, hayotda iqtidordan ko'ra qattiq mehnat qilishning ahamiyati balandroq.

Ikkinci o'quvchi: – Nega bunday deb o'ylaysiz? Menimcha ...

### 2-suhbat:

Birinchi o'quvchi: – Muammolarni hal qilishga sizdagi qaysi xususiyat ko'proq yordam beradi?

Ikkinci o'quvchi: – Men, odatda, muammolarga duch kelsam ...

### 3-suhbat:

Birinchi o'quvchi: – Men hozirdan kelajakda yaxshi daromad topish mumkin bo'lgan kasbni egallash haqida o'layapman.

Ikkinci o'quvchi: – Mening fikrimcha, kasb masalasida avval pulni o'ylash – xato. Birinchi galda kasbni yaxshi ko'rish kerak, chunki ...

## Bilasizmi?



Fikrni  
ifodalash  
sirlari



### Yil xodimi



Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi ish beruvchilar sinov davrida yangi ishga kirgan xodimda 5 ta asosiy layoqat-larning bor-yo'qligini shakllanganligi e'tibor beradilar. Bular:

- tinglay olish va samarali muloqot qilish;
- tanqidiy fikrlash va muammoga yechim topish;
- jamoada ishlash;
- raqamli savodxonlik;
- vaqtini to'g'ri taqsimlash.

## Jamoaviy mashg'ulot

Quyidagi mavzulardan birini jamoangiz bilan muhokama qiling:

Nega ish beruvchi, birinchi navbatda, xodimning tinglash va samarali muloqot qilish layoqatiga e'tibor beradi?

Sizningcha, vaqtini to'g'ri taqsimlay olish qobiliyatni xodimga nega kerak?

Quyidagi fikrlarni izohlang:

Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi – fikrni chiroyli va tushunarli qilib ifodalamoqdir. Nutqi tushunarli kishining atrofida uni tushunadiganlar ham ko'p bo'ladi.

Kaykovus

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat

So'zlash – bilimli kishining odati. Tinglash – dono kishining fazilati.

*Sharq hikmati*

*Dono kishi tinglab nima topadi?*

Insonning eng katta ehtiyoji – tushunish va tushunarli bo'lishdir. Buning uchun tinglay bilish kerak.

*Konfutsiy*

*Qanday qilib «tushunarli bo'lish» mumkin?*

#### Amaliy faoliyat

*Tinglang va chizing.*

O'qituvchingiz o'qiyotgan hikoyani diqqat bilan tinglang. Tinglash jarayonida hikoyadagi biror detalni yoki syujetni tasvirlashga harakat qiling.

#### Mustaqil faoliyat

*Quyidagi matnni o'qing va savollarga javob bering.*

##### **Inson fe'l-atvorining muvozanati**

«Aytinglar-chi, jahli chiqqan odamlarning aksariyati nega baqiroq bo'lib qoladi?» – so'radi ustoz o'quvchilaridan. Savol yuzasidan ko'plab javoblar yangradi: «Jahl chiqsa, aql ketadi», «O'zimizni nazorat qilolmaymiz», «Bizni yaxshi eshitishlari uchun».

«Lekin yonimizdagи odamga baqirishning nima hojati bor?» – yana o'quvchilarga yuzlandi ustoz. Hamma o'yga toldi.

Sinf sukutga cho'mgan, o'quvchilarning diqqati ustozda edi.

«Xo'sh, aytinglar-chi, yaqin do'stlar baqirib gaplashadilarmi? Yo'q!»

«Siz ota-onangiz, yaqin insonlaringiz bilan past tovushda suhbatlash-sangiz ham, bir-biringizni yaxshi eshitasiz va tushunasiz. Qalbi yaqin odamlar bir-birlarini nigohlaridan tushunadilar. Insonlarning qalblari uzoqlashib ketmasligi uchun mehr-oqibatga muhtoj. Mehr – inson fe'l-atvorining muvozanatidir», – xulosa yasadi o'qituvchi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Odamlar bir-birlariga muloyim muomalada bo'lishlari uchun nima zarur?
2. Insonlarning qalblari bir-biridan uzoqlashib ketishiga nima sabab bo'ladi?
3. Sizga kimdir baqirib gapisra, qanday yo'l tutishingiz kerak?

**Quyidagi ko'rsatma asosida «Mehribon odamlar» mavzusida kichik hikoya tuzing.**

Siz tanimagan kimdir sizga qilgan mehribonchiligin eslang. Buning mehribonchilik ekanini qanday bildingiz? Nima bo'lganini tasvirlang. O'zingizni qanday his qilgan edingiz? Bu voqeа nega sizni boshqalarga ham mehr-oqibatli bo'lishga rag'batlantirdi?

## 25-MAVZU: KELAJAK KASBLARI

### Faollashtiruvchi savollar

1. «Kasb» deganda nimani tushunasiz?
2. Kasb tanlashda adashish nimaga olib keladi?
3. Qanday omillar ayrim kasblar eskirib, yangilarining paydo bo'lishiga ta'sir qiladi?
4. «O'z kasbining ustasi» deganda kimni tushunasiz?



### Mulohaza uchun



Odamlar madaniy rivojlanishning ovchilik va temirchilik bosqichidan o'tganlaridan keyin, ma'lum shaxslarga muayyan vazifalarni bo'lib berish odad tusiga kirgan. Bu vazifa avloddan avlodga o'tib, bora-bora aksar odamlarning qaysi kasbni egallashlari tug'ilishlariga qadar aniq bo'lgan. O'sha davrlarda temirchining bolasi temirchi bo'lishi ehtimoli yuqori edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan sanoat inqilobi tufayli bunyod bo'lgan fabrika va zavodlarda bo'sh ish o'rnlari ko'payib ketadi. Xususan, 1800-yillarda mashinist va metallurglarga ehtiyoj yuqori bo'lgan. Ishlab chiqarishda avtomatlashtirish jarayoni rivojlangani tufayli ko'p vazifani bajaruvchi mashinalar ixtiro qilinib, keyinchalik ularni boshqaradigan va tuzatadigan mutaxassislarning davri keldi. Bugun esa bunday mashinalarni ishlatish uchun zarur dasturni tayyorlaydigan dasturchilarga ehtiyoj yuqori. 1970-yillarda qurilishdagi chizmalarni tayyorlovchilarning ishi bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarga kelib ularning vazifalari kompyuterlarga o'tdi. Bugun chizmalar o'rnini 3D loyihalashtirish egalladi.

XXI asrda statistika, matematikadan xabardor insonlarning davri keldi. Endi ular dasturchi yoki dasturiy ta'minot hisob-kitoblarini – axborotlarni tahlil va talqin qiluvchi mutaxassislarga aylanishdi.

Texnikaga oid bilimlar muhim bo'lib turgan bir davrda, XXI asr mehnat bozoriga muloqot va hamkorlik qilish, jamoaviylik, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda.

### Savol va topshiriqlar



1. Qanday omillar kasblarning takomillashuviga yoki yangi kasblarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi?
2. XXI asrga kelib mehnat bozorida nima sababdan muloqot va hamkorlik qilish, jamoaviylik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda?

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Mulohaza uchun

Jamiyat muntazam o'zgaradi va mehnat bozori u bilan hamohang bo'lishi uchun doimo unga moslashib borishga majbur. Texnologiya rivoji kundalik o'zaro munosabatlarimizni o'zgartiradi, turmush darjasini yuksalib, yangi ish va xizmat turlari paydo bo'ladi.

Bugun yoshlar o'qituvchilik, shifokorlik kabi an'anaviy kasblar bilan birga, yuzlab yangi kasblarni tanlash imkoniga ega.



## Amaliy faoliyat

Quyidagi kasblarni tegishliligi bo'yicha davrlarga bo'ling. Ularning qaysi asrda ommalashgani haqida o'ylab ko'ring.

XXI asrda o'z dolzarbligini yo'qotayotgan kasblarni aniqlang. Bugungi kunda dolzarb kasblarni egallash uchun qaysi ko'nikma va bilimlar kerakligini sanang.

Sartarosh, tosh yo'nuvchi, pochtachi, bo'zchi, telegraf ishchisi, tungi qorovul, kosib, jarchi, robototexnik, avtomobil ustasi, zavod-fabrika ishchisi, muz tashuvchi, boshqaruva tahlilchisi, aravasoz usta, baliqchi, gazli suv sotuvchisi, teri oshlovchi, elektron devayslari ustasi, meshkob, qurilish muhandislari, gul sotuvchi, lift operatori, bozorni o'rganish bo'yicha tahlilchi, qurol-aslaha ustasi, temirchi, fotosuratchi, to'qimachilik fabrikasining xodimi, kompyuter tizimlari tahlilchisi, attor, telefon operatori, dasturchi, ...



## Mulohaza uchun



### IJODIY FIKRLASH - KASBIY YUKSALISH UCHUN ZARUR KO'NIKMA

Ijodiy fikrlash - jamiyatni rivojlantiruvchi va daromad olib keluvchi noyob ko'nikma. U orqali muammolarga yangicha yechim topish mumkin. Bilimga asoslangan jamiyatning har bir sohasida ijodkorlik muhim o'rinni tutadi.

Texnika taraqqiy etib, robot yoki ulkan mashinalar paydo bo'lgan bo'lsa ham, fabrika yoki ofisda ularning hech biri inson o'rnini bosa olmaydi. Odamlardagi noyob ko'nikmalar hanuz taraqqiyotning asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Ko'pchilik ijodni badiiy jarayon - rasm chizish yoki ijro etish, asar yozish deb biladi. Aslida esa tasavvurni ishga solish, muloqot qilish qobiliyati, muammoni hal qilish, matematikadan murakkab misol ishlash, ilmiy fikrlash va ma'lumotni sharhlash ham ijodiy jarayonni anglatadi. Tanlash, taqqoslash, yangi g'oyalarni jalb qilish va mavjud muammolarga yangicha yechim topish ijodiy fikrlashning muhim tarkibiy qismidir. Ixtiolar, asarlar, ilg'or g'oyalar, qulay turmush tarzi - barchasi ijodiy fikrlash mevasidir.

## Amaliy faoliyat



### IXTIROCHI KABI FIKRLASH UCHUN ZARUR KO'NIKMALAR

#### Ehtiyojni aniqlang

Yon-atrof, odamlar hayotiga nazar tashlang. Ularning hayotlarini yengillashtirish uchun qanday ixtirolarga ehtiyoj bor?

#### Ulardan birini tanlang

Mavjud ehtiyojlardan qaysi biriga yechim topish uchun zarur ixtironi yaratishga ko'zingiz yetadi? Ulardan birini tanlang.

#### G'oyani pishiting

O'zaro fikr almashib, o'zingiz yaratmoqchi bo'lgan ixtiro g'oyasini muhokama qiling va boyiting.

#### G'oya taqdimotini o'tkazing

Jamoangiz bilan birga o'yagan ixtiroingiz to'g'risida taqdimot tayyorlang.

*Quyidagi ta'riflarni tinglang va savollarga javob bering.*

**1-ta'rif:** U doimo yangi g'oyalar bilan to'lib-toshib yuradi; biror muammoni aytsangiz, qo'llab-quvvatlaydi va bir necha yechimlarini topib beradi. Bir qarasangiz tadbirdorda qatnashadi, bir qarasangiz qo'shiq kuylaydi yoki she'rlar yozadi. U ko'p qirrali ijodkor inson.

**2-ta'rif:** Unga biror fikr aytsangiz, hafsalasiz javob beradi yoki o'z muammosini aytadi; hech narsaga qiziqmaydi; kamgap va qiziqishlarini hech kim bilan o'rtoqlashmaydi. Unda na iqtidor va na muomala bor, u bilan tez zerikib qolasiz.

### III bob. Orzu, maqsad va muvaffaqiyat



## Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, yuqoridagi ta'riflarda keltirilgan insonlarning qaysi biri yaxshi suhbatdosh bo'la oladi? Javobingizni misollar bilan izohlang.
2. Ta'rifi keltirilgan qaysi inson bilan ishlasangiz maqsadga erishasiz?
3. 1-ta'rifdagi inson ko'p qirrali insonga aysongacha aylanishi uchun nimalar qilgan?
4. 2-ta'rifdagi inson nega zerikarli?
5. Sizga qanday ta'rif berishlarini istaysiz?



## Mustaqil faoliyat

*Quyidagi savollarga javob bering:*

O'zingizdagi iqtidor, qiziqish, xususiyatlar, his-tuyg'ular, qobiliyatlar, ehtiyojlar, muvaffaqiyatlarni aniqlang. Shunga ko'ra hozirdan kasbiy reja tuzing.

1. O'zingizdagi ustun jihatlarni sanang.
2. Qanday mashg'ulot hamda vazifalar sizga yoqadi?
3. Qanday o'ziga xos xususiyat va fazilatlarga egasiz?
4. Sizda o'zingizga xos qobiliyat va ko'nikma bormi?
5. Qaysi fanlardan yaxshi natijalarga erishmoqdasisiz?
6. Qanday ish muhiti sizga mos keladi?
7. Siz o'zingizni qaysi sohada tasavvur qilyapsiz?

## RIVOJLANISH



**IV B O B**  
**TADBIRKORLIK, G'OYA VA BOYLIK DAN**  
**FOYDALANISH MEZONLARI**

- Tadbirkor, avvalo, qalban boy bo'lsin
- Tug'ildikmi, imkoniyatlardan to'liq foydalanishimiz zarur
- Muvaffaqiyat sari intilayotgan bo'lsangiz, g'oyangizni asrab qoling
- G'ildirakni qayta kashf qilishga hojat yo'q, ammo zamonaviy g'ildirak yasash mumkin
- Frilanser – o'z-o'zini ish bilan ta'minlagan shaxs
- Bizni yo boy, yo qashshoq qiluvchi odatlar
- O'zlari sevgan ishni qilganlar – jahondagi eng baxtli kishilardir
- Haqiqiy boylik – inson qobiliyati, u ta'lim tufayli yuzaga chiqadi
- Tadbirkorlikda haqiqat shuki, qancha ko'p ulashsang, senga shuncha ko'p qaytaveradi



## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari

# 26-MAVZU: TADBIRKORLIK MEZONLARI

## Faollashtiruvchi savollar

1. Tadbirkorlikka qanday ta'rif berasiz? Uning qoidalari bormi?
2. Tadbirkorlikning qanday yaxshi tomonlari bor?
3. Unda halollik nimani anglatadi?

### BO'LAJAK TADBIRKORGA ESLATMA



O'zbekistonda tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilgani barchani ishbilarmonlik bilan shug'ullanishga ilhomlantirmoqda. Ehtimol sizda ham allaqachon tadbirkor bo'lish istagi uyg'ongandir. Unda bir haqiqatni unutmang – yosh tadbirkor uchun muvaffaqiyatning asosi yaxshi xulq-atvordir. Tadbirkorlik – odamlarga foyda keltirish, ularning turmush tarzini yaxshilashdir.

Tadbirkor, avvalo, ma'nан boy bo'lishi va oddiy ishga ham katta mas'uliyat, va g'ayrat bilan kirishmog'i kerak. Halol va to'g'riso'z, sifat uchun qayg'uradigan tadbirkorning mijozlari uning mahsulotlari to'g'risida boshqalarni xabardor qilsalargina, ishida unum bo'ladi. Ilg'or fikr va tashabbuskorlik tadbirkorni yetakchiga aylantiradi. Yangiliklarni qo'llab-quvvatlagan tadbirkor uzoqqa boradi.



## Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz, tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishishda xulq-atvorning qanday o'rni bor?
2. Tadbirkor uchun «qalban boy», «ko'zi to'q» bo'lish nega kerak?
3. Nima sababdan yangiliklarni qo'llab-quvvatlagan tadbirkor uzoqqa boradi?



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi infografikani sharhlab bering.*

### Muvaffaqiyatli tadbirkor

Shoshilinch xulosa chiqarmaydi, o'ylab qaror qabul qiladi.

Muvaffaqiyatsizligining sabablarini o'rganib, maqsadi ortidan qat'iy boradi.

Vaqtni eng qimmatbaho boylik deb biladi.

Ko'proq o'qiydi va o'rganish orqali imkon izlaydi.

Mavjud talab va ehtiyojni hisobga olib reja tuzadi.

Nufuz yoki pul uchun harakat qilmaydi, kompaniyaning qadr-qimmatini oshirish yo'llarini qidiradi.





## Amaliy faoliyat

*Nuqtalar o'rniiga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.*

Halol mehnat – mo'l ... .

*O'zbek xalq maqoli*

Puldan tashqari hech nimani tan olmaydigan tadbirkorlik – ... dir.

*Henri Ford*

Tadbirkorlikning siri boshqalar bilmagan tadbirdan ... bo'lishdir.

*Arastu*

*Foydalanish uchun so'zlar: boxabar, daromad, qashshoqlik, kasod.*

## Jamoaviy mashg'ulot



### Tadbirkorlik qoidalari



Halollik



Atrof-muhit  
himoyasi



Umuminsoniy  
maqsadlar



Fe'l-atvor



Ishonch



To'g'ri qaror



Aloqalar o'rnatish



Tartib-intizom



Burch va majburiyat

*Jamoangiz bilan yuqoridaq jihatlarning tadbirkorlikdagi ahamiyatini muhokama qiling.*



## Amaliy faoliyat

*Quyidagi savollardan birini tanlab, unga javob tayyorlang.*

Qo'lingizda 20 million so'm bo'lganida, uni 24 soat ichida qanday qilib 40 million so'mga ko'paytirgan bo'lar edingiz?

Mineral ichimlik suvi ishlab chiqarsangiz, o'zingizga qanday nom, shior tanlagan bo'lar edingiz?

Deylik, siz biror-bir yirik kompaniyaning rahbarisiz. Erta tongda uyqudan uyg'ongach, birinchi bo'lib faoliyatningizga oid qaysi uchta ma'lumotni tekshirib ko'rgan bo'lar edingiz?

Hozir tadbirkorlik qilish uchun sizga to'sqinlik qiladigan kuchsiz jihatingiz nima deb o'ylaysiz?

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Amaliy faoliyat

*Quyidagi hikoyani diqqat bilan o'qing va savollarga javob bering.*

9-sinf o'quvchilariga «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan dars berayotgan o'qituvchi o'quvchilariga 50 ming so'mdan pul berdi.

«Bir haftada bu pulni kim qanchaga ko'paytira olgani va pul miqdoriga qarab, shu yerda 5 daqiqadan 10 daqiqagacha taqdimot qilishingiz uchun vaqt ajrataman», – debdi o'qituvchi.

Dam olish kunlari kimdir sayilgohga chopdi, kimdir do'konga.

Oradan bir hafta o'tdi. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchilardan uchtasi o'qituvchi bergen pulni 100 ming so'mdan oshira olgan. 100 ming so'm topgan o'quvchi tajribasini o'rtoqlashdi. U o'qituvchi bergen pulga dam-urgich va shar sotib olib, parkda savdo qilibdi.

«Men esa besh kilogramm o'rik sotib olib, dam olish kuni sharbat sotdim», – javob berdi 150 ming so'm topgan ikkinchi o'quvchi.

Uchinchi o'quvchi – Nigoraning muvaffaqiyat siri hammani qiziqtirdi. Sababi, u 200 ming so'm mablag' ishlab topgan edi. Ma'lum bo'lishicha, u o'qituvchi bergen pulga munchoq, zar ip va gazlama olib, tengdoshlari uchun bejirim taqinchoqlar yasab sotibdi.


«Xalqimiz har kishi hunar o'rganishi kerakligini bekorga aytmagan. Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan rizqing unar», xulosa qildi o'qituvchi.

*Hikoyaga sarlavha qo'ying.*

*3-o'quvchida qaysi o'ziga xos fazilatni payqadingiz?*

*Qaysi qadimiylar hunarlar hozirga qadar o'rnini yo'qotmagan?*

*Hikoyadan qanday xulosaga keldingiz?*



### Mustaqil faoliyat

*Quyidagi hikoyani o'qing va savollarga javob bering.*

#### JEK MANING HAYOTINI O'ZGARTIRGAN QAROR



«Erishgan yutuqlarim ortida izlanish va mehnat yotadi. Uch yil urinib universitetga kira olmaganman. Harvardga kirish uchun o'n marta urindim, omadim kelmadni. Oxir-oqibat o'qituvchilar tayyorlaydigan kollej talabasi bo'ldim. O'sha kezlarda ish topish muammo edi. 1994-yilda o'qituvchilar o'n dollar evaziga bir oy ishslashga rozi edilar. Kollejda ingliz tilidan saboq berar ekanman, hayotimni o'zgartirishga bo'lgan orzular menga tinchlik bermadi. Shunda «Internet» degan yangilik haqida eshitib qoldim. Ko'pchilik uning nimaligini bilmas edi. Men esa kun-u tun bu yangilikni o'rgandim, istiqboli haqida olimlarning bashoratlarini o'qidim.

Menda internet do'koniga asos solish g'oyasi tug'ildi. O'zimga yaqin do'stlarim bilan rejalarim haqida gaplashdik. Do'stlarimning aksariyati




mening g'oyalarimga shubha bilan qaradilar. Bankda ishlaydigan birligina do'stim menga bu ishni chindan qilgim kelayotgan bo'lsa, urinib ko'rishimni aytdi. Tuni bilan o'zim bilan o'zim tortishib, tongga yaqin qaror qabul qildim va o'sha kuniyoq ishga kirishdim».

*Biz bu yerga – hayotga o'zimizdagи kuchning bir qisminigina sarflash uchun kelgan emasmiz! Tug'il dikmi, undan to'liq foydalanish zarur.*

Jek Ma

*Jahonning eng boy insonlaridan biri Jek Ma haqida nimalarni bilasiz?*



## Savol va topshiriqlar




1. Boshqalar «xomxayol» deb atagan rejalarini amalga oshirishiga unga nimalar yordam berdi?
2. Infografikaga diqqat qiling. Qaysi voqeа, qaror va xususiyatlar uning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirdi deb o'ylaysiz?

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Maqsad sari qat'iy borishda ichki rag'batni oshirish yo'llari



## 27-28-MAVZU: BIZNESNI BOSHLASH UCHUN ZAMONAVIY G'OYALAR

### Faollashtiruvchi savollar



1. G'oya nima? Misol keltiring.
2. Jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatgan qanday g'oyalarni bilasiz?
3. Kichik g'oya qanday qilib insoniyat hayotini o'zgartirib yuboradigan katta voqeaga aylanishi mumkin?



#### ODAMLAR HAYOTINI OSONLASHTIRGAN O'ZBEK

Kech bo'lib qolgani tufayli Botir do'kondan qo'l telefoni hisobini to'ldirish uchun karta topa olmadi. Shunda uning xayolida kartaning o'rnnini bosuvchi elektron to'lov tizimini yaratish g'oyasi tug'iladi.

Mobil kompaniyada ishlagan hamkasblari uning bu fikrini kulgi bilan qarshi olishsa-da, Botir g'oyasining o'ziga xosligiga ishondi. Shuning uchun u qayta-qayta mutaxassislar bilan uchrashdi, rejalarini muhokama qildi. Rad javoblar, moliyaviy mavzudagi natijasiz muzokaralar uning umidini so'ndirolmadi. Nihoyat, g'oyani qo'llab-quvvatlaydigan sarmoyador topildi. Xomaki g'oya izlanishlar natijasida ilg'or fikrga va keyinchalik yirik biznesga aylandi. 300 ming AQSH dollari miqdorida kiritilgan sarmoya 6 oyda o'zini oqlagani biznes olamidagilarni hayratga soldi. Bu g'oya O'zbekistondan tashqari yana bir nechta davlatlarda ham joriy qilindi.



### Bilasizmi?



Botir Orifjonov – 1978-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 2005-yilda PAYNET to'lov tizimiga, 2017-yilda LeBazar internet do'koni, 2018-yilda bepul ta'lim platformasi – Khan Academy O'zbek loyihasiga asos solgan.

Botir xorijiy tilni yaxshi bilgani va universitetda biznes boshqaruvi yo'nalishida faolligi uchun Angliyada magistraturada tahsil olish imkoniga ega bo'ldi.

«Muvaffaqiyat sari intilayotgan bo'lsangiz, g'oyangizni asrab qoling. Boshqalar taslim bo'lganida, siz mo'jizaga ishoning. Bu hayotingizni bir umrga o'zgartiradi».

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Bilasizmi?



#### JAMIYATDA SHAXSNING IKKI KO'RINISHI

##### O'ZGARISHNI ISTAMAYDIGAN:

Qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga intilmaydi

O'z ustida ishlamaydi va rivojlanish yo'llarini izlamaydi

Muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, chekinadi

O'z faoliyatida zaif va kamchiliklarini tan olmaydi

Yutuqqa intilmaydi, muvaffaqiyatni jamoa bilan bog'lamaydi

##### ILG'OR FIKRLAYDIGAN:

Qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarni o'qib-izlanib rivojlantirish mumkinligiga ishonadi

O'zini muntazam rivojlantirish yo'llarini izlaydi

Muvaffaqiyatsizliklarni navbatdagi muvaffaqiyat uchun asos deb biladi

Agar u qaysidir sohada boshqalardan orqada bo'lsa, yordam so'raydi va izlanadi.  
Boshqalarga yetib olishga intildi

Yutuqlaridan zavq oladi, buni jamoaning yutug'i deb biladi

#### Ilg'or fikrlash ko'nikmasini egallash yo'llari



O'zgarmaslik omillarini aniqlash

Ilg'or fikrlash ko'nikmasining muhimligini tushunish

Ilg'or fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi



Hayotingizni o'zgartirmoqchimisiz – fikrlashingizni o'zgartiring.





## Mulohaza uchun

E'tibor bering, hayotda daromad keltirishi mumkin bo'lgan millionlab asosli g'oyalar bor. Ammo ularning hammasi ham muvaffaqiyatli biznesga aylanmaydi. Chunki g'oyalar to'g'ri vaqtida, to'g'ri joyda va to'g'ri insonning xayolida tug'ilsagina amalga oshadi. Tadbirkorlikning muvaffaqiyati amalga oshishi uchun bir qancha omillar bor.



G'ildirakni qayta kashf qilishga hojat yo'q, ammo zamonaviy g'ildirak yasash mumkin. Eski g'oyalarni o'rGANISH, ularni takomillashtirish - rivojlanishning omili bo'lgan. Bolalar nima qiladilar? Ular ota-onalariga taqlid qilishadi, ulardan fe'l-atvor ko'chiradilar. Butun insoniyat tarixi mobaynida yer yuzida g'oyalar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan, vaqt o'tgani sayin takomillashgan. Aynan shu jarayonda innovatsiyalar va yangiliklar tug'ilgan. Bugun biror sohaga yangilik olib kirish ijodiy va ilg'or fikrlashni talab qiladi. Bu - tadbirkorlikning ham muhim bo'lagidir. G'oyani mahorat bilan o'zlashtirib, takomillashtirish - rivojlanish kafolatidir. Shuningdek, boshqalar hali urinib ko'rmagan yo'nalishlarda yangi g'oyalarni ilgari surish ko'p hollarda muvaffaqiyat keltirgan.

«Sony» kompaniyasi o'tgan asrda analog televizorlar ishlab chiqarishda jahonda yetakchi bo'lgan. Janubiy Koreyaning «Samsung» kompaniyasi bir muddat u bilan mazkur turdag'i televizorni ishlab chiqarishda kurashadi. Ammo raqobatda yaponiyalik raqibiga mag'lub bo'ladi. Shundan so'ng koreyalik gigant bu sohani rivojlantirishga pul tikib, raqamli televide niye texnologiyasi yo'nalishida muvaffaqiyat qozondi.



Avvaliga imkon qadar hali qo'l urilmagan jabhada yetakchi bo'lishga urining.

Innovatsyaning yagona universal modeli yo'q. Kimdandir nusxa ko'chirishingiz mumkin, biroq ilg'or bo'lish uchun innovatsiya va yaratuvchanlik g'oyasi atrofida ijod qilishga majbursiz.

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Jamoaviy mashg'ulot

Jamoangiz bilan quyidagi savollarni muhokama qiling. Javoblardan kelib chiqib, biror biznes g'oyani ifodalang.

1. Qiziqishlaringizni va nimada qobiliyatli ekaningizni ayting. Ular to'g'risida fikr almashib, qaysi birini biznesga aylantirish mumkinligini aniqlang.  
Misol uchun, siz hisob-kitobda yoki rasm chizishda qobiliyatlisiz. Uni qanday qilib biznesga aylantirish mumkin?
2. Siz ilgari surayotgan biznes g'oyasidan kim manfaatdor?  
Jamiki katta bizneslar insonlar hayotini osonlashtirishni ko'zlagan g'oyalar tufayli dunyoga kelgan. Sizning g'oyangiz kimning ehtiyojini qondiradi? Ular buning uchun pul to'lashga tayyormi?



### Mulohaza uchun

#### HAR QANDAY G'OYA ESKIRADI VA UNI YANGILASH MUMKIN

1970-yilda Bernard Sadov jomadonlarning ostiga g'ildirak qo'yish g'oyasini o'ylab topdi. Natijada ularni ko'tarib emas, tortib yurish imkoni paydo bo'ldi. Ammo o'sha yillarda jomadonlar kichik

bo'lgani tufayli bu g'oya o'zini oqlamagan. Yigirma yil o'tgach, uchuvchi Bob Platning ikki g'oyasi g'ildirakli jomadonlarni ommalashtirib yubordi.

Birinchidan, u jomadon g'ildiragini oldinroqqa o'rnatdi. Ikkinchidan, jomadonlarga tortib yurish uchun dastak qo'ydi. Ushbu kichik o'zgartirishlar bilan, hatto katta va og'ir jomadonlarni ham osongina sudrab yurish mumkin edi.

Miloddan avvalgi 460-yillarda yashagan yunon faylasufi Demokrit «hamma narsa atom yoki eng kichik bo'linmas zarradan iborat» degan g'oyani ilgari surgan. Oradan 2 ming yildan ko'proq vaqt o'tib, milodning XIX asrida ingliz kimyogari Jon Dalton (1766–1844) hamma narsa atomlardan iborat ekanini isbotladi. 1897-yilda fizik Jozef Tompson doimiy harakatlanuvchi elektronlar bilan o'ralgan proton va neytronlarning yadrosiga ega bo'lgan atom tuzilishini tasvirlab berdi.

Miloddan avvalgi 4000-yilda Mesopotamiyada ilk arava yaratilgan bo'lsa, 1672-yilda Yevropada bug'da harakatlanuvchi aravalar paydo bo'ldi.





## Amaliy faoliyat



Bugun amalda bo'lgan va eskirib borayotgan qanday g'oya, mahsulot yoki xizmatni bilasiz? Uni qanday yangilash mumkin? Fikrlaringizni o'rtoqlashing.

### G'YASINING ORTIDAN QOLMAGAN TADBIRKOR

1917-yilda Osaka Elektr Chiroqlari kompaniyasining yosh xodimi rahbar oldiga kashfiyoti bilan kirdi. Biror rasmiy ta'lif guvohnomasiga ega bo'lмаган 22 yoshli xodimning g'yasiga bepisandlik bilan qaralgach, kashfiyotchi izlanishlarini mustaqil ravishda uyining yerto'lasida olib bordi. Bu yerto'la jahondagi millionlab insonlar hayotini o'zgartirib yuborgan g'oyaning beshigi bo'ldi.

\* \* \*



Konosuke Matsushita – Yaponiyaning kichik qishlog'ida tug'ilgan. U 9 yoshidan do'konda ishlab, quyosh chiqmasidan uyg'onar, do'konni supurib-sidirar, hammayoqni saranjom qilib, kuni bilan xo'jayinning bolalariga qarar edi.


Yillar o'tib, u elektr tarmoqlari kompaniyasidan ish topdi. Konosuke bu yerda chiroq va rozetkalarga qiziqib, tunlari tajribalar qilar, kitoblarni titkilab, izlanar edi. Bir kuni u takomillashtirilgan chiroq rozetkasini yaratadi.

Konosuke o'zining g'yasiga ishondi va shaxsiy kompaniyasiga asos solishni o'yladi. Ko'pchilik uning bu fikrini qo'llab-quvvatlamadi.

Konosuke Matsushita ishini tashlab, uyida turmush o'rtog'i bilan rozetkalar ishlab chiqaruvchi kichik korxona ochdi. Uning yaratgan mahsulotiga birorta ham do'kon qiziqish bildirmagach, ular uyma-uy yurib, mahsulotlarni sota boshlashdi. Oylar o'tsa hamki, Konosuke biror hamkor topolmadi. Yosh oila uydagi mebellarni sotib, qarz ko'tarib, yana biroz sabrli bo'lishga qaror qildi.

Kunlarning birida unga o'zi yaratgan rozetkadan 1000 dona buyurtma qilishdi. Bu muvaffaqiyatning boshlanishi edi. Keyinchalik Konosuke akkumulyatorli velosiped lampalari va boshqa elektron kashfiyotlar qildi.

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



Konosuke Matsushita asos solgan, «Panasonic» nomi bilan tanilgan kompaniyada bugun 250 000 nafar xodim ishlaydi. Bularning barchasi ikki muhim omil tufayli sodir bo'ldi – g'oya va unga bo'lgan ishonch.


*E'tiborga loyiq g'oyalarni yarata oladigan odam – boshqalardan ko'p narsalarni o'rgangan insondir.*

*Konosuke Matsushita*



### Savol va topshiriqlar

1. Konosukening hayotini yaxshi tomonga o'zgartirib yuborgan xususiyatlar va voqealarni sanang.
2. Kichik g'oyalar katta voqealarga aylanishi uchun nimalar zarur ekan?
3. G'oyalarning bugungi ehtiyojga mosligini qanday aniqlash mumkin?



### Mustaqil faoliyat

#### MASHHUR G'YALAR

Siz tanigan 3 ta mashhur tadbirkor nomi va ularning faoliyat turini daftaringizga yozing.

Yuqoridagi tadbirkorlardan birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering.

Tadbirkor ismi: ...

Biznesi/kompaniyasi ...

Bu biznes qanday boshlangani haqida qisqacha ayting: ...

Bu yo'lda qanday to'siqlar va muammolar bo'lganini yozing: ...

Uning biznesi qachalik muvaffaqiyat qozonganini bayon qiling: ...

## 29-MAVZU: FRILANSERLIK – QO'SHIMCHA DAROMAD MANBAI

### Faollashtiruvchi savollar

1. Pul topishning qanday zamonaviy usullarini bilasiz?
2. Frilanserlik haqida eshitganmisiz?



### Mulohaza uchun



XXI asrga kelib axborot texnologiyalari masofadan turib ishlash imkoniyatini berdi. Natijada an'anaviy biznes qoidalari o'zgarmoqda, insonlar ofisga bormasdan turib ham, ish beruvchilarga xizmat ko'rsatishmoqda. Frilanserlik yaqin yillarda jamiyat uchun o'rta yoki katta korxona ofislardagi xodimlardan ko'ra foydaliroq faoliyatga aylanishi taxmin qilinmoqda. Quyidagi misollar orqali buni yaxshiroq anglash mumkin.

*Veb-frilanser – mijozlariga masofadan turib xizmat ko'rsatuvchi, o'z-o'zini ish bilan ta'minlagan shaxs. Veb-frilansing xizmati, odatda, biznes vakillariga Internet platformalari orqali ko'rsatiladi.*

### Amaliy faoliyat



*Quyidagi misollarga asoslanib, frilanserlikning afzalliklariga oid ro'yxat tuzing.*

**Reklama agentligi** Ravshanni bir yillik shartnoma bilan dizaynerlik lavozimiga ishga oldi. U talab darajasidagi dizaynerlik mahsulotlarini yaratib bera olmasa-da, agentlik shartnomani bekor qila olmadi. Bir yildan so'ng to'g'ri xulosa chiqargan agentlik bir martalik og'zaki shartnoma asosida ishlaydigan dizaynerlar bilan hamkorlik qila boshladi.

**Noshirlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi** «Yangi adabiyot» nashriyoti masofadan turib ishlaydigan matn teruvchilar – Nodira va Nigora bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Natijada, nashriyotning kommunal xizmatlar, jihozlar, xodimlarning sug'urta bilan bog'liq xarajatlari kamayib, ish samaradorligi oshdi.

**Nodira uchun uydan turib ishlash qulay.** U farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanish barobarida daromad ham topadi. Nigora esa uy sharoitida erkin va ortiqcha bosimsiz ishlashni xush ko'radi. O'z-o'ziga ham menejerlik qilish, ham xodimlik vazifasini bajarish unga yoqadi.

**Shohrux 5 yildirki frilanser sifatida dasturchilik bilan shug'ullanadi.** U bu davr ichida deyarli har kuni turli yo'nalishda faoliyat olib boruvchi

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari

kompaniyalar bilan loyihalar ustida ishladi. Doimiy ravishda yangi ishlar bilan shug'ullanish Shohruxga bilimlarni kengaytirish, yangi ko'nikmlarni egallash va keng aloqa tarmog'iga ega bo'lism uchun zamin yaratdi.

**Zohidning jismoniy imkoniyati** cheklangan bo'lsa ham, u uyidan turib mehnat qiladi. So'nggi 2 yildirki, u 100 dan ziyod ish beruvchilarga blogerlik va reklama xizmatlarini ko'rsatdi.

**Komila hisobchi bo'lib ishlasa ham**, bolaligidan grafik dizaynerlikka qiziqadi. U frilanser sifatida buyurtmalar olib, kechki payt grafik-dizaynerlik bilan shug'ullanadi. U sevimli mashg'uloti bilan band bo'lism asnosida daromad ham topadi.

**G'ayrat shahardan chetraqda istiqomat** qiladi. U ingliz tili o'qituvchisi. G'ayrat internetdagagi frilanserlik platformalari orqali mahalliy va xalqaro kompaniyalarga tarjimonlik yo'nalishida xizmat ko'rsatadi. Bu orqali ham tajriba orttiradi, ham pul topadi.

**Favqulodda holat munosabati bilan** shaharda harakatlanish taqiqlandi va haydovchilik bilan shug'ullanuvchi Azimning daromadi kamayib ketdi. Ammo uning mакtabni tamomlayotgan qizi Aziza masofadan turib video muharrirlik qilib, oilani mablag' bilan ta'minladi.

**Faxriddin jurnalistika fakultetida** tahsil oladi. U bo'sh vaqtlarida 4 ta yirik kompaniyaning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa va guruhlarini boshqaradi. Faxriddin frilanserlik orqali o'qishi uchun zarur shartnoma pulini ishlab topadi. Shuningdek, u oilasini ham moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.

**San'at yo'nalishida tahsil oluvchi** Oyдинning ovozi boshqa shahardagi radio ijodkorlariga ma'qul keldi. Oydin har hafta qiziqarli materiallar tayyorlab, smartfoniga yozib oladi va radioga jo'natadi. Ijod orqali uning mahorati yanada oshmoqda.

### Mulohaza uchun



Rivojlanish mehnat bozorini muntazam yangilab kelmoqda. Qirq yil avvalgi holat bilan taqqoslaganda, yangiliklar ta'sirida mehnat munosabatlari tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganiga guvoh bo'lamic. Axborot texnologiyalari ayrim soha vakillari bir vaqtning o'zida bir nechta ish beruvchi bilan ishlash imkonini bermoqda.

### Frilanserlar tobora ko'proq daromad topishmoqda

Endi kompaniyalar qisqa muddatli vazifalar uchun xodimlarni bir oy davomida idorada band qilishiga hojat qolmadidi. Ular zarur paytda tashqaridan vaqtinchalik mutaxassislarni ishga jalb qiladilar. Buning evaziga tashqaridan keluvchi yollanma ishchilarning daromadlari tobora ortib bormoqda.

## Kelajak mehnat bozorida frilanserlikning o'rni

Mehnat bozoridagi o'zgarishlar jarayonida bir nechta zamonaviy ko'nikmalarga ega xodim «qulay hududi»dan chiqib, qo'shimcha daromad manbalarini izlamoqda. Ishchi kuchining zamonaviy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi bir vaqtning o'zida turli sohalarda ishlash imkonini beradi va ishsizlikni ham kamaytiradi.



### Frilanserlik – o'z nomingni yaratish demak

Frilanser mustaqil ishlaydi – uning yaxshi ishlashi o'zining nomiga xizmat qildi. U orttirgan tajriba, aloqalar bir umr o'zi bilan qoladi. Frilanser nafaqat ish beruvchi, balki o'zining foydasiga ham ishlaydi. Misol uchun, onlayn platformalar orqali buyurtma olgan yollanma ishchi yaxshi xizmat ko'rsatsa, reytingda nomi ko'tarilib, dovrug'i oshadi.

### Frilanserning eng kuchli jihatni

O'zgarish – hayotdagi doimiy jarayondir. Yollanma ishchi sifatida virtual tarmoqda har kuni turli yo'nalishda faoliyat olib boruvchi ish beruvchilar bilan hamkorlik frilanserlarni sohasining yetakchilariga aylantiradi. Ular yangi talab va o'zgarishlardan birinchilardan bo'lib boxabar bo'lishadi.



## Savol va topshiriqlar



1. Sizningcha, bugun qaysi soha mutaxassislari masofadan turib qo'shimcha daromad topishlari mumkin?
2. Mehnat bozoridagi raqobatga dosh berish uchun mutaxassislar qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak?
3. Nima sababdan kompaniyalar o'rtasida mutaxassislarni vaqtinchalik yollab ishlatish ommalashmoqda?
4. «Mehnat bozoriga moslashish» deganda nimani tushunasiz?
5. Uzoq yillar bir joyda xizmat qilgan va har kuni turli ish beruvchilar bilan ishlagan mutaxassislar faoliyatining ijobiylari va salbiylari jihatlarini sanang.

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Jamoaviy mashg'ulot

Jamoangiz bilan bugungi kunda frilanserlik orqali bajarish mumkin bo'lgan faoliyat turlari va ular uchun zarur ko'nikmalarga oid taqdimot tayyorlang.



### Mustaqil faoliyat

*Quyidagi mavzuda bayon yozing.  
Men uchun mos frilanserlik faoliyati*

## 30-31-MAVZU: INSONNI BOY VA QASHSHOQ QILUVCHI OMILLAR

### Faollashtiruvchi savollar

1. Qashshoqlik nima degani? Uning sabablarini bilasizmi?
2. Boylik va boy inson o'rtasida bog'lilik bormi?
3. Insonni qanday odatlar boy qiladi?



### Mulohaza uchun



#### Nega ba'zi odamlar boy va boshqalar kambag'al?

Besh daqiqadan keyin qanday yashashimiz nimaga bog'liq? Ertaga, bir oy yoki bir yildan keyin qanday yashashimiz-chi?

Bularning barchasi hayotiy vaziyatlarda chiqaradigan qarorlarimizga bog'liq. Qarorlarimiz esa fe'l-atvorimizning mevasidir. Bizning hayotimiz – bizning odatlarimiz ixtiyorida.

#### O'ylang, biz har kuni quyidagi xatti-harakatlarga daxldor qanday qarorlar qabul qilamiz?

- Pul topish yoki sarf qilish;
- Yeb-ichish;
- Jismoniy faollik;
- Dam olish;
- Bo'sh vaqt ni tashkil qilish;
- Ish vaqtidagi odatlar;
- O'qish yoki o'rganish;
- Odamlar bilan munosabatlar;
- O'yash va idrok qilish bilan bog'liq odatlar.



### Amaliy faoliyat



*Quyidagi odatlarga misollar keltiring.*

**Bizni sog'lom, baxtli va boy qiluvchi odatlarni sanang.**

#### Tonggi odatlar.

*Misol uchun:* Erta uyg'onish, yuvinish, badantarbiya qilish, nonushta qilish.

#### Tushki odatlar.

*Misol uchun:* To'g'ri ovqatlanish, yayov yurish, tushlik qilgach biroz dam olish.

#### Kechki odatlar.

*Misol uchun:* Kitob o'qish, oila bilan vaqt o'tkazish, sayr qilish, keyingi kunga reja tuzish.

*O'ylab ko'ring, yuqoridaq qaysi odatlar baxtli hayot kechirishimizga xizmat qiladi?*

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari

Quyida keltirilgan tonggi odatlar inson hayotiga salbiy ta'sir qilishi tadqiqotlar davomida aniqlangan. Ulardan xulosa chiqarib, tongda qilish zarur bo'lgan foydali odatlar ro'yxatini tuzing.

1. Kech uyg'onish.
2. Badantarbiya bilan shug'ullanmaslik.
3. Tongni tushkun kayfiyatda boshlash.
4. Ota-onaning duosini olmaslik.
5. Oila davrasida nonushta qilmaslik.
7. Yaqinlari bilan xayrlashmay uydan chiqish.
6. Kunni reja qilmaslik, aniq maqsadlarni belgilamaslik.



### Jamoaviy mashg'ulot

Siz shakllantirgan tonggi foydali odatlarning ahamiyatini tushuntirib bering.

#### Pulga to'g'ri munosabat – boy bo'lishning muhim kafolati

Pul bilan bog'liq quyidagi odatlar hayotda boy yoki kambag'al bo'lishimizda muhim o'rinnegallar ekan.

- Pulni sarflash odatimiz.  
Pulni tejash odatimiz.

#### Pulga nisbatan yomon odatlar ...

«Xarajatlар ro'yxati»ni tuzmaslik.  
Mayda-chuyda va ahamiyatsiz xarajatlarga ko'z yumish.  
Dabdabali marosimlar va tadbirlar uyushtirish.  
Qarz olish va qarzdor bo'lib yurish.  
Har kuni tushlik uchun ovqat xarid qilish (vaholanki uydan ham mazali taomlar olib kelish mumkin).



### Bilasizmi?

Ko'p pul topib, kamroq sarflash hamda jamg'arilgan pulni foydali ishga tikish – pulga nisbatan to'g'ri odatdir. Vaqt o'tgani sayin jamg'arma va sarmoya o'z mahsulini beradi.

Millionerlarning ko'pchiligi ota-onasi yoki ustozlaridan pul bilan bog'liq aqli odatlarni o'rganish orqali badavlat bo'lishgan ekan.



### Amaliy faoliyat

Pulga nisbatan yaxshi odatlar ro'yxatini tuzing.



## BOLA BOSHIDAN ...

Jahoning eng boy kishilaridan biri bo'lgan Uorren Baffet 6 yoshidan boshlab ulgurji narxda salqin ichimliklar, saqich va gazeta-jurnal xarid qilib, eshikma-eshik yurib pullagan. U bobosining baqqollik do'konida ham ishlagan. Yuqori sinflarda o'qib yurgan kezlarida gazetalar tarqatish, golf koptoklari, markalar sotish va mashinalarni tuzatish orqali bo'lajak sarmoyador ancha-muncha pul jamg'aradi. Kollejni tamomlash arafasida Baffetning hisobida 90 ming dollardan ko'proq puli bo'lgan. 1950-yillarda bu katta pul edi. Tajriba va bilim unga keyinchalik muayyan soha va kompaniyalarning istiqbolini ko'rish imkonini berdi. Natijada Uorren Baffet jahoning muvaffaqiyatlari sarmoyadoriga aylandi.



«Mening ilhom manbaim mening otam edi. Bolaligimdanoq undan tongni to'g'ri odatlar bilan boshlashni o'rgandim», deydi milliarder. «Ota-onalar farzandlariga 3 yoshdan boshlab pul haqida gapirishlari va pulga nisbatan ularning to'g'ri munosabatini shakllantirishlari kerak. Pulni tejash – otam menga 6 yoshimga qadar o'rgatgan muhim saboq bo'lgan».

Bankdagi hisobida milliardlab dollari bo'lishiga qaramasdan, Baffet hashamatli qasrda yashashda ma'no ko'rmaydi va 1958-yilda xarid qilgan shinam va oddiy 5 xonali uyida yashaydi.

## Jamoaviy mashg'ulot



### Nima deb o'ylaysiz?

Qanday omillar Uorren Baffetning muvaffaqiyatiga xizmat qilgan?

Oilada ota-onalarning farzandlari bilan pul va pulga nisbatan munosabat haqida suhbatlashishlari nega muhim?

## Ma'naviyat xazinasidan



### HAYOT HIKMATLARIDAN

Donishmandlardan biri o'z farzandiga dedi: – Uch narsani tark etma! Eng yaxshi taomni yemoqni; eng yaxshi to'shakda uxlashni; eng yaxshi uylarda yashashni.

Farzand so'radi: – Ey otajon, biz kambag'al bo'lsak, bu ishlarni qanday bajaramiz?

Donishmand dedi: – Faqat qorning ochganda taomlansang – eng yaxshi taomni yegan bo'lasan; halol mehnat qilib charchaganingda uxlasang –

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari

eng yaxshi to'shakda uxlagan bo'lasan; odamlarga go'zal muomalada bo'lsang – ularning qalbida yashaysan. Insonlar qalbi esa uylarning eng yaxshisidir.



### Bilasizmi?

U har tun uyquga ketish oldidan o'tgan kunini o'ylab, qilgan biror foydali ishidan kayfiyati chog' bo'lsa, shundan quvonar edi. U tongda uyg'ongach, o'ziga bir xil savol berar edi: «Bugungi kunim men uchun omonat bo'lsa, reja qilgan ishim meni baxtli qila oladimi?» O'z-o'zini savolga tutishni odat qilgan Stiv Jobs 1976-yil 21 yoshida Apple kompaniyasiga asos solgan. Siz har kuni tongda uyg'onganda va tunda uyquga ketayotganda o'zingizga qanday savollar berasiz?



### Jamoaviy mashg'ulot

*Quyidagi fikrni muhokama qiling.*

«Hayotdagি eng mudhish qashshoqliк – puldan boshqa narsani tan olmaslikdir»



### Amaliy mashg'ulot

*Quyidagi misollarni o'qib, savollarga javob bering.*

#### BILIM – MUVAFFAQIYAT KALITI

Nozim ishchi oilasida tug'ilgan. U bolaligidan mahalla kutubxonasidan kitob olib o'qishga odatlandi. Maktabda yaxshi o'qib, ilm olib, izlangani uchun Nozim muvaffaqiyatga erishdi. Yon-atrofingizda bilimi ortidan boybadavlat bo'lgan, Nozimga o'xshagan insonlarni bilasizmi?

#### XASISLIK

Murodbek doimiy ravishda arzon narsalarni sotib olishni xush ko'radi. U sifatsiz mahsulotlarni iste'mol qilib, xastalanib qoldi. Davolanish uchun u katta pul sarfladi.

#### O'ZI YOQTIRMAGAN ISH BILAN SHUG'ULLANISH

Mahbuba hisobchilikni yomon ko'radi, lekin boshqa ish qo'lidan kelmaydi. Mansur majburligidan sotuvchilik qiladi. Ularning hayotini qanday tasavvur qilasiz?



## BAXTNI PUL BILAN O'LCHASH

Muzaffar yaxshi pul topadi. Ammo pul keldi deguncha kiyim oladi, sayohatga chiqadi, yaxshi joylarda ovqatlanadi. U topganini tugatishi bilan yana avvalgi hayot tarziga qaytib, kamtarona yashaydi. Buning o'rniga u nima qilishi mumkin?

### DARHOL BOYIB KETISH ISTAGI

Laziz maktabda yaxshi o'qidi, universitetni ham a'lo baholar bilan tamomlab, yaxshi ishga joylashdi. Ammo birdaniga katta boylikka erishish istagi uni to'g'ri yo'ldan adashtirdi. U ishxonasida pora bilan qo'lga tushib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Uning hayoti boshqacha bo'lishi mumkin edimi?

### O'ZINI BOSHQALAR BILAN SOLISHTIRISH

Aziz boshqa sinfdoshlaridan ko'ra yaxshiroq telefon tutgani uchun o'zini ulardan yuqori ko'radi. Laziz otasi kambag'al bo'lgani bois o'zini baxtsiz deb hisoblaydi. Nargiza dugonasining kiyimiga havas qiladi. Doimo kibr bilan yashash yoki hasad qilib ich-etini yeb yashash ularni nimaga duchor qiladi?

### PULNI TEJASHNI QANDAY BOSHLASH MUMKIN?

«Tejalgan bir so'm pul – ishlab topilgan bir so'm puldir» degan naql bor. Pulni to'g'ri ishlatish uchun xohish va ehtiyojni farqlay olish kerak.

Ehtiyoj – yashash va kundalik hayotda zarur bo'lgan kerakli narsalar.

Xohish – bizga juda kerak bo'lмаган, usiz ham yashash mumkin bo'lgan narsalar.

*Misol uchun:*

*Suv – ehtiyoj*

*Gazlangan rangli suv – xohish*



### Mustaqil faoliyat



Pul uchun ikkita idish ajrating, biri – pul jamg'arish uchun, ikkinchisi – xarajatlar uchun. Har gal pul ishlab topganda uni pul jamg'ariladigan idishga soling. Har gal pul sarf qilish arafasida uni xarajatlar idishiga solishdan avval kattalar bilan maslahatlashing. Siz bu pulni xohishingizga sarf qilmoqchimisiz yoki ehtiyojingizgami – buni aniqlashtirib oling.

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari

### «Xohish yoki ehtiyoj?»

So'nggi bir oy davomida oilangizda eng ko'p xarajat qilingan buyumlar, narsalar va harakatlar ro'yxatini tuzing. Ulardan qaysi biri ehtiyoj va qaysilari xohish ekanini ajrating.

### TADBIRKOR, MUVAFFAQIYATLI VA BAXTLI INSONLARGA XOS JIHATLAR



## 32-MAVZU: BOYLIKDAN FOYDALANISH MEZONLARI

### Faollashtiruvchi savollar



1. Boylik nima degani? U munosib hayot kechirishga yordam beradimi?
2. Mol-davlat qachon o'zini oqlaydi?
3. Boy bo'lish uchun asosli sabab – maqsadni o'ylaganmisiz?
4. Boylikni ortidan quvish kerakmi yoki baxtni?

### Mulohaza uchun



#### HAQIQIY BOYLIK NIMA?

«Boylik» deganda, odatda, shaxs, jamoa, kompaniya yoki mamlakatga tegishli bo'lgan jamiki mol-mulkning qiymatini tushunamiz. Ammo moddiy boylikning ortida nomoddiy boylik yotishini bilasizmi? 

Taniqli muallif Robert Kiyosaki «boylik» so'ziga ta'rif berib, uni «Daromad keltiruvchi mulk», deydi. Unga ko'ra ko'pchilik boylik uchun o'lchov deb bilgan hashamatli uy, qimmataho mashina yoki pul – boylik emas. Robert Kiyosakiga ko'ra hayotni go'zal qilayotgan omil, bu – nomoddiy boylik. Misol uchun, inson qobiliyatlar – ijodkorlik, kuch-g'ayrat va maqsad. Insonning ijodkorligi, kuch-g'ayrati va maqsadi o'zini va boshqalarni boy qiladi.

Insonning qancha daromad qilishi bevosita sa'y-harakatlarining qiymati bilan bog'liq. Misol uchun, dasturchi yaratgan mahsulot bahosi oshsa, uning daromadi ham oshadi. Kimningdir harakatlarining qiymati esa uning qobiliyati bilan bog'liq. Qobiliyatga ega bo'lish uchun esa inson o'qib, ta'lim olishga muhtoj. Ya'ni, yaxshi ta'lim olib, biror iqtidorga ega bo'lgan insonning daromadi boshqalarnikidan ko'proq bo'ladi. Nomoddiy boylik hisoblangan bilim va qobiliyat insondagi moddiy mol-mulkning ko'payishiga xizmat qiladi. Demak, bugungi davrda boy bo'lishni istaydigan inson uchun eng yaxshi yechim – yaxshi bilim olishdir.

### Jamoaviy mashg'ulot



Yuqoridagi matn asosida jamoangiz bilan «XXI asrda boy bo'lishning oson yo'li» mavzusida infografika chizing.

### Ma'naviyat xazinasidan




Agar ilm o'rgansam nima topaman? Agar kichik bo'lsang, ulug' va mashhur bo'lasan, kambag'al bo'lsang, boylik orttirasan, mashhur bo'lsang, yanada mashhurroq bo'lasan.

Buzurgmehr

## IV bob. Tadbirkorlik, g'oya va boylikdan foydalanish mezonlari



### Mulohaza uchun



#### MILLIARDERNING SAXOVATI

Alisher Usmonov saxovatpeshaligi bilan jahonga tanilgan. U katta boylikka ega bo'lsa ham, o'zini oddiy inson sanaydi. «Men uchun pullar, bu – vosita, ular yordamida nari borsa nimagadir erishish mumkin», deydi u.

Unga ko'ra, baxt boylikda emas, balki baxtiyor yashay olish qobiliyatida, baxtiyorlik pulning miqdori bilan o'lchanmaydi.

Alisher Usmonov 2008-yildan «San'at, fan va sport» xayr-saxovat tashkilotini tuzib, xasta bolalar, teatr va san'at, muzeys hamda sport muassasalariga beminnat yordam berib keladi.

2014-yilda taniqli olim Jeyms Uotsonga yangi tadqiqotlar uchun pul kerak bo'ladi. U o'ziga tegishli Nobel medalini auksionga qo'yganida, saxovatpesha o'zbek medalni 4,1 mln. dollarga sotib olib, uni yana olimning o'ziga qaytaradi.

Alisher Usmonov fondi yurtimizdagи xayr-saxovat tadbirlariga ham hissa qo'shib kelmoqda.



### Jamoaviy mashg'ulot

*Tadbirkor Alisher Usmonovning quyidagi fikrini muhokama qiling.*

Tartibli odam bo'lsanggina, senga berilgan boylik o'zini oqlaydi. Baxtli bo'lish uchun boylikni ezgu ishlarga sarflashning o'zi kifoya.

Biznesda haqiqat shuki, qancha ko'p ulashsang, senga shuncha ko'p qaytaveradi.

#### MA'RIFATPARVAR MILLIARDER

Bolaligida oilasi bilan Shotlandiyadan Amerikaga ko'chib kelgan Endryu kunduz kuni ko'chada o'tkinchilarining oyoq kiyimlarini artib pul topardi. U topgan puliga yaxshi kitoblar xarid qilib, tuni bilan chiroq shu'lasida o'qir edi.

Oradan yillar o'tib Endryu Karnegi «po'lat samoati otasi»ga va jahonning eng boy kishisiga aylandi. Mol-dunyosi ko'paygach, Endryu Karnegi hayotining oxirigacha o'z nomi bilan ataluvchi 2811 ta kutubxona qurdirgan. U buning uchun 26 million AQSH dollari sarf qilgan. Bugun amerikaliklarning 40 foizi ushbu kutubxonalardan foydalanishmoqda.



## Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz, Endryu Karnegi nima sababdan pullarini kutubxona qurishga sarflagan?
2. Boy-badavlat insonlar pullarini yana qanday xayrli ishlarga sarflashlari mumkin?

### Endryu Karnegini boy qilgan xususiyatlari



- A Kirishimli, xushtabiat kishi bo'lgan
- B Mohir tashkilotchiligi bois, rahbarlik lavozimiga juda erta erishgan
- D Aniq maqsadni tanlab, shuning ortidan borgan
- E Doimo eng yuqori cho'qqini ko'zlagan
- F Halol, mahoratli xodimlarni qo'llab-quvvatlagan
- G Bamaslahat ish qilgan
- H Doimo izlangan va ilmni qadrlagan




## Jamoaviy mashg'ulot

Quyidagi savollarni muhokama qilib, ularga javob topishga harakat qiling.

Hayotda puldan boshqa hech vaqosi yo'q qashshoq insonlar bormi? Ular kimlar?

Chinakam boylikni pulga sotib olib bo'lmaydi. Shunday boyliklarni bilasizmi?

Qalbi boy bo'lmanan insonni hech narsa boy qilolmaydimi? Qalbi boy insonga misollar keltiring.



## Mustaqil faoliyat

Quyidagi mavzuda matn tayyorlab keling. Unda mol-davlatga ega bo'sangiz, undan qanday ezgu maqsadlarda foydalanishingizni tasvirlang.

«Agar men boy bo'lsam»

## YAKUNLOVCHI DARS

### MUNOSIB HAYOT – ORZUDAN MAQSAD SARI

#### TARIX SAHNIDA...

Sohibqiron Temurning tulporidek shamollar,  
 Bobur Mirzoning olis diydoridek shamollar,  
 Siz – Navoiy hazratga kitob varaqlab bergen,  
 Toabad ilhom bo'lgan dildoridek shamollar,  
 Bir Vatanga jam bo'ling, barhayot shon bo'lgaymiz,  
 Tarix sahnida Yangi O'zbekiston bo'lgaymiz!


Barchinoy Alpomish deb kashtaga chekkan gullar,  
 To'maris o'z o'g'lining qabriga ekkan gullar,  
 Siz – Bibixonim uchun muhabbat izhor qilib,  
 Kumushbibidek joni titrab entikkan gullar,  
 Bir Vatanga jam bo'ling, yorug' bo'ston bo'lgaymiz,  
 Tarix sahnida Yangi O'zbekiston bo'lgaymiz!

Oqshom ma'sum tushiga Buxoriy kirgan bolam,  
 Nasafiylar nafasin ilg'ab ulgurgan bolam,  
 Siz – teran ildizlardan quvvat olgan kurtaksiz,  
 Bobo Mashrab har sahar uyg'otib turgan bolam,  
 Bir Vatanga jam bo'ling, jo'sh urgan qon bo'lgaymiz,  
 Tarix sahnida Yangi O'zbekiston bo'lgaymiz!

Bu asal tomgan bog'lar necha qayta ko'kargan,  
 Urushlar eggan qaddin Vatan deya ko'targan,  
 Siz – xazon bo'lgan onlar, sinov-u imtihonlar  
 Qoshida ham sinmagan, bardoshlari ko'paygan,  
 Bir Vatanga jam bo'ling, bir tan-u jon bo'lgaymiz,  
 Tarix sahnida Yangi O'zbekiston bo'lgaymiz!

Ulug'bek yulduzidan nur quyilgan tonglarim,  
 Cho'lpon ko'ksidan kelgan yuz yillik ohanglarim,  
 Siz – otam aytgan hikmat, siz – onamning duosi,  
 Yurtdan ayro bo'lmasin shu muborak onlarim,  
 Bir Vatanga jam bo'ling, munavvar tong bo'lgaymiz,  
 Tarix sahnida Yangi O'zbekiston bo'lgaymiz!

*Nosirjon Jo'rayev,  
 shoir, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*



T 23 Tarbiya 9 [Matn]: darslik / Sh. Sattorov [va boshq.]. – Toshkent:  
«O'zbekiston» NMIU, 2020. – 128 b.  
ISBN 978-9943-6577-4-8

UO'K 17(075.3)  
KBK 87.7ya72

*O'quv nashri*

Sh. Sattorov, D. Ro'ziyeva, Z. Islomov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova,  
Z. Zamonov, O. Maxmudov, D. Rahimjonov, N. Xolmuxamedova,  
S. Madaliyeva, L. Mo'minova, S. Zokirova

## **Tarbiya 9**

Baxt va muvaffaqiyat sirlari

*Birinchi nashr*

Umumiy o'rta ta'lif mabtablearning  
9-sinf o'quvchilari uchun darslik

Rassom R. Zufarov

Badiiy muharrir B. Zufarov  
Muharrir N. Abdurahmonova  
Texnik muharrir T. Xaritonova  
Musahih S. Salohutdinova  
Kichik muharrir M. Salimova  
Kompyuterda sahifalovchi va dizayner  
A. Sulaymonov

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Bosishga 2020-yil 6-noyabrda ruxsat etildi. Qog'oz formati 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>.  
Offset qog'oz. «Cambria» garniturada ofset usulida bosildi. Kegli 12.  
Shartli bosma tabog'i 14,88. Nashr tabog'i 00,0.  
Adadi 499 719 nusxa. Buyurtma № 20-372.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20. Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz) [www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

## Darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

| T/r | O'quvchining<br>ismi,<br>familiyasi | O'quv<br>yili | Darslikning<br>olingandagi<br>holati | Sinf<br>rahbarining<br>imzosi | Darslikning<br>topshiril-<br>gandagi<br>holati | Sinf<br>rahbarining<br>imzosi |
|-----|-------------------------------------|---------------|--------------------------------------|-------------------------------|--|-------------------------------|
| 1.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |
| 2.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |
| 3.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |
| 4.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |
| 5.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |
| 6.  |                                     |               |                                      |                               |  |                               |

**Darslik ijara ga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda  
yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash  
mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

|            |   |
|------------|---|
| Yangi      | Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.  |
| Yaxshi     | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.  |
| Qoniqarli  | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.                       |